

ELBAYEVA MUQADDAS RASHIDOVNA

**SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ
RISKLARINI BOSHQARISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

MONOGRAFIYA

“Ilm nuri print” MCHJ

Jizzax-2025

UO‘K: 336 (575.1)

KBK: 65.261.41

E - 45

Elbayeva, Muqaddas Rashidovna. Soliq tizimida soliq risklarini boshqarishni takomillashtirish: monografiya / M.R. Elbayeva. -Jizzax: Ilm nuri print, 2025.- 136 b.

Mazkur monografiyada respublikamiz soliq tizimida bir tomondan soliq to‘lovchilarda yuzaga keladigan soliq xavflari va uning oqibatida davlat budjeti bilan bog‘liq soliq riskini baholashni takomillashtirish borasidagi ilmiy-tadqiqot natijalari keltirilgan.

Ushbu monografiya mazmun-mohiyati jihatidan katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, shu bilan birga soliq va soliqqa tortish mutaxassisliklarida ta’lim olayotgan magistrantlar uchun tavsiya etiladi.

Taqrizchilar: Radjapov Sh.Z. -PhD, Dotsent

Valiyeva S.X. - PhD, Dotsent

Mazkur monografiya Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Ilmiy-texnik Kengashi tomonidan 2025-yil 1-maydagi n/t sonli yig‘lishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.



ISBN 978-9910-557-09-5

© “ILM NURI PRINT” MCHJ, 2025

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I BOB. RISKNING IJTIMOIIY-IQTISODIY ASOSLARI.....	6
1.1-§ Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.....	6
1.2-§ Soliq riskining iqtisodiy mohiyati va unga oid ilmiy qarashlarning nazariy talqini	18
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	33
II BOB. O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH AMALIYOTI TAHLILI.....	35
2.1-§ Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	35
2.2-§ Soliq to'lovchilar faoliyatini segmentlash va soliq xavfi tahlili amaliyoti tahlili.....	51
2.3-§ Yirik soliq to'lovchilarning qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq xavfini aniqlash uslubiyoti va uning qo'llanilish tahlili.....	72
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	84
III BOB. SOLIQ RISKINI ANIQLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	86
3.1-§ Soliq riskini baholashning xorij tajribasi va undan milliy soliq tizimida foydalanish yo'nalishlari.....	86
3.2-§ Soliq risklarini boshqarish orqali soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash masalalari.....	99
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	117
XULOSA.....	119
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI...	123

KIRISH

Soliqqa tortishning rivojlanish tendentsiyalari bo'yicha jahon amaliyotida adolatli soliqqa tortish amaliyotini kuchaytirishga qaratilgan umumiy jarayonlarni ko'rish mumkin. Bu jarayonning ajralmas qismini davlat byudjetiga soliq tushumlarini jalb qilishning barqaror tizimini mustahkamlash bilan bir qatorda, byudjetga soliq tushumlarining belgilangan miqdorda tushmay qolish xavflarini baholash, uning sabablarini aniqlash hamda bu boradagi ishlar ham nazariy ham amaliy jihatdan takomillashtirib borilmoqda.

Xalqaro valyuta fondi tahlillariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasi oqibatlarida jahonda o'ta yuqori noaniqlik sharoitida moliya bozorlaridagi vaziyat va Real iqtisodiyotning rivojlanishi o'rtasida tafovutlar yuzaga kelgan bo'lsa, boshqa tomondan soliq to'lovchi korxonalarda iqtisodiy faoliyatidagi noaniqliklar va ularda soliq to'lay olmaslik xavflarining kuchayishi, mamlakatlar byudjetiga katta miqdorda zarar keltirishi bilan bir qatorda boshqa moliyaviy tizim zaifliklarini kuchaytirdi¹. Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida bo'lgani kabi soliq riski bilan bog'liq yuzaga keladigan salbiy iqtisodiy oqibatlarning ta'sirini kamaytirish, uni optimal baholash asnosida byudjetga zararlarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj doimo saqlanib qolinmoqda, ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida soliq riski bilan bog'liq tadqiqotlar hissasi oshib bormoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish asosida ularda ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda ularda yuzaga keladigan soliq xavfini optimal baholash orqali davlat byudjetining zarar ko'rish holatlarini kamaytirishga qaratilgan amaliy choralarni samarali amalga oshirilishga keng urg'u berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarorida respublikamiz soliq tizimida soliq

¹ Доклад по вопросам глобальной финансовой стабильности. МВФ. <https://www.imf.org/ru/Publications/GFSR>.


xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insoflilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish, soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini ularning moliyaviy va soliq hisobotlari asosida ular duch kelishi mumkin bo'lgan turli xil iqtisodiy risklar (xavflar)ni baholashning turli mezonlarini ishlab chiqish, soliq risklarini aniqlab berishga xizmat qiluvchi mezonlar esa, soliq to'lovchilarning turli xil ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish orqali aniqlanishi ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son "yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 27-iyuldagi PF-5490-son "tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son "soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontsepsiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-73-son "O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son "soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. RISKNING IJTIMOIIY-IQTISODIY ASOSLARI

1.1. Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.

Iqtisodiy tizimda barcha iqtisodiy subyektlar ma'lum bir tartib, qoida va qonunlar asosida faoliyat ko'rsatadi. Bu tartib, qoida va qonunlar subyektlarning tabiat va jamiyat qonunlariga moslashish, ularning xususiyatlarini inobatga olib harakat qilish, ularning ichki mazmunini o'rganish asosda iqtisodiy faoliyat olib borishni taqozo etadi. Tabiat va jamiyatning obyektiv va subyektiv qonunlari insoniyatni undagi kutilmagan holatlarni tadqiq etishni taqozo etadi. Ayniqsa, insonlarning o'zaro birlashib iqtisodiy faoliyat ko'rsatishi-korxonalarni tashkil etib iqtisodiy faoliyat ko'rsatishi ularning oldida turli xil: ijtimoiy, sosial, iqtisodiy, texnik, tabiiy, siyosiy xavflarga duch kelishini taqozo etadi. Insoniyatning o'zi turmush-hayot tarzida turli xil tabiiy xavflarga uchramaslik va ularning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan tadbirlarni ko'rib borsa, boshqa tomondan bu xavflarning ular hayotiga ta'sirini kamaytirish usullarini ham vujudga keltirib borishga harakat qiladi.



1.1-rasm. Ijtimoiy - iqtisodiy xavflar tasnifi

² Muallif ishlanmasi.

Iqtisodiy faoliyatda esa, bu kabi turli xil yuzaga kelish mumkin bo'lgan xavflarni keltirib chiqaruvchi omillarni ham tasniflashni taqozo etadi. Keltirilgan 1.1-rasmdan ko'rinadiki, jamiyatda xavflar tabiat va jamiyat qonunlariga moslashmaslik xavfi, ishlab chiqarish (faoliyat) jarayonlarida yuzaga keladigan texnologik xavflar, iqtisodiy faoliyat, munosabatlarda belgilangan maqsadga erisha olmaslik xavflar hamda turli xil tabiiy, texnogen, fars-major holatlar natijasida yuzaga keladigan xavflar tarzida mavjud bo'ladi. Sanab o'tilgan mazkur xavflarning har birining o'ziga xos kelib chiqish omillari mavjud bo'ladi. Fikrimizcha, xavflarni boshqarishda ularni keltirib chiqaruvchi omillarni va ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aslini olganda xavflarning o'zini ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Ularning birinchi guruhi tabiiy xususiyatga va oldindan baholash mushkul bo'lgan tabiiy-texnik muammolar bo'lib, bu kabi xavflarni boshqarish va ularning salbiy oqibatlarining oldini olish fan-taraqqiyotning darajasiga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy xavflarni garchi aniqlash imkoni bo'lsada, ularning oqibatlari darajasi tabiiy, texnik va iqtisodiy xavflarga nisbatan juda yuqori bo'ladi va ularni bartaraf etish anchayin qiyin bo'ladi. Iqtisodiy xavflar esa, oqibati jihatidan ijtimoiy hisoblansada, ularni baholash, kelib chiqish omillarini aniqlash, boshqarish bir muncha murakkab bo'lsada, ammo tabiiy xavflarga nisbatan anchayin yumshoqroqdir. Bu erda shu narsani unutmaslik kerakki, iqtisodiyotning murakkab obyektiv qonunlari va iqtisodiy munosabatlarning shakli va mazmuni iqtisodiy xavflarni baholashni qiyinlashtiradi. Buning uchun esa, iqtisodiy qonunlar va munosabatlarni boshqarishning eng optimal usullarini tadqiq etib borishni taqozo etadi.

Bu tadqiqotlar doirasiga esa, moliyaviy-iqtisodiy xavflarni doimo o'rganib borish ham kiradi. Demak, xavf tushunchasining mavjudligi tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning bir maromda ketishiga salbiy to'sqinlik qiluvchi tabiiy, ijtimoiy va texnik jarayonlarni tan olishni taqozo etadi va uning mazmunini ham aynan shunday anglashni taqozo etadi.

Agar, iqtisodiyot borasidagi ilmiy va o'quv adabiyotlarga qaraydigan bo'lsak,³ ularda risk tushunchasini "xatar", "xavf-xatar" tushunchalari bilan bir mazmunda ifodalaydi. Ayrim iqtisodchilarning fikriga ko'ra, "bu atamalarning nazariy jihatiga e'tibor qaratilsa, bu tushunchalarning bir-biri bilan o'zaro bog'langandek ko'rinishiga qaramay, ular o'zlarining iqtisodiy mazmuni va ahamiyatiga ko'ra turlicha, bir-biriga o'xshamagan ma'noga ega, ular ishlab chiqarish jarayonining turli tomonlari va qirralarini o'zida namoyon qiladi. "Risk", "tavakkalchilik" kabi tushunchalarni bir xil ma'nodagi tushunchalar deb qarash o'rinli emas, risk-birinchi navbatda xavf-xatar, tavakkalchilik, yo'qotish va zarar yoki foydani yuzaga keltiruvchi omil hisoblanib, ushbu iqtisodiy tushunchalar mazmunini o'zida aks ettiradi. U korxonalar faoliyatini xavf, xatar, tavakkalchilik, yo'qotish va zarar yoki foydaga olib borishda va ularning yuzaga kelishida boshlang'ich manbaa bo'lib xizmat qilgani holda, noaniqlik asosidagi obyektiv harakterga ega iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Bunga sabab ishlab chiqaruvchi tomonidan qabul qilingan qaror oldindan ko'rib bo'lmaydigan va kutilmaydigan bir necha noaniq omillar ta'sirida bo'ladi"⁴. Darhaqiqat, ushbu tadqiqotchi va boshqa shu kabi ko'pgina iqtisodchi olimlar⁵ning qarashlariga qo'shilgan holda xavf tushunchasi bu riskni vujudga kelishini keltirib chiqaruvchi oraliq holat sifatida baholash o'rinlidir. Shu jihatdan olganda xavf bu salbiy oqibatlariga olib keluvchi oraliq jarayon (hodisa) bo'lsa, risk bu natijaviy holatdir.

³ Masalan, O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. - T.: "Mehnat", 1997 y. 165 bet. 3. Abdullaev yo, Boboqulov kredit: 100 savolga 100 javob.- T.: "Mehnat", 1996 y. 80 bet. 4. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi - T.: «Moliya», 2002 y. 5. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: "Mehnat", 1995 y. 387 – bet. 6. Балабанов И.Т. Риск - менеджмент. - М.: «Финансы и статистика», 1996. 456 va shu kabilar.

⁴Ashurov Maxammadjon Sotvoldievich. Risk muhitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi ni ta'minlash yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil.

⁵ Грабовий П.Г. и др. Риски в современном бизнесе - М.: Аланс, 1999. 75б. 13. Бланк И. А. Управление прибылью/ Игорь Александрович Бланк. -Киев: Ника - Центр: Эльга,1998. -544стр.ил.,1 фотоил. (Библиотека финансового менеджера). 14. Крылатых Э.Н. Проблема экономических рисков в АПК. - М.: ЮНИТИ, 1999-235с. 15. Лапушта М.Г. Шаршукова Л.Г. Риски в предпринимательской деятельности. - М.: Инфр - М, 1996. 16. Хохлов Н.В. Управление риском. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 1999-239. 17. Балабанов И.Т. Риск - менеджмент. - М.: «Финансы и статистика», 1996. 45б. 18. Ефимов С.Л. Энциклопедический словарь. Экономика и страхования. М.:Церих-ПЭЛ, 996-34с. va shu kabilar.

Quyida keltirilgan 1.1-jadval mazmunidan ko‘rish mumkinki, aksariyat iqtisodchi olimlar xavfni tadbirkorlikning yakuniy natijasiga ta’sir etuvchi holat, inson hayotiga salbiy ta’sir etuvchi omil, foyda ololmaslik xavfi kabi holatlar tarzida tavsiflangan. F.Naytning fikricha “Xavf -bu o‘lchanadigan noaniqlik”dir.

1.1-jadval

Xavf tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy talqiniga ilmiy yondashuvlar⁶


	Muallif (lar)	Ta’rif mazmuni
1.	A.O‘lmasov	Tadbirkorlik xatari bu-firmaning o‘z foydasi va hatto kapitalidan ajralib qolish ehtimoli
2.	Yo.Abdullaev va b.	Foiz xavf-xatari bu - foiz stavkalarining darajasi va harakatining o‘zgarishi natijasida zarar ko‘rish xavfi
3.	Sh.Shodmonov, R.Alimov, T.Jo‘raev	Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) -yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy mas'uliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad (foyda) olish maqsadida, tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir
	F.Nayt	Xavf -bu o‘lchanadigan noaniqlik
4.	https://staff.tiame.uz/storage (Internet ma’lumoti)	Ma’lum bir shart-sharoitlarda inson hayoti va sog‘lig‘iga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita zararli ta’sir qiluvchi hodisa, voqea, jarayonlar, obyektlar va boshqalarga xavf deb aytiladi.
5.	https://davaktiv.uz/uz/menu/korrupsiyaga-arshi-kurashish-bjicha-idoravij-uzhzhatlar (Internet ma’lumoti)	Korrupsiyaviy xavf-xatar-manfaatlarni ko‘zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi

Agar, bevosita riskning mohiyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak, "Vikipediya" qidiruv-ma’lumotlar bazasida unda quyidagi xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin: “risk – bu noaniq oqibatlariga olib keladigan vaziyatning o‘ziga xos xususiyati, tor ma’noda risk – xavflarning

⁶ Ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslanib, muallif tomonidan tuzilgan.

miqdoriy bahosi, bir hodisaning ikkinchisi sodir bo‘lganda chastotasi, risk – bu yomon sharoitlarda biror narsani istalmagan holda yo‘qotish ehtimoli, risk – bu xavfning nazoratdan chiqib ketish ehtimoli va uning namoyon bo‘lish darajasi bilan ifodalangan oqibatlarining jiddiyligidir”⁷.

Agar kelajakdagi voqealar bilan bog‘liq noaniqlik hodisa bo‘lsa, "xavf" kategoriyasi esa kutilayotgan muayyan noxush hodisani (vaziyatni) jamlab ikki xil baholab – uning yuzaga kelish ehtimoli va mumkin bo‘lgan zarar miqdorini aniqlashga imkon beradi.



1.2-rasm. Iqtisodiy risk omillari⁸

⁷ <https://ru.wikipedia.org>.

⁸ Muallif ishlanmasi.


O‘z o‘rnida risk turlicha shaklda bo‘lsada, uning iqtisodiy turlari biz uchun muhim sanaladi. Shu jihatdan olganda, "risk – bu sodir bo‘lgan taqdirda kompaniyaning obro‘sig‘a ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan, pul ko‘rinishida daromad yoki yo‘qotishlarga olib keladigan noaniq hodisa yoki holat, risk – bu yo‘qotish ehtimolining ko‘paytmasi. Agar risk obyekti investisiyaning bo‘linmas obyekti bo‘lsa (xususan, moliyaga investisiya qilingan kapital), agar barcha tushumlar foyda sifatida qabul qilingan bo‘lsa (kapitalning daromadlilik stavkalarini kerakli idrok etish va boshqalar) xavf darajasi bilan tavsiflanishi mumkin. Risk (lotincha *resecō* "kesish; kamaytirish" yoki boshqa yunoncha *πίζικόν* "xavf" so‘zidan) noxush hodisalarning yuzaga kelishi ehtimoli va oqibatlarining kombinatsiyasi (hisoblash nuqtai nazaridan – mahsulot) "⁹.

Bir qancha noaniqlik manbalari, jumladan, iqtisod, siyosat, hukumat siyosati, pandemiyalar va geosiyosiy mojarolar rasmiy va norasmiy iqtisodiy muhitga ta‘sir qiladi. Iqtisodiy risk korporativ strategiyalar biznes va individual qarorlarga bevosita ta‘sir qiladi. Iqtisodiy risk kuchayganda, axborot bo‘shlig‘i kengayib, kelajakdagi pul oqimlari o‘zgaruvchanroq bo‘ladi. 1.2-rasmda ko‘rsatilgandek, iqtisodiy risk omillari turlicha bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy tizimdagi risklarning mohiyatini anglash uchun bizningcha, uning ildizini iqtisodiy munosabatlarning murakkablik holatidan izlash lozim bo‘ladi. Chunki, birinchidan, iqtisodiy munosabatlar juda ham stixiyali xarakterga ega bo‘lib, ularni boshqarish ma‘lum darajada risklarni keltirib chiqaradi, ikkinchidan, jamiyatda iqtisodiy individlar cheklangan resurslar sharoitida maksimal foyda olishga intilish risklar doirasida kechadi, uchinchidan, bozor sharoitida raqobat muhitining amal qilishi va uning murakkablashib borishi o‘z o‘zidan risklarni kuchaytiradi, to‘rtinchidan, iqtisodiy munosabatlarning bir maromda kechishiga salbiy ta‘sir qiluvchi omillarning tez o‘zgarishi va ularning ta‘sirining notekisligi iqtisodiyotda risk kabi iqtisodiy holatlarni keltirib chiqaradi, beshinchidan, iqtisodiyotning holatini tahlil etishning turli xil iqtisodiy indikatorlarning

⁹ <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

mavjudligi va ularni aniqlikda baholashning murakkabligi risklarni keltirib chiqaradi, oltinchidan, jahon (milliy) xo‘jaligining notekis konyukturasi va hududlarning notekis rivojlanishi turli darajadagi iqtisodiy risklarning iqtisodiyotda mavjud bo‘lishiga olib keladi.

Aslini olganda iqtisodiy risklar – bu iqtisodiy sohadagi yuzaga keladigan xavflarning salbiy ta‘sirining darajasi bo‘lib, ularning mohiyatini yanada to‘laroq aniqlash uchun ularga xos belgilarni ajratib ko‘rsatish uslubiy jihatdan to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Iqtisodiy risklarga xos belgilardan biri bu ularning tavakkalchilikka asoslanishidir. Ko‘pgina adabiyotlarda e‘tirof etilganidek, tavakkalchilik bu iqtisodiy individlarning iqtisodiy qarorlari oqibatida yuzaga keladigan harakatlar bo‘lib, ular oqibatda risklarni keltirib chiqaradi, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, risklar bu iqtisodiy holat va ta‘sir kuchiga ega jarayondir. Iqtisodiy risklarning yana bir muhim belgisi bu iqtisodiy individlarning manfaatlariga zid kelishidir.



1.3-rasm. Iqtisodiy risk belgilari¹⁰

Risklar doimo manfaatlarni kesib keladi, bu esa iqtisodiy faoliyat olib borayotganlarning bosh manfaatlariga muvofiq kelmaydi. Bundan tashqari, iqtisodiy risklarning mohiyatini ochib beradigan yana bir belgisi

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

u doimo nabarqaror bo‘ladi, shu jihatdan uni baholab borish lozim bo‘ladi, bu esa, uning muhim belgisi hisoblanadi. Iqtisodiy risklar iqtisodiy faoliyati olib boruvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar)ning maqsadlariga erishishlarini qiyinlashtiradi, bu esa uning o‘ta murakkabligidan dalolat beradi, demak, u ularning iqtisodiy qarorlarning optimalligini baholab beradi, bular esa, iqtisodiy riskning muhim belgilarini ifoda etadi (1.3-rasmga qarang).


Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, iqtisodiy tushuncha yoki munosabatlarning mohiyatini anglashda ushbu tushunchalarga ilmiy-tadqiqotlar doirasidagi ilmiy yondashuvlarning mazmunini ham tahlil qilish o‘z mohiyatiga ega deb hisoblaymiz. Shundan kelib chiqib, risk tushunchasi berilgan ayrim ilmiy qarashlarni ko‘rib chiqishga harakat qilamiz (1.4-rasmga qarang).

O‘zbekistonlik iqtisodchilardan M.Ashurov o‘zining “Risk muhitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash yo‘nalishlari” nomli maqolasida "risk - bu iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u jamiyatning rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda, texnika ishlab chiqarishda aniq bir yechimga ega bo‘lmagan holatning miqdor va sifat jihatdan ma’lum zarar ko‘rish ehtimoliga aylanishi mumkin bo‘lgan voqelikdir" deb ta’rif berish bilan birgalikda, riskning uning o‘ziga xos elementlari ehtimollik, muqarrarlik, qarama - qarshilik, murakkablik, muqobillik, o‘zgaruvchanlik, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishlik elementlari o‘z sifatli belgilari alohida ahamiyatga egadir”¹¹ deb uning mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Yana bir manbada "risk - kompaniya uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita yo‘qotishlarga olib keladigan har qanday noqulay hodisaning yuzaga kelish ehtimoli”¹² deb ta’rif berilsa, uni boshqarishni "bu tashkilotning maqsadlariga erishishga ta’sir qiladigan potentsial hodisalarni aniqlashga, bunday hodisalar bilan bog‘liq xavflarni boshqarishga va tashkilotning xavf-xatar ishtahasi yo‘qligini

¹¹ Ashurov Maxammadjon Sotvoldievich. Risk muhitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil

¹² Положение об управлении рисками. ОАО «интер РАО ЕЭС. 4-5 стр.

kuzatishga qaratilgan tashkilot boshqaruvining bir qismi bo'lgan doimiy va tsiklik jarayon"¹³ deb baholangan.



1.4-rasm. Risk tushunchasiga yondashuvlar¹⁴

Bulardan tashqari, rossiyalik olim V.Usoskin risk doimo noaniqlik bilan kelib, oxiri o'z navbatida oldindan ko'ra bilish yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq jarayon deb ta'riflasa, risk munosabatlari bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borgan olim Tyutyugina

¹³ Qarang: O'sha manba.a

¹⁴ Ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Anna Viktorovna esa, "risk jozibador maqsadga qaratilgan harakatni tushunish bo'lib, unga erishish xavf elementini mavjudligi, yo'qotish tahdidi yoki muvaffaqiyatsizlik tahdidi bilan bog'liqdir"¹⁵ deb ta'riflasa, S. Dyatlov esa, "risk – bu harakat va harakatsizlik bilan yoki boshqa harakat o'rtasidagi tanlov jarayonining o'ziga xos xususiyati bo'lib, tanlov natijasida yomonroq vaziyatga tushib qolish ehtimoli bilan bog'liq"¹⁶ deb ta'riflagan. Bunday holda, tavakkalchilik bir nechta variantlardan birini tanlashning ma'lum bir jarayoni, xavf subyektining o'ziga xos ixtiyoriy qarori sifatida ko'rib chiqiladi. A.Yu. Che va A.G.Ivanyanlar esa, risk deb, - "noaniq yo'qotishni yuzaga kelishi, iqtisodiy faoliyat sharoitlarining tasodifiy o'zgarishi tufayli kutilayotgan foyda, daromad yoki mulk, pul mablag'lari, boshqa resurslarning kutilmagan yo'qotish tavakkalchiligi tushuniladi"¹⁷.

Ayrim iqtisodchi olimlar, jumladan, F.Filina tadbirkorchilik riskining mohiyatini tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, "tadbirkorlik tavakkalchiligi tizimida tavakkalchilik muhiti va manbalariga qarab, an'anaviy ravishdagi siyosiy, moliyaviy va ishlab chiqarish tavakkalchiligiga ajratiladi. Shu bilan bi vaqtda, tadqiqotchilar soliq tavakkalchiligini, qoida tariqasida, moliyaviy risklarning bir qismi sifatida qaraydilar, ularni pul ko'rinishida baholash mumkinligi, shuningdek, pul moliyaviy munosabatlarning moddiy asosi hisoblanadi. Bundan tashqari, soliq munosabatlari moliyaviy munosabatlarning bir qismi hisoblanadi"¹⁸. V.M.Granaturov esa, F.Filinadan farqli ravishda


¹⁵ Тютюгина Анна Викторовна. Оценка и минимизация налоговых рисков, связанных с планированием и проведением выездных налоговых проверок. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Иркутск -2013. стр 32, Романов В. С. Рискообразующие факторы: характеристика и влияние на риски /В.С. Романов, А. Бутуханов // Моделирование и Анализ Безопасности, Риска и Качества в Сложных Системах, СПб. : НПО «Омега», Ульяновский Государственный Университет. - 2001. стр

¹⁶ Дятлов С.Г. Планирование налоговых рисков при оценке стоимости строительства в подрядной организации : дисс. ... канд. экон. наук : 08.00.05, 08.00.10 / Дятлов Сергей Григорьевич. - Норильск, 2008. – стр 29.

¹⁷ Че А.Ю., Иванян А.Г. О налоговых рисках / А.Ю. Че, А.Г. Иванян // Налоговый вестник. - 2007. - № 10., Тютюгина Анна Викторовна. Оценка и минимизация налоговых рисков, связанных с планированием и проведением выездных налоговых проверок. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Иркутск -2013. 36.

¹⁸ Тютюгина Анна Викторовна. Оценка и минимизация налоговых рисков, связанных с планированием и проведением выездных налоговых проверок. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Иркутск -2013. стр 34, Филина Ф.Н. Анализ налоговых рисков / Ф.Н. Филина // Российский бухгалтер, 2007, №11 стр 62.

moliyaviy va siyosiy risk haqida fikr yuritadi va uni quyidagicha ta'riflaydi: "risk-moliyaviy biznesda valyuta yoki qimmatli qog'ozlar yoki naqd pullardan tovar sifatida foydalanishga asoslangan moliyaviy biznes yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavfni anglatadi, uning an'anaviy ravishda moliyaviy tavakkalchiliklarning uchta guruhi mavjuddir, ya'ni bozor, kredit va investisiya risklari"¹⁹. Ushbu muallifning siyosiy risk sifatida "davlat siyosatining tekshiruv natijasi bo'lib, yo'qotishlarni yuzaga kelishi yoki foyda hajmini kamayishidir. Shunday qilib, siyosiy tavakkalchilik hukumat faoliyatida mumkin bo'lgan o'zgarishlar, uning faoliyatidagi ustuvor yo'nalishlarning o'zgarishlari bilan bog'liq"²⁰ni keltiradi.



1.5-rasm. Tadbirkorlik riski²¹

Ta'kidlashimiz kerakki, risklar ichida tadbirkorlik riski o'ziga xos murakkablik va xususiyatga ega. Avvalo tadbirkorlik faoliyati bu murakkab raqobat muhitidagi noaniq konyukturaga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida amal qilishi bu borada juda ko'plab risklarni

¹⁹ Гранатуров В.М. Экономический риск: сущность, методы измерения, пути снижения / В.М. Гранатуров. - М: Дело и Сервис, 1999. –стр 46.

²⁰ O'sha manba. 50 b.

²¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

keltirib chiqaradi. 1.5-rasmda yoritib berilgandek, tadbirkorlik riski bozor mavqeini saqlash, bozor topish, foyda ololmaslik kabi risklarni o'z ichiga oladi. Tadbirkorlik riskining darajasi esa, bir tomondan tashqi omillarga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan tadbirkorning iqtisodiy siyosati, uning bilim va malakasi bozor qonunlariga hamda jamiyatdagi qabul qilingan milliy qonunlarga amal qilishiga bog'liq bo'ladi.

O'zbek iqtisodchi olimlaridan professor T.Malikov "risk – faoliyat yuritish davomida turli xil omillarning o'zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatar èki xatarlar majmuasidir"²² degan ta'rifni berish bilan bir qatorda tadbirkorlik riskining mohiyatini ochib berib quyidagicha fikr bildiradi: ya'ni, "tadbirkorlik riskining tabiatini tushunish uchun riskning foyda bilan aloqasini o'rganish o'ta muhim ahamiyatga ega. Tadbirkor noaniqlik sharoitida risk qilishga tayyorligini ko'rsatadi, chunki yo'qotish riski bilan birga qo'shimcha daromad olish imkoniyati ham mavjud. Holbuki, tadbirkor foyda olishi kafolatlanmagani yaqqol ma'lum, u sarflagan vaqti, sa'y-harakati va qobiliyatlar uchun mukofot tariqasida foyda olishi ham, zarar ko'rishi ham mumkin"²³ degan fikri anchayin o'rinlidir. Chunki, tadbirkorlik riskining asosida iqtisodiy yo'qotmaslik asosiy masalalardan biri sifatida yuzaga chiqadi.

Mazkur muallif risklarning mohiyatini kengroq ochib berishga harakat qilganligini va ularni anchayin soddaroq va qulayroq bayon etganligini ta'kidlash o'rinlidir. Muallifning ta'kidlashicha, "risk, chama, hodisa, raqobat – biznesning doimiy hamrohlaridir, ba'zilar ishga sarmoya kiritish bilan, boshqalar esa – o'z mulki bilan risk qiladi, bu erda muayyan riskka nafaqat yo'l qo'yish mumkin, balki u zaruriydir, tadbirkorlik riskining mavjudligi – bu, mohiyatan, iqtisodiy erkinlikning orqa tarafidir, ya'ni, uning uchun o'ziga xos tovon"²⁴dir.

²² T.S. Malikov. Moliya: amaliy jihatlar (o'quv qo'llanma).– T.: «Nihol print» OK, 2022. – 332 6.

²³ T.S. Malikov. Moliya: amaliy jihatlar (o'quv qo'llanma).– T.: «Nihol print» OK, 2022. – 320 6.

²⁴ O'sha manba. 342 b.

Dissertasion tadqiqot ishimizning dastlabki, bandi bo'yicha amalga oshirgan nazariy tahlillarimizga asoslanib, bir qator ilmiy xulosalarni chiqarish mumkin:

birinchidan, risklar doimo salbiy holat sifatida baholanadi;

ikkinchidan, noaniqlik, mavhumlik, ehtimollik, xavf kabi tushunalarni risklarning mavjudligi sifatida izohlanadi;

uchinchidan, risklar ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ega bo'lib, ular turli xil omillar hisobiga yuzaga keladi va ularning darajasini belgilab turadi;

to'rtinchidan, risklar ichida tadbirkorlik riski o'zining turli tumanligi, kechishining noaniqligi, uni boshqarishning murakkabligi hamda bozor qonunlariga muvofiqligi va boshqa omillar ta'sirida bo'lishligi bo'yicha ko'plab ilmiy qarashlarda uyg'unlik mavjuddir;

beshtinchidan, iqtisodiy risklarni boshqarish menejment sohasidagi dolzarb masalalar sifatida keng tadqiq etib kelinmoqda.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tadqiqotimizning ushbu bandi bo'yicha risk tushunchasiga o'zimizning quyidagi mualliflik yondashuvimizni keltirib o'tmoqchimiz: **Risk** bu-tabiat va jamiyatning obyektiv qonunlari, ijtimoiy hayotni tashkil etish mazmunidan kelib chiqib, insonlarning hayotining bir maromda kechishi, iqtisodiy munosabatlarning insoniyat manfaatlariga mos kelishiga turlicha ta'sir etadigan va asosiy maqsadga erishishda to'sqinlik qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va sosial holatdir.

1.2. Soliq riskining iqtisodiy mohiyati va unga oid ilmiy qarashlarning nazariy talqini.

Tadqiqot ishimizning avvalgi bobida ta'kidlaganimizdek, xavf, noaniqlik, stixiyalilik, mavhumlik kabi tabiiy-obyektiv jarayonlar jamiyatning boshqa jabhalari singari iqtisodiy munosabatlarda ham doimo mavjud bo'ladi. Ta'kidlaganimizdek, iqtisodiyotning o'z o'ta murakkab munosabatlar va o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lgani kabi unda amal qiladigan turli xil iqtisodiy risklar ham shunchalik murakkab

bo'ladi. Insoniyat iqtisodiyotda o'zaro munosabatlarga kirishishi bir tekisda bo'lmaydi, bu esa risklarning yuzaga kelishini ta'minlaydi, boshqa tomondan iqtisodiyotdagi obyektiv qonuniyatlarning "buyrug'i"ni barcha qatnashuvchilar ham "bajara olmaydi", bundan tashqari ular bozorda mustahkam mavqega ega bo'lish uchun o'zaro kurashadilar, ya'ni raqobat muhitini shakllantiradi. Bu kabi holatlar esa, risk deb ataladigan ijtimoiy-iqtisodiy va sosial holat bilan hisoblashishlarni taqozo etadi. O'zbekistonlik olimlardan professor T.Malikov va iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) N.G'.Xidirovlar "Moliya" nomli o'quv qo'llanmasida risklarning rag'batlantiruvchi va himoyalovchi funksiyalarini keltirib o'tadiki, bu risklarni faqat salbiy holat sifatida baholash o'rinli emas degan xulosalarni berib o'tadi. Ushbu mualliflar risklarni tasniflab ularni iqtisodiy risk, ijtimoiy-siyosiy risk va fiskal-monetar risklarga ajratadi hamda "fiskal-monetar risk davlat o'tkazayotgan moliyaviy va budjet siyosati yordamida, narxlar darajasini barqarorlashtirish va optimal soliq me'yorlarini, pul massasining ta'minoti va kon'yukturasini tartibga solish bo'yicha Markaziy bankning samarali aralashuvi va boshqalar orqali yirik, murakkab tizimlar barqarorligi va iqtisodiy o'sishini ta'minlash bo'yicha masalalarni yechishda yuzaga keladigan risklar majmuidan iborat, moliyaviy risklarni esa, korxonalarning boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan risklar"²⁵dir deb ta'rif bergan.


²⁷ T.S. Malikov. Moliya: amaliy jihatlar. O'quv qo'llanmasi asosida muallif tomonidan tuzildi. T.: "Nihol print" OK, – 325 b.



1.6-rasm. Moliyaviy risklar²⁶

Moliyaviy risklarning muhim turlaridan yana biri bu soliq risklaridir. Soliq riskining o'zagini bizningcha, markazlashgan pul fondlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida soliqlarning mavjudligidan izlash lozim. Soliqlarning o'zi esa majburiy xarakterda ekanligi va uni to'lashdagi notekisliklar hamda soliq to'lovchilar madaniyatining etarli emasligi, qolaversa, soliq to'lovchilarning faoliyati bozor qonunlari asosida kechishligi soliqlarningbudgetga kelib tushmaslik riskini yuzaga keltiradi.

²⁶ T.S. Malikov. Moliya: amaliy jihatlar. O'quv qo'llanmasi asosida muallif tomonidan tuzildi. T.: "Nihol print" OK, 2022.



1.7-rasm. Soliq riskini keltirib chiqaruvchi omillar²⁷

Keltirilgan 1.7-rasmdan ko‘rinadiki, iqtisodiy tizimda soliq risklarini keltirib chiqaruvchi omillar sirasiga bozor munosabatlarining notekis amal qilishi katta rol o‘ynaydi. Chunki, bozorda iqtisodiy munosabatlar notekis amal qiladiki, buning natijasida unda faoliyat ko‘rsatuvchilarning daromad olishi ham turlicha bo‘ladi. Soliq to‘lovchi hisoblanlangan xo‘jalik yurituvchi subyektlar esa, bu jarayonda ularga yuklatilgan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashi ham notekislashadi, ya’ni davlat budjetiga soliqlarning kelib tushmaslik riski yuzaga keladi. Bundan

²⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

tashqari soliqlarning muhim elementlaridan bo'lgan ekvivalentsizlik kim qancha soliq to'lasa, shuncha ijtimoiy xizmat oladi degan qoidani bermasligi, davlat budjetiga kelib tushadigan soliqlarning bir maromda tushmasligini ko'rsatadi, bu esa soliq riskini keltirib chiqaruvchi omil sifatida maydonga chiqadi. Bozor munosabatlari sharoitida soliq majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslarja iqtisodiy egoizmnining doimiy mavjud bo'ladi, bu esa soliq to'lashdan ko'ra, daromadlarni o'z manfaatlariga ko'proq sarflashni taqozo etadi, vaholanki, bu holat soliq riskini keltirib chiqaradi, bundan tashqari, soliq to'lovchilarda soliqlarni o'z vaqtida va xalol to'lash madaniyatining etarli emasligi turli darajadagi budjetlarga soliq to'lovlarining kelib tushmaslik riskini paydo qiladi.

Ma'lumki, soliq to'lovchilarning faoliyati bozor qoidalariga mos amal qilishi va daromad olishning kafolatlanmagan bo'ladi, bu esa, ularning daromad olishini tabaqalashtiradi, daromadlar bo'yicha tabaqalashuv esa, soliqlarning o'z vaqtida to'lanmaslik riskini yuzaga keltiradi. Bulardan tashqari, bizning fikrimizcha, soliqqa oid qonunchilikdan soliq to'lovchilarning yetarli xabardor bo'lmasligi turli xil moliyaviy buzilishlarni keltirib chiqarib, natijada soliq riskini vujudga keltiradi, budjet-soliq siyosatining barqaror bo'lmasligi va uning tez o'zgaruvchanligi soliq to'lovchilarda xavotir o'yg'otadi yoki ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, shuningdek, davlatning import-eksport borasidagi siyosatidagi o'zgarishlar ahamiyatli shunday holatni keltirib chiqaradiki, oqibatda bu jarayonlar soliq riskini keltirib chiqaradi.

Demak, shunday xulosa chiqarish mumkinki, soliq riski moliyaviy risklarning muhim bo'g'ini sifatida u doimiy mavjud bo'ladi. Davlat budjetining asosiy daromad manbalaridan biri sifatida soliqlar amal qilar ekan, yuqoridagi omillarga ko'ra soliq riski doim saqlanib turadi. Qachonki, jamiyatda soliq to'lash majburiyatlari yuklatilgan soliq to'lovchilarda soliq to'lash madaniyati juda yuqori darajada to'lanib, budjetga soliqlar o'z vaqtida to'lanib turilsada, ammo bozor munosabatlari sharoitida notekisliklarning doimiy amal qilishi soliq riskini ham doimiy bo'lishini taqozo etadi. Agar, biz soliq riskini budjet

manfaatlari nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, unda ikki xil holatdagi soliq riskini farqlashimiz kerak bo'ladi. Birinchisi, bu budjetlarga soliq tushumlarining kelib tushmaslik bo'yicha soliq riski bo'lsa, ikkinchisi, soliq to'lovchilarning Qonunchilik bilan ularning zimmasiga yuklatilgan soliq majburiyatlarini o'z vatqida to'lay olmaslik doirasidagi soliq riskidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda soliq riskini bir tomonlama tushunish to'g'ri emas. Biz tadqiqot ishimizda soliq riskini tadqiq etishda ana shu jihatdan yondoshishga harakat qilamiz.

1.2-jadval


Risklarning talqini

1.	S.I.Ojegov va N.Y.Shvedova	Risk bu —muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisa, umid degan ma'noni anglatadi	Ojegov S.I., Shvedova N.Yu. Tolkoviy slovar russkogo yazika. — M.: OOO —A TEMP, 2006.
2.	V.M.Usoskin	Risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, o'z navbatida, oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi	Usoskin V.M. Sovremenniy kommercheskiy bank: upravlenie i operatii. - M.: IPS "vazar-Ferro", 1994.
3.	V.T.Sevruk	Risk - bu zarar ko'rish yoki manfaatni qo'ldan chiqarish bilan bog'liq ehtimollar o'lchamidir	Sevruk V.T. Bankovskie riski. M.: —Delo-LTD, 2006.
4.	P.G.Grabovoy, S.N.Petrova, S.I.Poltavtsev	Risk - bu korxona resurslarining bir qismini yo'qotish yoki daromad ola olmaslik, qo'shimcha xarajatlar qilish xavfidir	Grabovoy P.G., Petrova S.N., Poltavtsev S.I. Riski v sovremennom biznesa. M.: —Alans, 2006.
5.	O.I.Lavrushin	Bank riski ehtimoliy hodisaning qiymat o'lchovi bo'lib, u yo'qotishlarga olib keladi	Lavrushin O.I. Bankovskie riski. - M.: —Knorus, 2007.
6.	G.Panova	Risk kutilmagan hodisalar yuzaga kelganida yo'qotish xavfi yoki imkoniyatidir	Panova G.S. Kreditnaya politika

			kommercheskogo banka. - M.: —Yurayt, 2014.
7.	J.B.Sey	Risk foydaning faqat bir qismini shakllantirish omili hisoblanadi	Sey, J.B. Traktat po politicheskoy ekonomii. – M.: —Direkt-Media, 2007.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, tijorat risklari soliq risklarining asosi hisoblanadi. Iqtisodiyotda inflyasiya ko‘rsatkichlarining oshishi hisobiga pul daromadlarining qadrsizlanishi, korxonalarning investision faoliyatlari bo‘yicha ular kutgan daromadlarni ololmasligi, korxonalarda iqtisodiy faoliyati natijasida foiz ko‘rsatkichlari, to‘lovlarini oshib ketishligi yoki kamayib ketishligi ehtimolligi tufayli ko‘zlangan foyda hajmini ololmaslik ehtimolligi va shu kabilar tijorat risklari doirasida vujudga keladi. Bu risklar esa, iqtisodiy oqibatlarga ko‘ra soliq risklarining darajasini ham belgilab beradi.

Soliq riskini anglashimiz uchun ularning mohiyatini tadqiq etish talab etiladi, bu esa ularning ilmiy-tadqiqotlarda qanday talqin etilganligini tahlil qilishni taqozo etadi.



1.8-rasm. Soliq risklarining tasniflanishi²⁸

²⁸ S.Elmirzaev korporativ soliqlarni rejalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T.:, 2018. – 59 bet.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim S.Elmirzaevning bu boradagi ilmiy tadqiqotlari alohida kasb etadi. Ushbu olimning fikriga ko'ra, "soliq riski bu soliq munosabatlarida qatnashuvchi subyektlarning o'z majburiyatlarini bajarish borasidagi faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va soliq to'lovchilar, shuningdek davlat budjeti moliyaviy yo'qotishlariga sabab bo'luvchi xavf-xatar"²⁹dir deb ta'riflab, soliq risklari, avvalambor, subyektlar bo'yicha tasniflanadi, bunda soliq munosabatlari davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabat natijasida yuzaga kelishi tufayli soliq riski tushunchasiga ikki xil nuqtai nazardan yondashish mumkinligi kelib chiqadi. Ya'ni soliq risklari bir tomondan davlat boshqaruv organlarining soliqqa tortish borasidagi faoliyati davomida (bunda soliq riski Qonunchilik, ijro etuvchi va sud organlari faoliyati orqali vujudga kelishi ko'rib chiqiladi), ikkinchi tomondan soliq to'lovchilarning soliq munosabatlariga kirishishi natijasidagi qonunchilikka zid xatti-harakatlari oqibatida yuzaga kelishi ko'rib chiqiladi degan g'oyani ilgari suradi.

Shuningdek, o'zbek olimlaridan Sh.Boboev o'zining ilmiy tadqiqotlarida soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq riski bilan doimiy bog'liq bo'ladi, agar, soliq riski to'g'ri baholansa, soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi xatoliklar yoki aniqlikka ega ko'rsatkichlarning haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi degan fikrni bildiradi.³⁰ Xorijiy olimlarining ilmiy qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, masalan, "soliq riski – bu moliyaviy faoliyati jarayonida soliq qonunchiligidagi noqulay o'zgarishlar yoki soliq to'lovlarini hisoblashdagi xatolar oqibatida iqtisodiyot subyekti duch kelishi mumkin bo'lgan zarar ehtimoli (xavfi)dir"³¹ deb ta'rif bergan S. A. Filin soliq riskini moliyaviy xatoliklar asnosida baholagan.

²⁹ O'sha manba.

³⁰ Sh.B.Boboev. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
Avtoreferati. Toshkent. 2020 yil. 19 b.

³¹ Filin S. A. Moliyaviy risk va moliyaviy risklarni samarali boshqarish va taminlash jarayonida moliyaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi tarkibi. // Moliya va kredit. - 2002. - № 3. 26-b

Shunday olimlardan biri E.Kalashnikovaning fikrichia, "soliq riski, bizning nazarimizda – bu soliqqa tortish jarayonida soliq to‘lovchi noqulay iqtisodiy oqibatlar, mol-mulkini qo‘shimcha soliq summasi shaklida budjet foydasiga musodara etishni ham qo‘shib, inson faktori, axborot asimmetriyasi natijasidagi soliq sanksiyalari va peniyalar, soliq to‘lovchining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidagi negativ o‘zgarishlar oqibatida ehtimoliy shaklda duch kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilikdir"³². Bunday tavsif risklar tizimidagi soliq risklarining tabiatini nisbatan to‘liqroq ochib beradi. Bizning fikrimizcha, soliq risklarini tadqiq etish maqsadida birlamchi o‘zgarish sifatida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidagi o‘zgarishlar, siyosiy vaziyat o‘zgarishi hamda qonunchilikdagi o‘zgarish va boshqa shu kabi tushunchalarini birlashtirish mumkin. Soliq risklarining ajralib turuvchi xususiyati shuki, soliq stavkalarining o‘sishi bilan soliq riski summasining oshishi ham ro‘y beradi deb hisoblaydi muallif.

Boshqalardan farqli o‘laroq, rosiyalik olim A. Leushev esa, soliq risklarini keng ma’noda, salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi hodisalar boshlanish ehtimoli, ya’ni aynan soliqlarni hisoblash va to‘lash jarayoni bilan bog‘liq moliyaviy (yoki boshqacha) zarar ehtimoli sifatida qo‘llash lozim degan taklifni ilgari suradi va o‘z navbatida soliq risklarini soliq organlari tomonidan soliqlar, jarimalar, peniya (ustama)lar va boshqa moliyaviy sanksiyalarni hisoblashgacha bo‘lgan ehtimol sifatida belgilash mazmundagi ta’rifni keltirib o‘tadi.

D.M Tshekin soliq riskini huquqiy tavakkalchilikning bir bo‘lagi sifatida qaraydi, ya’ni, uning fikriga ko‘ra, "soliq riski huquqiy tavakkalchilikning qismi sifatida tushunilib, chunki soliqqa tortish nafaqat moliyaviy kategoriya, balki huquqiy va bundan tashqari, u alohida kodlashtirilgan huquq sohasidir. Afsuski, an'anaviy tavakkalchilik tizimida huquqiy risk kamdan-kam tilga olinadi, tizimda huquqiy risklar (yuridik risklar), ya’ni qonunchilikning noaniqligi yoki amaldagi qonunchilikning qonuniy talablari buzilishi natijasida yuzaga kelishi

³² Калашникова Эльвира Леонидовна. Налоговые риски: оценка и их финансовые последствия. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск- 2007. стр. 71.

mumkin bo'lgan yo'qotishlar riskidir"³³. D.N.Tixonov esa, soliq riskini "soliq to'lovchining soliqlarni to'lash va optimallashtirish jarayoni bilan bog'liq pul shaklida ifodalangan moliyaviy va boshqa yo'qotishlarga duchor bo'lish imkoniyati"³⁴ sifatida baholasa, F.N. Filina soliq riskining negizini "soliq huquqiy munosabatlar subyektining amaldagi huquq normalariga asoslanib, ushbu subyektning o'zi qabul qilgan kelajakdagi holatlardan salbiy chetga chiqishi tufayli soliqqa tortish jarayoni bilan bog'liq moliyaviy va boshqa yo'qotishlarga duchor bo'lish tavakkalchiligi asosida uning hozirgi paytdagi qarorlar qabul qilishidir"³⁵ deb ta'riflaydi. Soliq riski bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan Tyutyugina Anna Viktorovna esa, soliq riskini "soliq muhitining kutilayotgan holatdan to'satdan yoki kutilayotgan salbiy o'zgarishlari, shuningdek, soliq muhitidagi huquqiy noaniqlik tufayli soliq huquqiy munosabatlari subyektining moliyaviy va boshqa yo'qotishlarga duchor bo'lmaslik uchun qaror qabul qilish imkoniyati"³⁶ deb ifodalagan.

Shu yerda shu narsani alohida ta'kidlashimiz kerakki, A. Tyutyuginaning soliq riski borasidagi tadqiqotlari anchayin ilmiy jihatdan ahamiyatlidir. Ushbu olim soliq riskining turlari va o'ziga xos xususiyatlarini boshqa olimlarga nisbatan anchayin to'laroq ochib bergan. Ya'ni, uning ta'kidlashicha, "qarorlarni qabul qilishda salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligini bilish darajasiga ko'ra, soliq riski qasddan va qasddan bo'lmagan risklarga bo'linadi. Qasddan soliq riski, qoida tariqasida, faqat soliq to'lovchilar faoliyatiga xosdir. Bunda soliq to'lovchi soliq solishdan bo'yin tovlaydi, ya'ni soliqlarni budjet tizimiga

Калашникова Эльвира Леонидовна. Налоговые риски: оценка и их финансовые последствия. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск- 2007. стр. 71.

х с планированием и проведением выездных налоговых проверок. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Иркутск -2013.

³⁴ Тихонов Д.Н. Налоговое планирование и минимизация налоговых рисков / Д.Н. Тихонов, Л.Г. Липник. - М: Софити, 2004. 168 стр., Тютюгина Анна Викторовна. Оценка и минимизация налоговых рисков, связанных с планированием и проведением выездных налоговых проверок. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Иркутск -2013.

³⁵ Тютюгина Анна Викторовна. Оценка и минимизация налоговых рисков, связанных с планированием и проведением выездных налоговых проверок. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Иркутск -2013. С.37, Филина Ф.Н. Анализ налоговых рисков / Ф.Н. Филина // Российский бухгалтер, 2007, №11.

³⁶ Тютюгина Анна Викторовна. Оценка и минимизация налоговых рисков, связанных с планированием и проведением выездных налоговых проверок. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Иркутск -2013. С.38.

to'lashdan yashirishning ataylab noqonuniy usullaridan foydalanadi. Shu nuqtai nazardan, vijdonli soliq to'lovchi - soliq va yig'implarni to'lashga majbur bo'lgan, o'zi hisoblagan barcha soliq va yig'implarni to'laydigan, soliq to'lovlarini optimallashtirishning shubhali usullarini ("soliq sxemalari") ataylab qo'llamaydigan, faqat shulardan foydalangan holda soliq to'lovchidir. Qasddan soliq tavakkalchiligi noaniqlik omillari: atrof-muhitning obyektiv noaniqligi, atrof-muhitning qarama-qarshiligining noaniqligi va shaxsiy noaniqlik bilan bog'liq"³⁷.

F.N. Filina soliq riskini turlarini soliq riskining mohiyati va turlarini hisobga olgan holda, davlat, soliq to'lovchilar, soliq agentlari, o'zaro bog'liq shaxslarning soliq tavakkalchiligini ajratib ko'rsatadi.³⁸ Gratoviy P.G. esa, "bashorat qilish imkoniyati nuqtai nazaridan soliq riski bashorat qilinadigan va oldindan aytib bo'lmaydigan tavakkalchiligiga bo'linadi"³⁹ deb hisoblaydi., shuningdek, uning fikricha, vaqt muddati nuqtai nazaridan soliq riskini qisqa muddatli va doimiyga bo'lish mumkin, soliq riskining maqbullik darajasiga ko'ra qabul qilinadigan, tanqidiy va halokatli riskka ajratiladi. M.I. Migunova o'zining "soliq nazoratidagi risklarni baholash va guruhlash" nomli asarida soliq riskini tavakkalchilikning maqsadga muvofiqligi (riskni o'z zimmasiga olish asoslari) bo'yicha quyidagilarga bo'lish mumkin: oqlangan (asosli) risk va asossiz tavakkalchilik (xatarli oqibatlar tahdidi bilan bog'liq bo'lgan risk), soliq riski yuzaga kelish doirasiga ko'ra tashqi va ichki"⁴⁰ga bo'ladi.

Soliq riskining mohiyatini tadqiq qilish fikrimizcha, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni baholashni ham taqozo etadi. Bu borada iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, A.A.Leushev soliq risklarining paydo bo'lish omillari sifatida: soliqqa tortish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar, soliq qonunchiligi normalarini turlicha tushunish va o'ziga tegishli soliq majburiyatlarini bajarish imkoni

³⁷ Тютюгина Анна Викторовна. Оценка и минимизация налоговых рисков, связанных с планированием и проведением выездных налоговых проверок. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Иркутск -2013. С.47.

³⁸ Филина Ф.Н. Анализ налоговых рисков / Ф.Н. Филина // Российский бухгалтер, 2007, №11.

³⁹ Градов П.Г. Риски в современном бизнесе / Градов П.Г., Петрова С.Н., Полтавцев С.И., и др. - М.: Алане, 1994. - 200 с.

⁴⁰ Мигунова М.И. Классификация и оценка рисков налогового контроля / М.И. Мигунова, Т.А. Цыркунова // Проблемы современной экономики. - 2006. - № 1/2 (17/18).

yoʻqligida deb tushuntiradi. Rossiyalik olimlar T.A.Tsirkunova va M.I.Migunovalar ham A.A.Leushev yondashuviga oʻxshash omillari keltirib oʻtadi, yaʼni ushbu olimning fikricha, soliq riskining ichki omillari sifatida quyidagilarni keltiradi:

- soliqni rejalashtirishda yoʻl qoʻyilgan xatolar;
- soliq qonunchiligini turlicha tushunish;
- inson omili (soliq xatolari);
- xoʻjalik-moliyaviy faoliyatdagi negativ oʻzgarishlar⁴¹.

Soliq riski boʻyicha tadqiqotlar olib borgan E.Kalashnikovaning fikricha, "soliq riski– bu soliqqa tortish jarayonida soliq toʻlovchi noqulay iqtisodiy oqibatlar, mol-mulkini qoʻshimcha soliq summasi shaklida budjet foydasiga musodara etishni ham qoʻshib, inson faktori, axborot asimmetriyasi natijasidagi soliq sanksiyalari va penyalar, soliq toʻlovchining moliyaviy-xoʻjalik faoliyatidagi negativ oʻzgarishlar oqibatida ehtimoliy shaklda duch kelishi mumkin boʻlgan tavakkalchilikdir" deb izohlash bilan birga, soliq riskining avvalboshdagi sababi soliq toʻlovlarini optimallashtirish shaklida minimizasiya qilish emas, balki soliq toʻlovchi baʼzan soliqni toʻlashdan boʻyin tovlash va soliqlarni optimallashtirish oʻrtasidagi nozik chegarani ilgʻay olmay qolgan holatlardir"⁴² deb tavsiflaydi.

Aksariyat olimlar soliq riskining omillari sifatida soliq qonunchiligini turlicha tushunish va uni ikki xil oʻqish, jumladan soliqlarni optimallashtirish mezonlaridagi noaniqliklarni keltirib oʻtadi. Bu borada N.D.Bublikning fikri ahamiyatlidir. Yaʼni, uning taʼkidlashicha, riskni belgilash uni aniqlash va noaniqlik bilan chegaralanishi kerak. Bu uchun muallif risk sharoitida qarorlar qabul qilish vaziyatlari belgilarini ajratib koʻrsatishni taklif etadi:

- qaror qabul qiluvchi shaxs (qqqsh) bir nechta ehtimoliy harakatlardan birini tanlash zarurati oldida turibdi;
- harakatlardan biri kutilmagan oqibatlarga olib kelish ehimoli bor;

⁴¹ Цыкунова Т. А. Налоговые риски: сущность и классификация / Т. А. Цыкунова, М. И. Мигунова // Финансы и кредит. - 2005. - № 33. - 50-бет.

⁴² Калашникова Эльвира Леонидовна. Налоговые риски: оценка и их финансовые последствия. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск- 2007. стр. 76.

- qqqsh o'zini barcha ehtimoliy harakatlarning oqibati borasida xabardor hisoblaydi va bir natija ikkinchisi ortidan kelishini maqbul ko'radi, ya'ni oqibatlarni ularning o'ziga foydalilik nuqtai nazaridan tizimlaydi⁴³.

Bir qator mualliflar, turli sabablarga ko'ra soliq risklarini moliyaviy risklar sirasiga kiritishgan:

- soliq risklarining realizatsiyasi (oqibati) aksar hollarda soliq to'lovchining moliyaviy zarari shaklida namoyon bo'ladi;⁴⁴

- soliq risklarining asosiy qismi bevosita pul muaomalasi shaklida baholanishi mumkin;⁴⁵

- soliq risklarida pul muomalasi bor va u ortiqcha xarajatga sabab bo'ladi⁴⁶.

Soliq risklari soliqqa tortish jarayonida soliq nazoratini amalga oshirish bosqichi shaklida namoyon bo'ladi. D.N. Tixonov va L.G. Lipnik amaliyot nuqtai nazaridan, o'z spesifikasi bilan farqlanuvchi bir nechta soliq risklari turlarini ajratib ko'rsatishadi. Bular – soliq nazorati risklari, soliqlar og'irlashuvining kuchayish risklari, soliqqa oid jinoyatlar ta'qibi risklari. Fikrimizcha, jinoiy ta'qib risklari soliq nazorati riskining bevosita oqibati bo'lib, shu vaqtning o'zida soliqlar og'irlashuvining kuchayish riski soliqqa tortish shartlarining soliq to'lovchi uchun noqulay bo'lgan variantidir, xolos⁴⁷.

Soliq to'lovchining u uchun sezilarli ahamiyatga ega bo'lgan, soliq to'lamaslikka olib keladigan harakati yoxud harakatsizligining sababi (inson omili, axborot asimmetriyasi yoki bevosita niyat) ko'pincha soliq sanksiyalari hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi. Soliqqa tortish jarayonida axborot asimmetriyasiga duch kelgan qonunni hurmat qiluvchi soliq to'lovchida soliq risklari (soliq nazorati natijalariga ko'ra) ham etarlicha yirik va u soliqlarni hisoblashda tasodifiy xatolarning paydo bo'lishiga

⁴³Бублик И. Д. Риск-ресурс: проблемы венчурно-стохастической деятельности. - Уфа, 1999. – с.37.

⁴⁴Тихонов Д. Н. Налоговое планирование и оптимизация налоговых рисков. - М., 2004. - с.106.

⁴⁵Леушев А. А. Методологические подходы к анализу и управлению налоговыми рисками // Финансы и кредит. -2007.-№ 17.- с.40.

⁴⁶Цыкунова Т. А. Налоговые риски: сущность и классификация / Т. А. Цыкунова, М. И. Мигунова // Молия ва кредит. - 2005. - № 33. С.48.

⁴⁷ Калашникова Эльвира Леонидовна. Налоговые риски: оценка и их финансовые последствия. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск- 2007. стр. 83

hamda uning soliq organlari tomonidan aniqlanish ehtimoliga olib keladi. Soliqlarni minimizasiya qilishga faol urinadigan soliq to'lovchilarda bu risklar sezilarli ortadi⁴⁸.

- Ayrim olimlar, masalan, J.Stigler soliq riskini keltirib chiqaruvchi va unga ta'sir etuvchi omillar sirasiga axborot etishmovchiligi (axborot asimmetriyasi)ni keltirib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, "soliqqa tortish jarayonidagi axborot asimmetriyasi – bu soliq to'lovchi va soliq organlarining soliq majburiyatlari to'lanishi borasidagi to'liq bo'lmagan yoxud ko'p variantli xabardorligidir. Soliq nazorati jarayonida u soliq organlariga to'liq axborotga ega bo'lmagan yoki turlicha (mavhum) axborot olganligi bois soliq majburiyatlarini to'liq to'lay olmagan soliq to'lovchilarga soliqlar, peniya va jarimalarni oxirigacha hisoblash imkonini yaratadi. Soliq to'lovchining to'g'ri xulq-atvorini qiyinlashtirib, qo'shimcha transaksiya xarajatlarni (axborot izlash xarajati) tug'dirib, axborot asimmetriyasi soliq riskiga va soliqqa tortish jarayonining samarasiz faoliyatiga olib keladi"⁴⁹. Bundan farqli o'larov, O.N.Antipin esa, axborot asimmetriyasining sabablari sifatida: axborot olish, boshqa taqchil ne'matlar singari, qo'shimcha xarajatlarni talab etishi, axborot ma'nau umri qisqaligi bilan xarakterlanishi, har qanday iqtisodiy subyekt zarur axborotdan o'ziga mos ravishda foydalanish uchun uni ulkan hajmli axborot zahirasiidan ajratib olib bilishi, ehtimolki, qayta mulohaza qilishi va qayta ishlay olishi kabi omillarni keltirib o'tadi⁵⁰.


Keltirilgan 1.9-rasmda keltirilganidek, soliq riskining darajasiga, ya'ni, uni kamayishi yoki ortishiga bizningcha, bir qator omillar ta'sir qiladi. Biz ularni ikki guruhga bo'lishni lozim topdik. Birinchisi birlamchi, ya'ni ta'sirchanligi yuqori bo'lgan omillar bo'lib, ular jumlasiga, soliq to'lovchining soliq madaniyati, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligi bo'yicha savodxonligi, soliqqa tortish ma'murchiligining holati, soliq to'lovchilarning bozorni o'rganishi va uni tahlil qila olish darajasi, davlat budjeti daromadlari rejalashtirish va soliq

⁴⁸ O'sha manba.

⁴⁹ Stigler G. The Economics of Information. - Journal of Political Economy. - 1961. - vol. 69. - № 3. - P.35

⁵⁰ Antipina O. H. axborot assimetriyasi / Antipina O. H. // xabar. Moskva un-ti. 6-seriya, Iqtisodiyot, - 2003 - № 2.

to'lovchilarning amaldagi Qonunchilik bo'yicha soliq to'lash imkoniyatining bog'lanishi kabilarni kiritish mumkin. O'z navbatida yana shunday omillar ham borki, ular ham ma'lum darajada soliq riskining holatiga ta'sir qilib boradi. Bular tarkibiga soliq qonunchiligidagi noaniqliklar, soliqqa tortishning adolatlilik printsiplarining buzilishi, turli xil fors-major holatlar va shu kabilarni kiritish mumkin. Fikrmizcha, ushbu omillarni baholash borish, ularni boshqarish hamda ularning darajasini kamaytirish, soliq ma'murchiligida dolzarb masalalardan sanaladi va har qaysi davlatning budget-soliq siyosatida muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralish zarur deb hisoblaymiz.



1.9-rasm. Soliq riskiga ta'sir etuvchi omillar⁵¹

⁵¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot ishimizning mazkur paragrafimiz doirasida amal oshirgan tadqiqot natijalari, o‘zimizning ilmiy mushohadalarimizga asoslanib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, soliq riski bo‘yicha ilmiy yondashuvlar turli tuman va ularni keltirib chiqaruvchi hamda darajasiga ta’sir qiluvchi omillarga qarashlar ham aynan shunday. Biroq, biz yuqoridagi ilmiy-nazariy talqinlarga asoslanib o‘zimizning soliq riski borasidagi mualliflik yondashuvimiz ham mavjud. Bizningcha, soliq riski bu-har qaysi davlatning budjet-soliq siyosatida asosiy maqsad qilib belgilangan maqsadlarga erishish borasida ham budjet ham soliq to‘lovchi manfaatlariga iqtisodiy-moliyaviy zid keladigan moliyaviy noaniqlik, xavf, mavhumlik holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar majmuasi va ularning namoyon bo‘lishidir.

1-bob bo‘yicha xulosa

Xavf, noaniqlik, stixiyalilik, mavhumlik kabi tabiiy-obyektiv jarayonlar jamiyatning boshqa jabhalari singari iqtisodiy munosabatlarda ham doimo mavjud bo‘ladi. Iqtisodiyotning o‘z o‘ta murakkab munosabatlar va o‘ziga xos qonuniyatlarga ega bo‘lgani kabi unda amal qiladigan turli xil iqtisodiy risklar ham shunchalik murakkab bo‘ladi. Insoniyat iqtisodiyotda o‘zaro munosabatlarga kirishishi bir tekisda bo‘lmaydi, bu esa risklarning yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Aslini olganda xavflarning o‘zini ikki guruhga bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Ularning birinchi guruhi tabiiy xususiyatga va oldindan baholash mushkul bo‘lgan tabiiy-texnik muammolar bo‘lib, bu kabi xavflarni boshqarish va ularning salbiy oqibatlarining oldini olish fan-taraqqiyotning darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ijtimoiy xavflarni garchi aniqlash imkoni bo‘lsada, ularning oqibatlari darajasi tabiiy, texnik va iqtisodiy xavflarga nisbatan juda yuqori bo‘ladi va ularni bartaraf etish anchayin qiyin bo‘ladi. Iqtisodiy xavflar esa, oqibati jihatidan ijtimoiy hisoblansada, ularni baholash, kelib chiqish omillarini aniqlash, boshqarish bir muncha murakkab bo‘lsada, ammo tabiiy xavflarga nisbatan anchayin yumshoqroqdir.

Xavf tushunchasi bu riskni vujudga kelishini keltirib chiqaruvchi oraliq holat sifatida baholash o‘rinlidir. Shu jihatdan olganda xavf bu salbiy oqibatlarga olib keluvchi oraliq jarayon (hodisa) bo‘lsa, risk bu natijaviy holatdir. risklar ichida tadbirkorlik riski o‘ziga xos murakkablik va xususiyatga ega. Avvalo tadbirkorlik faoliyati bu murakkab raqobat muhitidagi noaniq konyukturaga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida amal qilishi bu borada juda ko‘plab risklarni keltirib chiqaradi. Tadbirkorlik riskining darajasi esa, bir tomondan tashqi omillarga bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan tadbirkorning iqtisodiy siyosati, uning bilim va malakasi hamda bozor qonunlariga hamda jamiyatdagi qabul qilingan milliy qonunlarga amal qilishiga bog‘liq bo‘ladi.

birinchidan, risklar doimo salbiy holat sifatida baholanadi;

ikkinchidan, noaniqlik, mavhumlik, ehtimollik, xavf kabi tushunalarni risklarning mavjudligi sifatida izohlanadi;

uchinchidan, risklar ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ega bo‘lib, ular turli xid omillar hisobiga yuzaga keladi va ularning darajasini belgilab turadi;

to‘rtinchidan, risklar ichida tadbirkorlik riski o‘zining turli tumanligi, kechishining noaniqligi, uni boshqarishning murakkabligi hamda bozor qonunlariga muvofiqligi va boshqa omillar ta’sirida bo‘lishligi bo‘yicha ko‘plab ilmiy qarashlarda uyg‘unlik mavjuddir;

beshinchidan, iqtisodiy risklarni boshqarish menejment sohasidagi dolzarb masalalar sifatida keng tadqiq etib kelinmoqda.

Bizningcha, **risk** bu-tabiat va jamiyatning obyektiv qonunlari, ijtimoiy hayotni tashkil etish mazmunidan kelib chiqib, insonlarning hayotining bir maromda kechishi, iqtisodiy munosabatlarning insoniyat manfaatlariga mos kelishiga turlicha ta’sir etadigan va asosiy maqsadga erishishda to‘sqinlik qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va sosial holat bo‘lsa, **soliq riski** deganda har qaysi davlatning budjet-soliq siyosatida asosiy maqsad qilib belgilangan maqsadlarga erishish borasida ham budjet ham soliq to‘lovchi manfaatlariga iqtisodiy-moliyaviy zid keladigan moliyaviy noaniqlik, xavf, mavhumlik holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar majmuasi va ularning namoyon bo‘lishi tushuniladi.

II BOB. O‘ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH AMALIYOTI TAHLILI

2.1. Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti


Jahon amaliyotida anchadan buyon amalga oshirilib kelinayotgan soliq riskini baholash amaliyoti respublikamiz soliq tizimida ham qo‘llanila boshlaganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsada bu borada ma’lum darajada tajribalarga ega bo‘lindi. Albatta soliq riskini baholash uchun uni amalga oshirish uslubiyotini to‘g‘ri aniqlab olish muhim sanaladi. Bunda soliq xavfini baholash va soliq to‘lovchilarni insoflilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5490-son Farmoni hamda 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-4389-son qarorida respublikamiz soliq tizimida soliq xavfini baholash va soliq to‘lovchilarni insoflilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish vazifalari belgilab berilgan edi.

Bunda asosiy e‘tibor soliq to‘lovchilarning iqtisodiy faoliyatini ularning moliyaviy va soliq hisobotlari asosida ular duch kelishi mumkin bo‘lgan turli xil iqtisodiy risklar (xavflar)ni baholashning turli mezonlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Soliq risklarini aniqlab berishga xizmat qiluvchi mezonlar esa, soliq to‘lovchilarning turli xil ko‘rsatkichlarini o‘zaro solishtirish orqali aniqlanishi ustuvor uslubiyot qilib belgilab berildi. Soliq to‘lovchilarning soliq riskini baholash uchun esa, uning mohiyatini anglatuvchi yana bir qator iqtisodiy holatlarni aniqlab olishni taqozo etadi. Shu boisdan ushbu iqtisodiy kategoriyalarni quyidagi rasmda keltirib o‘tamiz.

Keltirilgan 2.1-rasmda ifodalanganidek, O‘zbekiston soliq tizimida soliq riskini soliq xavfi ma’nosida tavsiflanadiki, uning mazmunini soliq


to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilmaslik ehtimoli sifatida baholanadi. Bunda qonunchilikka rioya etmaslik ehtimolida soliq to'lovchining zimmasiga yuklatilgan soliq to'lovlari to'lay olmaslik xavfi kelib chiqishi nazarda tutiladi. Aslini olib qaraganda soliq to'lovchining soliq to'lay olmaslik xavfining yuzaga kelishi davlatning soliq-moliyaviy riskini keltirib chiqaradi, ya'ni soliq to'lovchining soliq riskining oshishi davlatning ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtira olmaslik xavfi oshadi, shu jihatdan olganda soliq to'lovchining soliq to'lay olmaslik xavfining darajasi davlatning ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtira olmaslik xavfiga proporsional bo'ladi.



2.1-rasm. Soliq riskini tavsiflovchi ko'rsatkichlar⁵²

⁵² Amaldagi Qonunchilik asosida muallifning ishlanmasi.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq riskini baholashga oid turlicha yondashuvlar keltiriladi. Masalan, professor S.Elmirzaev soliq riskini baholashni uni samarali boshqarish tarzida qaraydi.




2.2-rasm. Risklarni boshqarish⁵³.

Muallif ta'kidlaydiki "soliq risklarini samarali boshqarishni tashkil etish uchun soliq risklarini aniqlash va baholash, ularga ta'sir etish, ya'ni kamaytirish chora tadbirlarini ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. **Soliq risklarini aniqlash va baholash esa**, keltirilgan ketma-ketlikdan kelib chiqqan holda soliq risklarini samarali boshqarish nuqtai nazaridan quyidagilar: qonunchilikdagi munozarali holatlarini o'rganib borish, mavjud risklar monitoringini o'tkazish risklar tasnifidan kelib chiqqan holda ularning oqibatlarini baholash"ni amalga oshirish zarur.

Dosent. Sh.Boboev jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish muammosini o'rganishda soliq risklarini baholash jihatlariga ham e'tibor qaratadi. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, "soliqlarni prognoz qilish jarayoni soliq riski bilan doimiy bog'liq bo'ladi, agar, soliq riski to'g'ri baholansa, soliqlarni prognoz qilish jarayonidagi xatoliklar yoki aniqlikka ega ko'rsatkichlarning haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi"⁵⁴.

⁵³ S.Elmirzayev Korporativ soliqlarni rejalashtirish. O'quv qo'llanma. – T., 2018. 64 bet.

⁵⁴ Sh.B.Boboev. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent. 2020 yil. 19 b.



2.3-rasm. Soliqlarni prognoz qilishda risk tahlili modeli⁵⁵

⁵⁵ Sh.B.Boboev. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

Mazkur tadqiqotchining soliq riski bilan bog‘liq tadqiqotlari fikrimizcha, uslubiy jihatdan anchayin ahamiyatli deb hisoblaymiz, ya’niki, muallif soliq riskini mahalliy budjetlarning moliyaviy risklari bilan bog‘liq holda o‘rganib o‘ziga xos uslubiyotni taklif etadi. Muallifning fikricha, "soliq riskini boshqarishga doimo ehtiyoj mavjud, uni bir maromda boshqarish uchun esa, uning darajasini baholash kerak. O‘z navbatida, soliq riskini baholash esa ma’lum bir tizimli modellarni talab etadi"⁵⁶ va quyidagi uslubiyotni taklif etadi:

“Mahalliy budjetning moliyaviy riski darajasi:

$$(Mr_{MB}) = -\Sigma SROHSTK + \Sigma STO + \Sigma BKTD, \quad (1)$$

bu erda: $\Sigma SROHSTK$ – soliq riski oshishi hisobiga soliq tushumlari kamayishi;

Σsto – soliq tushumlarining oshishi;

$BKTD$ – boshqa ko‘zda tutilmagan daromadlar bo‘yicha tushumlar.

Agar,

$\Sigma sto > \Sigma SROHSTK$ yoki $\Sigma BKTD > \Sigma SROHSTK$ bo‘lsa,

soliq riski nolga teng bo‘ladi va mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarining bir maromda bajarilishi ta’minlanadi, deb xulosa qilish mumkin.

O‘z o‘rnida soliq riski koeffisientini ham aniqlash ham muhim sanaladi. Muallif tavsiyasiga ko‘ra, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Soliq riski koeffisienti quyidagicha hisoblanadi:

$$(K_{sr}) = \Sigma SROHSTK / MB_{SDP}, \quad (2)$$

bu erda: MB_{SDP} – mahalliy budjetlarning solikli daromadlari prognoz ko‘rsatkichi.

Agar, bu koeffisient 0,10 koeffisientdan oshsa, soliq riskining darajasi yuqori bo‘lib, u mahalliy budjetdan belgilangan xarajatlarni amalga oshirish kamayishiga olib keladi, bu erda soliq riskining eng quyi chegarasini 0,10 koeffisient qilib belgilanishi, iqtisodiy prognozlarda statistik maksimal xatolik maksimum 10 foiz qilib belgilanishidir. Agar bu koeffisient 0,05 dan kam bo‘lsa, o‘rtacha normal holat deb baholanishi

Avtoreferati. Toshkent. 2020 yil. 20 b.

⁵⁶ O‘sha manba

kerak. Muallifning fikricha, mazkur koeffisientlarni aniqlab, budjet daromadlari bo'yicha tegishli choralar ko'rib borish o'z mohiyatiga ega"⁵⁷.

Soliq risklarini boshqarish va baholash muammosini tadqiq qilgan yana bir Vatanimiz olimlaridan Z.Axrorov "soliq risklarini boshqarish maqsadida, soliq to'lovchining soliq riski – soliq xatolari, soliq qonunchiligini noto'g'ri talqin qilish va soliq faoliyatining boshqa ishlari natijasida noaniqlik sharoitida soliq to'lovchining budjet oldidagi o'z majburiyatlarini bajarishi paytida yuzaga keladigan noxush moliyaviy, huquqiy va ijtimoiy holatlarning paydo bo'lish ehtimoli sifatida qarash lozim"⁵⁸ deb baholaydi. Shuningdek, ushbu tadqiqotchining quyidagi "davlat soliq riski va soliq to'lovchi soliq risklari o'rtasida teskari xarakter mavjud. Soliq munosabatlari bo'yicha ularning maqsadlari o'zgachadir: davlat – soliq to'lovlari hajmini oshirish, soliq to'lovchilar esa – ularni kamaytirish. Umuman olganda, soliq yangiliklari davlat uchun ijobiy va soliq to'lovchi uchun salbiy holat bo'lishi mumkin"⁵⁹ mazmunidagi fikri ham anchayin o'rinlidir.

Albatta soliq xavfini to'g'ri baholash soliqlardan qochishning oldini olish bilan bog'liq choralarni ishlab chiqishga imkon bersa, davlat budjetiga rejalashtirilgan soliq tushumlarining kelib tushish darajasini davriy jihatdan baholab borish orqali davlat budjeti daromad parametrlarining bajarilishiga uslubiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu jarayonda fikrimizcha, soliq xavfini aniqlovchi mezonlar, soliq xavfi darajasini belgilovchi ko'rsatkichlarni to'g'ri aniqlab olish talab etiladi. Bundan tashqari esa, tadbirkorlik subyektlarini segmentlash hamda soliq xavfi tahlilini o'tkazishning uslubiy asoslarini puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Fikrimizga bunda soliq xavfini baholashning oldiga qo'yiladigan vazifalar, uning tamoyillari va amalag oshirish bosqichlarini belgilab olish uslubiy jihatdan to'g'ri bo'ladi.

⁵⁷ O'sha manba.

⁵⁸ Z.O.Axrorov, Sh.O. Shermamatov. Soliq munosabatlarini tartibga solish sharoitida soliq risklarini boshqarish yo'llari. "Servis" ilmiy-amaliy jurnal 2020 yil 1-son.

⁵⁹ O'sha manba.

Soliq riskini kamytirish, uni jilovlash hamda u bilan bog‘liq yuzaga keladigan salbiy holatlarga qarshi chora-tadbirlarni belgilashda soliq xavfini boshqarish jarayoni katta ahamiyatga egadir. Soliq xavfini boshqarish ham ma‘lum usullarni talab qiladi.

Davlat, o‘zining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari orqali, boshqaruv qarorlar qabul qilib, soliqqa tortish bilan bog‘liq xatarlarni o‘z zimmasiga oladi, shuning uchun maqsadlarga erishishda noaniqlik sifatida soliq risklari nafaqat iqtisodiy subyektlar uchun, balki turli darajadagi boshqaruv subyektlari uchun ham ahamiyatlidir.

Soliq riski mavjud bo‘lgan har bir guruh subyektlari uchun moliyaviy va boshqa yo‘qotishlar shaklida oqibatlari bor. Bu turli xil maqsadlarga qarab, soliqqa tortish bo‘yicha qarorlar qabul qilishga bog‘liq bo‘ladi.

Yangi soliqlarni joriy etish, soliq yukini oshirish va ko‘pincha soliq qonunchiligiga yoki boshqa qoidalarda mayda o‘zgarishlar qabul qilish, yoki mavjud qonunlarni o‘z vaqtida tuzatmaslik, davlatga doim soliq tushumlarini yo‘qotish xavfini tug‘diradi. Ma‘lumki, soliq bosimining haddan tashqari ko‘payishi bilan soliq to‘lovchilarning ma‘lum bir qismi yashirin iqtisodiyotiga o‘tadi, boshqalari esa "oydin"da qolib, davlat oldidagi soliq majburiyatlarini minimallashtirish uchun rost yoki tovlamachilik qilishadi. Oqibatda, yangi soliqni joriy etish yoki soliq stavkalarini oshirish yoki soliq imtiyozlarini bekor qilishdan olinadigan daromadlar sezilarli darajada ko‘payishi o‘rnida, budjetga soliq tushumlari kamayadi.

Xususan, biz davlatning iqtisodiyotga soliq yukini oshirish bo‘yicha bo‘lgan harakatlari haqida gapiramiz. Soliq qonunchiligining etarli darajada ishlab chiqilmaganligi natijasida xam soliq risklari ham yuzaga keladi. Hozirgi bosqichda davlat soliq siyosatining asosiy vazifasi faol moliyaviy-xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdir, soliq to‘lovchining ixtiyorida qolgan mablag‘lar va soliq va budjet mexanizmlari orqali qayta taqsimlanadigan mablag‘lar o‘rtasidagi maqbul nisbat, ya‘ni shaxsiy va jamoat

manfaatlarning kombinasiyasi orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdan iborat.

Hozirgi kunda mamlakat soliq tizimi soliq yukining izchil kamayishiga va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investisiyalarni jalb etish uchun qulay iqlimning shakllanitirishga asoslangan. Soliq organlarining bunday tadbirlardan asosiy maqsadi soliq qarzдорligi yig'uvchanligini oshirish va riskli vaziyatlarni kamaytirishdir. Ma'lumki, yuridik shaxslar uchun soliq to'lovlari xarajatlarning eng muhim qismidir, shuning uchun ichki nazorat qismi sifatida soliq risklarini boshqarish va monitoring qilish zarur.

Bilvosita soliq risklarini boshqarishning samarali tizimini yaratish kompaniya qiymatining oshishiga hissa qo'shadi, chunki salbiy kutilmagan hodisalar yo'qligi investorlarning ishonchini oshiradi. Shu munosabat bilan soliq risklarini boshqarishga asoslangan strategiyaning ishlab chiqish kerak, ammo bu ularning to'liq yo'q qilinishini anglatmaydi, chunki ba'zilar xatarlarni printsiptial ravishda bartaraf etish mumkin emas. Shunga qaramay, barcha soliq risklarini o'z vaqtida aniqlash, baholash va boshqaruvda qarorlarini qabul qilishda kelajakni hisobga olish kerak.

O. V. Gordeevaning fikriga ko'ra soliq risklarini kamaytirishga quyidagilar ahamiyatlidir:⁶⁰

- soliq qonunchiligi talablariga ehtiyotkorona hukm chiqarish;
- amaldagi qonunchilikda etarli darajada yoritilmagan masalalarni hal etishda qachondir vujudga kelishi mumkin bo'lgan soliq risklariga muvozanatli yondashish;
- amaldagi qonunchilikni noaniq talqin qilgan bitimlar va kelishuvlarni soliqqa tortishda kasbiy konservatizmning etarli darajasi;
- soliqqa tortishni optimallashtirish-amaldagi qonunchilik doirasida to'langan soliqlarni optimallashtirish va soliq risklarini kamaytirishga, soliq yuki darajasi muvozanatini va soliq risklarini maqbul chegaralar

⁶⁰ Gordeeva O. V. soliq risklarini boshqarish masalasida // Qonunchilik va iqtisodiyot. -2008. - 2-son. - 38-45 b.

doirasida ushlab turishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish.

O. V. Gordeevaning fikriga qo'shilishimiz mumkinki, haqiqatan ham soliq siyosatining ushbu tamoyillari soliq risklarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Risk darajasini pasaytirish uchun turli usullardan foydalaniladi, ular orasida eng ko'p tarqalganlari: diversifikasiyalash, tanlov va natijalar haqida qo'shimcha ma'lumot olish, cheklash, sug'urta va o'z-o'zini sug'urtalashdir.

- *diversifikasiyalash*-bu bir hil bitimlar tuzish uchun turli xil variantlarda xulosalar qo'llash jarayoni bo'lib, bir tashkilot ichida risk noldan ma'lum bir darajagacha qabul qilinganda soliq risklarini boshqarishda axborot muhim rol o'ynaydi;

- soliqqa tortishda *axborot* muhim rol o'ynaydi, shuning uchun ko'pincha cheklangan ma'lumotlarga asoslanib xavfli qarorlar qabul qilish kerak.


Agar to'liq ma'lumotga ega bo'lsak, aniq prognoz qilishimiz va soliq riskini kamaytirishimiz mumkin. Bu ma'lumotni juda qimmatli manbaga aylantiradi. Investor to'liq ma'lumot olish uchun to'lashga tayyor (soliq sohasida soha mutaxassislarining maslahatlari bo'lishi mumkin, soliq advokatlar, shu jumladan, vakolatli davlat organlariga so'rovnomalar, tomonlar haqida ma'lumot yig'ish, sud amaliyoti tahlili);

- *limitlash*-bu cheklovni o'rnatish, ya'ni soliqqa tortish sohasida maksimal miqdorda riskli bo'lgan bitimlar. Limitlash risk darajasini kamaytirishda muhim usul bo'lib, portfeli risklar bo'lgan kompaniyalarda qo'llaniladi;

- *o'z-o'zini sug'urtalash* (zahiralash) kompaniyaning sug'urta kompaniyasidan sug'urta sotib olishdan ko'ra o'zini sug'urtalashni afzal ko'rib, sug'urta uchun kapital xarajatlarni tejashini anglatadi. O'z-o'zini sug'urtalash-bevosita xo'jalik yurituvchi subyektlarda, ayniqsa faoliyati xavf ostida bo'lganlarda sug'urta (zaxira) fondlarini yaratishning markazlashmagan shakli;

- *sug'urtalash* investorning riskdan qochish uchun daromadning bir qismidan voz kechib, ya'ni sug'urta sotib olib risk darajasini nolga

kamaytirish uchun to‘lashga tayyorligi. Xavf-xatarga yo‘l qo‘ymaydigan tashkilot har qanday moliyaviy zararni (kapital, daromad) to‘liq kompensasiya qiladigan sug‘urta qilishni xohlaydi.



2.4-rasm. Soliq ma‘murchiligi tizimida soliq risklarini boshqarish quyi tizimi⁶¹

Ushbu quyi tizim tashkilotlarni nazorat qilish va tekshirishda qo‘ydagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

⁶¹ Калашникова Эльвира Леонидовна. Налоговые риски: оценка и их финансовые последствия. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск- 2007. стр. 71.

- soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish;
- ichki va tashqi hujjatlar bilan bog‘liq jarayonlar va proseduralarning aniqligi va to‘liqligi;
- xatolar va buzilishlarni oldini olish;
- rahbariyatning buyruq va farmoyishlarini bajarish;
- moliyaviy hisobotlarning aniqligi va to‘liqligi.

Soliq risklari soliq stavkalarini qayta ko‘rib chiqishni kutish, yangi soliqlar yoki to‘lovlarni joriy etish, shuningdek soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar tufayli paydo bo‘ladi. Boshqa risklardan (moliyaviy, narx) farqli o‘laroq soliq risklari davlat siyosati bilan to‘liq belgilanadi va ularning darajasi iqtisodiyotdagi umumiy institusional sharoitlarning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan fiskal qonunchilikning barqarorligiga bog‘liq.

Soliq risklarini boshqarish jarayoni moliya-soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi va quyidagi uchta: dastlabki, asosiy va yakuniy bosqichlarni o‘z ichiga oladi

2.1-jadval

Soliq risklarini boshqarish⁶²

Soliq risklarini boshqarish		
Dastlabki bosqich	Asosiy bosqich	Yakuniy bosqich
Soliq risklarini boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish	Soliq risklarini aniqlash	Soliq risklarini boshqarish natijalarini baholash
Soliq risklariga mavjud bo‘lgan soliq to‘lovchilarni aniqlash	Soliq risklarining yuzaga kelish ehtimolini hisoblash va ularning oqibatlarini baholash (ehtimoliy zarar miqdorini aniqlash)	Soliq risklarini boshqarish chora-tadbirlarini amalga oshirish

⁶² Калашникова Эльвира Леонидовна. Налоговые риски: оценка и их финансовые последствия. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иркутск- 2007. стр. 71.

Soliq risklarini aniqlash uchun zarur bo'lgan axborotni baholash	Soliq risklarini boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqish	Monitoring (soliq risklarini boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining bajarilishi natijalarini nazorat qilish)
--	---	---

Soliq risklarini boshqarishning dastlabki bosqichi soliq risklariga ega bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini aniqlash maqsadida soliq organlari tomonidan tushuntirish, profilaktika tadbirlarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Asosiy bosqichning mazmuni-soliq risklarini aniqlagan soliq to'lovchilarni guruhlash va ularga nisbatan soliq risklarini boshqarish choralarini qo'llashni qamrab olsa, yakuniy bosqichda soliq risklarini boshqarish natijalari aniqlanadi, soliq organlarining samarali faoliyati amalga oshiriladi va ular asosida monitoring o'tkaziladi (soliq risklarini boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining bajarilishi natijalari nazorat qilinadi).

Soliq risklarini boshqarish ma'lum darajada riskli hodisalarining sodir bo'lishini bashorat qilish va bunday hodisalar yuz berishining salbiy oqibatlarini istisno qilish yoki kamaytirish choralarini ko'rish imkonini beradigan usullar, omillar, metodlar va chora-tadbirlar majmui sifatida ham tavsiflanishi mumkin.

Maqsadli soliq risklarini boshqarish omillari quyidagilar:

huquqiy, ya'ni davlat va (yoki) mintaqaviy darajadagi siyosiy hokimiyatning barqarorligi va mavjud mulkiy munosabatlarni tubdan qayta ko'rib chiqish imkoniyati;

soliq qonunchiligi va huquqni muhofaza qilish amaliyotida o'zgarishlar;

- Markaziy bank kreditlari bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarishi oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishi;

soliqlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish qoidalarining o'zgarishi;

- rasionallik, ya'ni soliq ma'muriyati xarajatlarning oqilona miqdorini ta'minlash va soliq risklarini boshqarish.

Soliq risklarining kattaligi iqtisodiy rivojlanishga hamda davlat budjetiga ta'sir qiladi, davlat soliq tushumlarini ko'paytirishga va shu bilan birga soliq ma'muriyati xarajatlarini kamaytirishga intiladi.

Soliq risklarini hal qilish nuqtai nazaridan boshqarishning quyidagi asosiy usullari ma'lum:

- qochish-risk bilan bog'liq bo'lgan hodisadan oddiy qochish;
- riskni ushlab qolish - ya'ni riskni soliq to'lovchi mas'uliyatiga yuklatish;
- riskni o'tkazish - bitim shartlarini o'zgartirib, soliq to'lovchi soliq riski uchun javobgarlikni boshqa birovga o'tkazadi;
- risk darajasini pasaytirish-mumkin bo'lgan ehtimollik va hajmini kamaytirish soliq riskining namoyon bo'lishi bilan bog'liq zararlar.
- risk darajasini pasaytirish-soliq riskining namoyon bo'lishi bilan bog'liq ehtimoliy yo'qotishlar va hajmini kamaytirish.

Ya'ni soliq risklarini boshqarish soliq to'lovchilar bilan munosabatlarni tartibga solish tizimida soliq organlarining mumkin bo'lgan soliq risklarining yuzaga kelishi va oldini olishga va soliq to'lovchilarning samarali nazoratini ta'minlashga qaratilgan muayyan harakatlar majmuidir.


2.2-jadval.

Korxona uchun soliq riskining vaqt doirasida ta'sir qilishi⁶³

Parametr	Tarkibi
Riskning ta'sir qilish davri	Soliqlarni hisoblash va to'lash bilan bog'liq bo'lmagan, lekin soliq qonunchiligida nazarda tutilgan vazifalarni bajarish (majburiy soliqni ro'yxatga olish, soliq postlarini tashkil etish). Muayyan soliqni to'lash bo'yicha joriy majburiyatlarni bajarish muddati. Kompaniya ma'lum bir soliq davri uchun aniq soliqlar bo'yicha budjet bilan hisob-kitoblarning to'liqligi va o'z vaqtida bajarilishi uchun javobgar bo'lgan vaqti
Axborot bazasi	Birlamchi buxgalteriya hujjatlari.

⁶³ Shevelev A.E. Buxgalteriya hisobida risklar: darslik /A. E. Shevelev, E. V. Sheveleva.- M.: KNORUS, 2007.- s.280.

	Soliq hisobi registrlari. Budjet bilan hisob-kitoblarni moliyaviy hisobga olish registrlari. Tanlangan soliqqa tortish variantining hisoblangan boshqaruv hisobining ma'lumotlari (birlamchi hujjatlar va registrlar), soliq to'lovlarini boshqarish bo'yicha materiallar, hisob siyosati variantini tanlashni asoslash uchun analitik hisob-kitoblar. Kompaniyaning soliq hujjatlari: soliq deklarasiyalari, soliq registrlari (masalan, shaxsiy daromad solig'i kartalari), imtiyozlar hisob-kitoblari, ularning iltimosiga binoan soliq organlariga taqdim etilgan ma'lumotlar. Soliq organlaridan olingan soliq hujjatlari: soliq to'lash so'rovi, korxonaning so'rovlariga javoblar.
Riskning namoyon bo'lishi	Soliq to'lovlarida tejamkorlik. Soliqlar, penyalar va jarimalar shaklida qo'shimcha to'lovlar.



sayyor soliq tekshiruvlari, kameral tekshiruvlari va soliq auditi rejalashtirishning yagona tizimini yaratish;

tadbirkorlik subyektlarining soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo'yicha savodxonligini oshirish;

soliq majburiyatlarini ixtiyoriy va to'liq bajaradigan soliq to'lovchilar sonini ko'paytirish orqali davlat daromadlarining o'sishini ta'minlash;

yashirin iqtisodiyot sohasida ishlaydigan soliq to'lovchilar sonining kamaytirish;

soliq huquqbuzarligi sodir etish xavfi darajasidan kelib chiqib, "soliq xavfini tahlil qilish" natijalari asosida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan soliq tekshiruvi tashabbusi bilan chiqish;

soliq organlarining mavjud kadrlar resurslaridan kelib chiqib soliq nazoratini soliq xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar va ustivor iqtisodiy faoliyat sohaslariga qaratish;

soliq xavfini baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lamini qisqartirish;

soliqqa oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish.

tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan hisobotlar tahlili;

davlat organlari, tashkilot va muassasalar tomonidan taqdim etiladigan tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili;

tadbirkorlik subyektlarini segmentlash; soliq xavfi mezonlari asosida soliq xavfi darajasini baholash;

soliq xavfi darajasini baholash natijalari asosida soliq nazorati o'tkazilishi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini shakllantirish

2.5-rasm. Soliq xavfini boshqarish vazifa va belgilari⁶⁴

⁶⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

Har bir korxona soliq riskiga duch keladi, chunki soliqqa tortish barcha faoliyat turlariga va barcha soliq to'lovchilarga tegishli va shuning uchun har bir korxona uchun soliq riskini kamaytirish choralari ko'rish zarur. Rus olimi A.E.Shevelevning fikricha, "soliq riski paydo bo'lganda, ta'sir qilish davrini o'rganish, risk miqdorini baholash, va maqbul darajagacha soliq riskini kamaytirish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqib, nazorat qilish uchun zarur"⁶⁵ deb hisoblaydi.

2.2-jadvalda keltirilganidek, korxona uchun soliq riskining vaqt doirasida ta'sir qilishi A.E.Shevelevning ta'biricha, riskning ta'sir qilish davri, axborot bazasi va riskning namoyon bo'lishi tarzida amal qiladi. Darhaqiqat fikrimizcha, korxonalarda ham hisob siyosati doirasida soliq to'lash nuqtai nazaridan soliq riskini boshqarish ularning moliyaviy boshqaruvining muhim yo'nalishini tashkil etish kerak. Soliq to'lovchilarda soliq riskini boshqarish deganda avvalo ularning davlat budjeti va boshqa maqsadli fondlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash va shu orqali turli xil moliyaviy (ma'muriy, jinoiy) javobgarliklarning oldini olish orqali korxonaning imidjini saqlash, shuningdek, turli xil ortiqcha unumsiz xarajatlar qilishning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni qamrab olishi zarur. Soliq riski soliq xizmati nuqtai nazaridan qaralganda bu jarayon ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, asosiy e'tibor soliq riskini kamaytirish, uni jilovlash hamda u bilan bog'liq yuzaga keladigan salbiy holatlarga qarshi chora-tadbirlarni belgilashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Xulosa qilib aytganda davlat soliq xizmati doirasidagi soliq risklarini boshqarish esa, o'z navbatida, soliq xavfini boshqarishning vazifalari, tamoyillarini to'g'ri belgilab olishni taqozo etadi. Shu jihatdan olganda yuqorida 11-rasmda ifodalangan soliq xavfini boshqarishning vazifa va belgilari bir birini to'ldiradi va o'zaro bog'liqlikda soliq xavfini to'g'ri baholash imkoniyatini beradi, provardida esa, davlat budjet tizimlariga soliqlarning prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishiga, soliq

⁶⁵ Шевелев А.Е. Бухгалтерия хисобида рисклар: дарслик /А. Е. Шевелев,Е. В. Шевелева.- М.: КНОРУС, 2007.- с.280.

to'lovchilar o'rtasida o'zaro debitorlik va kreditorlik qarzlarning kamayishiga olib keladi deb hisoblaymiz.

2.2. Soliq to'lovchilar faoliyatini segmentlash va soliq xavfi tahlili amaliyoti tahlili.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida NIZOM"ga muvofiq, ***soliq to'lovchilarni segmentlash deganda*** "soliq majburiyatlarini bajarmaslik yoki to'liq bajarmaslik xavf darajasiga qarab soliq to'lovchilarni muayyan toifalarga ajratish"⁶⁶ deb ta'riflangan, aslida segmentlash esa, xavfning yuzaga kelish ehtimoliga va uning bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlariga bog'liq tarzda aniqlanadigan xavfning holatini ko'rsatib beradi. Qayd etilgan Nizomga ko'ra, soliq amaliyotida soliq xavfi asosan turli xil mezonlarga ko'ra, "soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash" avtomatlashtirilgan dasturi (orqali aniqlanadigan soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlarida ko'rinadi va uni Real va ptoentsial soliq xavfi doirasida tahlil qilinadi. Bundan ko'rinadiki, soliq tizimida "xavfning oldini olish, bartaraf etish va ularni imkon qadar kamaytirish, ularning qo'llanilish samaradorligini baholash, shuningdek, soliq to'g'risidagi Qonunchilik hujjatlari bajarilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda bajarishni, soliq organlarida mavjud axborot uzluksiz yangilanishini, tahlil etilishini va qayta ko'rib chiqilishini" ta'minlashda soliq to'lovchilarning faoliyatini segmentlash asosida baholab borish katta ahamiyatga ega.

Soliq to'lovchilarning faoliyatini segmentlash asosida soliq xavfini aniqlash "soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash" axborot tizimining "Soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash"


⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan "soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida Nizom"

avtomatlashtirilgan dasturi hamda qo‘shimcha manbalardan olingan ma’lumotlar tahlili asosida soliq to‘lovchilar faoliyatida soliqlarni hisoblab chiqarish va (yoki) to‘lash bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar to‘g‘risida tayyorlangan tahliliy axborot va jadvallarda har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha soliq to‘lashdan qochish xavfi yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar hamda to‘lanmasligi kutilayotgan soliqlar summasi alohida ko‘rsatiladi.

Bundan tashqari, ushbu mezonlarga "Soliq kodeksiga asosan maxsus soliq rejimlarini qo‘llash huquqini beradigan oborotlarini bir necha yil davomida bir milliard so‘mdan past miqdorda soliq hisobotlarini taqdim etishi va o‘tkazilgan soliq tekshiruvlari natijalari"⁶⁷ ham kiradi. Soliq to‘lovchilar faoliyatini soliq to‘lovchilar soliq xavfi darajasiga qarab past, o‘rta va yuqori xavfli toifalarga ajratilishi, ma’lum bir mezonlarga asosan amalga oshiriladiki, biz uni quyidagi rasmda keltirib o‘tamiz:

⁶⁷ O‘sha manba.

Soliq to'lovchilar faoliyatini segmentlash tartibi va mezonlari



2.6-rasm. Soliq to'lovchilar faoliyatini segmentlash tartibi va mezonlari⁶⁸

O'z navbatida soliq auditida soliq to'lamaslik xavfini baholash mezoni asosida aniqlangan soliqlar va yig'implarni to'lamaslik xavfi ochib berilishi (oshkor qilinishi), ya'ni, soliq bazasini to'g'ri shakllanishi (yashirilishi), narxlarni pasaytirib (ko'paytirib) ko'rsatish orqali soliq bazasini yashirish holatlari, yuklarni tovar-kuzatuv hujjatlarini rasmiylashtirmasdan yoxud soxta hujjatlar bo'yicha tashilishi, tovarlarni sotishdan (xizmat ko'rsatishdan) olingan tushumni hisobot davridan keyingi davrga o'tkazilishi (sotish hajmini va daromadni (foydan) qasddan kamaytirilishi), budjetdan moliyalashtirilgan qurilish (pudrat) ishlarida soliq kodeksi talablari (242-moddasi)ga rioya qilinmasligi, budjetdan bajarilgan ishlar uchun olingan mablag'larga EHF

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan "soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida Nizom" asosida muallif ishlanmasi.

rasmiylashtirmaslik holatlariga alohida e'tibor berilishi lozim bo'ladi. Buni ayrim olingan soliq to'lovchi korxonalar misolida soliq to'lamaslik xavfi bo'yicha soliq auditi natijalari ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

2.3-jadval

2021-yilda soliq to'lamaslik xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchi korxonalarda soliq auditi natijalari tahlili⁶⁹ (mln. so'm)

	Soliq to'lovchi-korxona nomi	Aniqlan gan soliq xavfi summasi jami	Soliq turlari bo'yicha:			
			QQS	Foyda solig'i	Mol- mulk solig'i	Aylan madan solig
	Jami:	71077 342,7	6 236 682,6	63 846 159,8	994 500,3	0,0
1	"Art soft holding" MCHJ XK	7 439 834,2	410 926,3	7 028 907,9	0,0	0,0
2	"Top oil" MCHJ QK	12476 696,9	0,0	12 476 696,9	0,0	0,0
3	"Parvoz xumo ravnaq trans" MCHJ	3 105 286,5	3 105 286,5	0,0	0,0	0,0
4	"Universal mobile systems" MCHJ	2 536 065,0	654 200,3	887 364,4	994 500,3	0,0
5	MCHJ "Obod shahar qurish"	6 755 319,1	750 984,3	6 004 334,8	0,0	0,0
6	MCHJ "Quality device"	1 668 733,8	364 500,0	1 304 233,8	0,0	0,0
7	"Silver flex" MCHJ	25842 167,2	0,0	25 842 167,2	0,0	0,0
8	CHEKI "Savdogar" ATB	2 010 700,0	0,0	2 010 700,0	0,0	0,0
9	"Knauf gips Buxoro" MCHJ XK	7 000 000,0	950 785,2	6 049 214,8	0,0	0,0
10	"Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi" AJ	2 242 540,0	0,0	2 242 540,0	0,0	0,0

⁶⁹ Jadval ushbu korxonalarga oid soliq auditi natijalari asosida umumlashtirilgan holda tuzilgan.

2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020-2022-yillar oralig'ida soliq to'lovchilarning faoliyatini segmentlash asosida ayrim soliq to'lovchilarda o'tkazilgan turli shakllardagi soliq auditi natijalari shuni ko'rsatadiki, tanlab olingan 11 ta korxonada uch yil davomida 71 077 342,7 mln so'mlik soliq xavfi summasi aniqlangan, bu soliq xavfi darajasi foyda solig'ida katta ulushni egallaydi, keyingi o'rinda esa, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq xavfi yuqori bo'lgan. Bu aniqlangan soliq xavfi summasi natijalarining tahlilini amalga oshirishda soliq auditida shuningdek soxta tadbirkorlik xavflari (ko'zbo'yamachilik uchun bitimlar tuzilishi, "bir kunlik" firmalar tashkil etilishi, bank pul aylanmasi mavjud bo'lmasdan EHF rasmiylashtirish, rasmiylashtirilmagan (kirim qilinmagan) tovarlarni saqlash, ulardan foydalanish va realizasiya qilish holati, haqiqatda amalga oshirilgan bank aylanmalari bo'yicha EHF rasmiylashtirmaslik orqali soliq rejimlaridan foydalanish huquqini suiste'mol qilinishi, import-ekport operatsiyalarni amalga oshirmasdan soxta xujjatlar asosida QQS qaytarish uchun ariza berilishi, nazorat-kassa texnikasining fiskal xotirasi xizmati dasturiga noqonuniy ravishda o'zgartirish kiritish yoki realizasiya xajmini kiritmaslik holatlari)ini ham tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari soliq to'lovchilarning faoliyatini segmentlash natijasida soliq auditini o'tkazish jarayonida soliqlarni to'lamaslik xavflariga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Bizningcha, bu jarayonda: yirik miqdorda soliq qarzdorligini hosil qilinishi, qisqa muddatda yirik miqdorda soliq qarzi hosil qilib soxta bankrotlik e'lon qilinishi, korxonalarni qo'shib yuborish yoki qo'shib olish orqali soliq qarzdorlikni yoki hisoblangan soliqlarni to'lamaslik holatlari va xarajatlarni sun'iy ravishda oshirib qo'rsatish hisobiga soliqlarni to'lamaslik holatlariga alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'ladi.

Soliq auditi o'tkazishda soliq to'lovchi hisobotlarining aniqliligini tekshirish lozim bo'ladi. Bunda bir necha xildagi hisobotlarni olib ularning arifmetikasi tekshiriladi. Masalan, Sotuv registrlarining yig'indisi, to'lovlarning yig'indisi, xarajatlar yig'indisi va hokazo.

2.4-jadval.

2021-yilda soliq to'lovchilarni segmentlash asosida amalga oshirilgan o'tkazilgan soliq nazorati tadbirlari tahlili
(mlrd so'm)⁷⁰

T/ r	Hududlar	Barcha soliq nazorati tadbirlari bo‘yicha								
		Tafovut (risk) aniqlangan korxonalar		O‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bilan taqdim qilingan havf summasini tasdig‘ini topish holati					Segment tahlili asosida aniqlanish darajasi (%)	Umumiy samara- dorlik (%)
soni	summa si	Tekshirishda aniqlangan summa (qo‘shimcha hisoblangan)	Shundan		Asoslan- tirilgan	Tekshirish yakun- langan				
			Segment tahlili bo‘yicha hisoblangan	Tekshirishda qo‘shimcha aniqlangan						
Jami		10 387	3 140,0	1 973,0	1 265,2	707,9	1 693,4	181,5	46%	69%
1	Qoraqalpog‘iston Res.	313	57,9	26,1	20,2	5,9	36,6	1,1	37%	47%
2	Andijon viloyati	669	133,9	90,6	46,6	43,9	81,6	5,6	39%	72%
3	Buxoro viloyati	729	165,9	102,1	88,4	13,7	60,2	17,4	64%	72%
4	Jizzax viloyati	351	116,5	51,6	43,0	8,6	71,3	2,2	39%	46%

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5	Qashqadaryo viloyati	918	153,4	80,2	65,5	14,7	85,4	2,5	44%	54%
6	Navoiy viloyati	597	70,8	40,1	29,2	10,9	37,8	3,8	47%	62%
7	Namangan viloyati	708	148,8	45,1	32,7	12,5	103,2	13,0	31%	39%
8	Samarqand viloyati	900	181,9	74,5	55,2	19,3	102,6	24,2	44%	54%
9	Surxondaryo viloyati	599	122,1	50,0	41,1	8,9	74,2	6,8	39%	47%
10	Sirdaryo viloyati	383	81,6	32,8	25,8	7,1	39,2	16,6	52%	61%
11	Toshkent viloyati	1 031	281,0	94,1	79,3	14,8	185,5	16,2	34%	39%
12	Farg'ona viloyati	926	240,2	108,6	79,2	29,4	153,9	7,0	36%	48%
13	Xorazm viloyati	669	89,6	35,0	26,7	8,3	60,2	2,7	33%	42%
14	Toshkent shaxri	1 337	528,4	315,4	207,4	108,0	260,7	60,3	51%	71%
15	YST DSI	257	768,0	826,7	424,9	401,8	340,9	2,2	56%	108%

Keltirilgan 2.4-jadvaldan xulosa qilish mumkinki, Davlat soliq xizmati organlari tomonidan 2021-yilda soliq to'lovchilarni segmentlash asosida amalga oshirilgan o'tkazilgan soliq nazorati tadbirlarida soliq xavfini aniqlash maqsadida 10 387 ta tafovut (risk) aniqlangan korxonalar doirasidagi aniqlangan 3 140,0 mlrd so'mlik xavf miqdorining 1 265,2 mlrd so'mligi segment tahlili asosida aniqlangan. Buning 1 693,4 mlrd so'mi esa, asoslantirilgan bo'lib, segment tahlili asosida aniqlanish darajasi esa respublika miqyosida 46 foizni tashkil etgan holda umumiy samaradorlik ko'rsatkichi esa 69 foizni tashkil etgan holda, bu natija umumiy olib qaralganda qoniqarli holat deb baholanishi mumkin. Segmentlash asosida hisoblangan soliq xavfi darajasini hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri (207 mlrd so'm), Toshkent viloyati va Farg'ona viloyatlarida (79 mlrd so'mdan) hamda yirik soliq to'lovchilar hududiy inspeksiyasi (YST DSI) tomonidan aniqlangan (yirik soliq to'lovchilar bo'yicha (429,9 mlrd so'm) esa eng katta ulushni egallaydi.

Bu erda yana shu narsaga ham e'tibor berish lozimki, o'tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bilan taqdim qilingan xavf summasini tasdig'ini topish holatini amaliy holat bilan taqqoslashda ish xaqi fondini yashirilishi ya'ni, ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan xodimlarning haqiqiy soni va ish haqi summasini soliq hisobotida aks ettirmaslik yoki pasaytirib ko'rsatish holatlarini, soliq rejalashtirishda soliq to'lamaslik maqsadida agressiv usullaridan foydalanish orqali korxona foydasini nol yoki zarar bilan yuritilishini, soliqlarni to'lamaslik yoki to'liq to'lamaslik maqsadida korxona faoliyatiga tegishli bo'lmagan imtiyozlardan foydalanishi, ustav fondi bilan bog'liq soliq xavfi doirasida yirik miqdorda pul mablag'lari, bino va inshootlar, qurilish mollari, tovar moddiy boyliklar (manbasi ko'rsatilmagan) holda ustav fondiga kiritilishi va realizasiya qilinishi holatlari nuqtai nazaridan segment tahlili va auditni amalga oshirish samarali bo'ladi.

2.5-jadval

**2022-yilda soliq xavfi segmentasiyasi natijalari asosida o‘tkazilgann
soliq auditlari tahlili**

(mln.so‘m)

№	Korxona nomi	"Soliq xavfini aniqlash va tahlil qilish" tizimi summasi	Qayta hisobot taqdim etilgan summa	Soliq auditida dastlabki aniqlangan summa	Segmentda aniqlangan summaga nisbatan ijrosi %	Shundan	
						Budjetga kutlayot- gan tushum	Moliyaviy jarimalar (20%)
1	"UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS" MCHJ	8 536,0	0,0	55 463,2	649,8%	55 463,2	0,0
2	"DURABLE BETON" MCHJ	4 046,0	1 393,3	40 650,0	1004,7%	38 500,0	2 150,0
3	"SIRDARYO ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ	9 242,5	0,0	30 480,0	329,8%	25 400,0	5 080,0
4	"50-SONLI KURILISH BOSHKARMASI" MCHJ	4 150,8	0,0	25 080,0	604,2%	20 900,0	4 180,0
5	"CRAFERS" MCHJ	25 085,3	0,0	22 200,0	88,5%	18 500,0	3 700,0
6	"MOSTOOTRYAD- 13 KUPRIK KURILISH" AJ	6 498,7	0,0	19 800,0	304,7%	19 600,0	200,0
7	"OBOD SHAHAR QURISH" MCHJ	6 755,3	0,0	16 740,0	247,8%	13 950,0	2 790,0
8	"67-KUPRIK KURISH OTRYADI" AJ	8 224,5	0,0	16 450,0	200,0%	13 500,0	2 950,0
9	"INVEST FINANCE BANK" ATB	1 509,1	9 100,0	13 900,0	921,1%	13 900,0	0,0
10	"SILVER FLEX" MCHJ	25 842,1	0,0	10 200,0	39,5%	8 500,0	1 700,0
	Jami	99890,3	10493,3	250963,2	493,0⁷¹	228213,3	22750,0

⁷¹ O‘rtacha foiz

2.5-jadvaldan ko‘rinadiki, 2022-yilda soliq xizmati organlari tomonidan soliq xavfi segmentasiyasi natijalari asosida o‘tkazilgan soliq auditlari o‘tkazilgan ayrim korxonalarda "Soliq xavfini aniqlash va tahlil qilish" tizimi orqali aniqlangan soliq xavfi summasi 99890,3 mln so‘mni tashkil etgan, tahlil qilinayotgan yilda ushbu soliq to‘lovchilar tomonidan avvalgi yillar bo‘yicha aniqlangan soliq xavfi summasi doirasida 10493,3 mln so‘mlik miqdorda qayta hisobot taqdim qilingan. Ushbu korxonalarda "soliq xavfini aniqlash va tahlil qilish" tizimi summasi va soliq auditida dastlabki aniqlangan summa o‘rtasidagi foizli farq esa, "CRAFERS" MCHJ (88,5%) va "SILVER FLEX" MCHJ (39,5%) korxonalaridan tashqari tahlil qilinayotgan barcha korxonalarda juda yuqori bo‘lgan, bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, soliq to‘lovchilar faoliyatini soliq xavfini aniqlash maqsadida segmentlashning mezonlarini doimo takomillashtirib borish lozim bo‘ladi. Segmentlash bu aslida dastlabki, toifalash bo‘lib, uning xulosalariga ko‘ra o‘tkaziladigan soliq auditlari natijalari esa, oxirgi uch yillik ko‘rsatkichlar (2020-2022) natijalariga ko‘ra soliq auditida ko‘proq soliqdan qochish holatlari aniqlanganligini tahlillar ko‘rsatmoqda.

Shuning uchun soliq auditida fikrimizcha, quyidagi holatlarga: tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha soliq xavflari reestriga kiruvchi - tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha norezident daromad solig‘i va import qilingan xizmatlardan QQSni to‘g‘ri hisoblanishi, eksport-import operatsiyasida tovarlar narxini bozor narxidan baland miqdorda past yoki yuqori ko‘rsatilishi, bir tovarni davlatlar o‘rtasida bir necha marotaba eksport/importini amalga oshirish orqali soliq bazasini yashirish yoki asossiz soliq navfi olinishi ("Karusel" firibgarlik sxemasi), tashqi savdo operatsiyalarida soxta debitor/kreditor qarzlarni hosil qilish orqali soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, QQS bo‘yicha "0" nol stavkadan foydalanish maqsadida kirimsiz tovarlarni eksport qilish, o‘zaro aloqador shaxslar tomonidan transfert narxlar bo‘yicha soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va shu kabilarga ham e‘tibor berib tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, soliq tizimida segmentlash, soliq xavfini aniqlash va uning darajasini baholash O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida NIZOM" asosida amalga oshiriladi. Ushbu Nizmoga muvofiq, "soliq xavfi darajasi soliq xavfi mezonlari 1 dan 100 gacha bo'lgan ballar asosida aniqlanadi, soliq xavfi darajasiga qarab soliq to'lovchilar dastur orqali soliq xavfi darajasini aniqlash mezoniga belgilangan ballar va potentsial soliq xavfi asosida baholanadi hamda toifalarga ajratiladi.

Soliq xavfi darajasi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$X = X_b / X_p \times 100\% \quad (3)$$

Bunda:

X — xavf darajasi (foizda);

X_b — soliq to'lovchiga berilgan xavf ballari yig'indisi;

X_p — xavf darajasini aniqlashda qo'llangan potentsial soliq xavfi ballari yig'indisi.

Bunda soliq xavfi darajalarini baholash natijalari yuqoridan kamayish tartibida, baholash natijalari teng bo'lganda esa — to'lanmagan soliq summasi ehtimoli asosida quyidagicha toifalanadi:

81 foizdan 100 foizgacha — yuqori xavf;

30 foizdan 80 foizgacha — o'rta xavf;

1 foizdan 29 foizgacha — past xavf"⁷².

Albatta, soliq xavfi darajasi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan soliq auditi tayinlanadi. Soliq xavfi darajasi o'rta va past bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan soliq organlari tomonidan soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa soliq ma'murchiligi tadbirlari qo'llaniladi.

Shuningdek, qayd etilgan ushbu Nizomga ko'ra, soliq bo'yicha soliq xavfini tahlil qilish ma'lum bir mezonlar (ko'rsatkichlar)ni ko'rib chiqish tartibida amalga oshiriladi. Unga muvofiq, soliq to'lovchilarning "xarajatlar va daromadlar miqdori, ularning dinamikasi, soliq

⁷² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan "soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida Nizom"

majburiyatlari o'z vaqtida bajarilishi, joriy soliq davrida hisoblangan soliqlarning avvalgi soliq davrlarida hisoblangan soliqlar miqdoriga muvofiqligi (kamayishi, ko'payishi) holati; davlat organlari va tashkilotlar tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan ma'lumotlardagi ko'rsatkichlarning soliq to'lovchilarning soliq va moliyaviy hisobotlaridagi ko'rsatkichlariga muvofiqligi; foydalanilgan soliq imtiyozlarining soliq to'g'risidagi Qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi; sof foydaning sof tushumga (tovarlar va xizmatlar realizatsiya qilishda olingan daromad aktsiz va qo'shilgan qiymat solig'isiz hisoblangan summa) nisbati sifatida aniqlanadigan rentabellik ko'rsatkichi hamda sof foydaning xarajatlarga nisbati kabi rentabellik ko'rsatkichi"⁷³ va shu kabilarning tahlili amalga oshiriladi.

Bu jarayonni amaliy holatini ko'rib chiqish maqsadida biz bu tahlilni bir necha korxonalar misolida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

2.6-jadval

2020-2022-yillarda soliq segmenti xulosalari asosida soliq to'lovchilarning soliq xavfini baholashda hisoblangan soliq summasi tahlili⁷⁴

(mln.so'm)

№	Korxona nomi	Faoliyati turi	Hisoblangan soliq summasi (yil boshiga)		
			2020 y	2021 y	2022 ⁷⁵ y
1	"Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ	Neft va gazni qayta ishlash zavodi	812 432,13	438 169,71	394 343,32
2	"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ	Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	814 583,60	654 329,19	466 784,40
3	"Buxoroneftgazparmalash" AJ	Qurilish	35 577,69	21 018,78	11 960,50
4	"Qurilish-montaj va ta'mirlash UK	Qurilish	18 542,91	7 012,93	2 353,43

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-son qarori bilan tasdiqlangan "soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida Nizom"

⁷⁴ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari

⁷⁵ 9 oylik ma'lumotlar

5	"Urganchsharob" AJ	Alkagol mahsulotlari ishlab chiqarish	46 486,01	40 126,02	16 945,69
---	--------------------	---	--------------	-----------	--------------

Tahlil qilinayotgan korxonalarning moliyaviy hisobotlari asosida ularning faoliyati bo'yicha soliq xavfini aniqlash maqsadida tahlil ko'rsatkichlaridan biri bu hisoblangan soliq summasining yillar davomidagi dinamikasi hisoblanadi. 2.6-jadvalda beshta korxona bo'yicha 2020-2022-yillar davomida davlat budgetiga hisoblangan soliq summaları ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, ularda shu davr ichida ularning hisoblangan soliq summasi keskin ravishda kamayib ketgan bo'lib, kamayish darajasi 43 – 88 foizgacha yetadi, bu esa, ushbu korxonalarni segmentlash asosida soliq xavfini aniqlash uchun soliq auditini o'tkazilishiga asos bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgandek, soliq riskini aniqlashda yana bir muhim omil bu korxonaning jami daromad ko'rsatkichi hisoblanadi. 2.7-jadvalda yuqoridagi beshta korxonaning jami daromadlarining dinamikasi tahlil qilingan. Jadvalga ko'ra, to'rtta korxonada jami hisoblangan daromad 2020-2033-yillar davomida kamayib borgan bo'lib, 2021-2022-yillarda kamayish sur'ati 19 – 46% ni tashkil etgan. O'z navbatida jami daromadning kamayishi bu soliq to'lovchilarda soliq xavfining yuzaga kelishi mumkinligi haqida xulosalar berishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda, 8-jadvalda keltirilgan soliq summalarining kamayishi ushbu korxonalar bo'yicha hisoblangan daromadlarning kamayishi oqibatidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Ammo, "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ da hisoblangan daromadlar oshib borgan. Demak, bu korxonada jami daromad bo'yicha soliq xavfi darajasi yuqori emas deb xulosa qilish mumkin. Lekin shuni hisobga olish kerakki, "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ da hisoblangan daromadlar oshib borganiga qaramay, hisoblangan soliq summasi kamaygan.

2.7-jadval

2020-2022-yillarda soliq segmenti xulosalari asosida soliq to'lovchilarning soliq xavfini baholashda jami daromadi ko'rsatkichi tahlili⁷⁶

(mln.so'm)

№	Korxona nomi	Jami daromadi			Farq: 2021-2020	
		2020 y	2021 y	2022 y	summa	%
1	"Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ	4 249 883	2 955 476	1 823 835	-1 294 407	-30
2	"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ	1 733 260	2 181 200	1 994 719	447 940	26
3	"Buxoroneftgazparmalash" AJ	155 321	139 521	49 003	-15 800	-10
4	"Qurilish-montaj va ta'mirlash UK	316 180	170 916	84 833	-145 263	-46
5	"Urganchsharob" AJ	45 240	36 585	16 031	-8 655	-19

Soliq bo'yicha soliq xavfini tahlil qilish bo'yicha yana bir mezonlardan biri bu soliq to'lovchilarning jami xarajatlarning dinamik o'zgarishini tahlili hisoblanadiki, tahlil obyekti sifatida belgilab olingan korxonalarda bu ko'rsatkichning tahlil yillaridagi tahlili va 2021-yildagi miqdorining 2020-yilga nisbatan o'zgarishida "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJdan tashqari barcha korxonalarda kamayish sodir bo'lgan. Bu ko'rsatkichning dinamik o'zgarishi salbiy ko'rsatkichning paydo bo'lishi "qurilish-montaj va ta'mirlash UK va "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJlarda kuzatilgan. O'z navbatida jami daromadning kamayishi bu soliq to'lovchilarda soliq xavfining yuzaga kelishi mumkinligi haqida xulosalar berishga imkon beradi.

"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ korxonasida jami daromad miqdori 1733 260 mln.so'm bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 2 181 200 mln.so'mni va 2022-yilning 11 oyligida esa 1 994 719 mln.so'mni tashkil

⁷⁶ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari

etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichning o‘zgarishida ijobiy holatda bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Demak, bu korxonada jami daromad bo‘yicha soliq xavfi darajasi yuqori emas deb xulosa qilish mumkin.

2.8-jadval

2020-2022-yillarda soliq segmenti xulosalari asosida soliq to‘lovchilarning soliq xavfini baholashda sof foyda ko‘rsatkichi tahlili⁷⁷
(mln.so‘m)

№	Korxona nomi	Sof foyda			Farq: 2021-2020	
		2020 y	2021 y	2022 y	summa	%
1	"Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ	283 900	1 182 743	452 416	-898 843	-317
2	"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ	1334 317	1 073022	742 838	-261 296	-20
3	"Buxoroneftgazpirmalash" AJ	41 950	20 920	6 422	-21 031	-50
4	"Qurilish-montaj va ta‘mirlash UK	7 070	3 945	2 777	-3 125	-44
5	"Urganchsharob" AJ	6 426	3 388	920	-3 038	-47

Darhaqiqat sof foyda ko‘rsatkichi soliq to‘lovchilar faoliyatining naqadar samarali ekanligini ko‘rsatuvchi muhim natija bo‘lib, tahlil qilinayotgan korxonalarda bu ko‘rsatkichning oxirgi uch yildagi tahlili shundan dalolat beradiki, tahlil qilinayotgan barcha korxonalarda kamyish tendentsiyasiga ega bo‘lgan, bu ko‘rsatkich ayniqsa, "Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJda keskin kamayish sodir bo‘lgan. Avvalgi jadvalda keltirilganidek, "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJning jami daromad ko‘rsatkichida tahlil yillarida oshganligini ko‘rgan edik, ammo bu korxonada sof foydasining 20 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin, albatta buning sabablari sifatida jami daromad va sof foyda ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi oraliq ko‘rsatkichlar

⁷⁷ Davlat soliq qo‘mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari

bilan bog‘liq, ya’ni, bu oraliq ko‘rsatkichlar ham oshgan bo‘lib, buning natijasida sof foydaning nisbatan 2021-yilda 2020-yilga nisbatan pasaygan. Demak, sof foydaning kamayishi foyda solig‘i bo‘yicha soliq xavfining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin va uning qanday ta’sir qilganligini quyidagi tahlillarimizda keltiramiz.

Sof foyda ko‘rsatkichi singari rentabellik ko‘rsatkichi ham korxonaning faoliyatining samaradorligini tavsiflaydi. Soliq xavfi tahlillarida rentabellik ko‘rsatkichi ham tahlil qilinishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlar qatoriga kiradi. Buni esa tahlil obyekti sifatida tanlangan korxonalar doirasidagi tahlillarimizni quyidagi jadvalda keltirib o‘tamiz.

2020-2022-yillarda soliq segmenti xulosalari asosida soliq to‘lovchilarning soliq xavfini baholashda rentabellik ko‘rsatkichlari tahliliga e’tibor beradigan bo‘lsak, "Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJdan tashqari tahlil qilinayotgan barcha korxonalarda bu ko‘rsatkichning kamayganligini ko‘rish mumkin. Albatta, buning asosiy sabablari sifatida birinchidan, 2020-yilda boshlangan pandemiya davrida korxonalarning faoliyatiga jiddiy ta’sir qilganligi hamda buning asorati tufayli 2021-yilda ham bu korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlarining to‘la qonligi ishlamaganligi bilan izohlash mumkin. Albatta, buning asosiy sabablari sifatida birinchidan, 2020-yilda boshlangan pandemiya davrida korxonalarning faoliyatiga jiddiy ta’sir qilganligi hamda buning asorati tufayli 2021-yilda ham bu korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlarining to‘la qonligi ishlamaganligi bilan izohlash mumkin.

2.9-jadval

2020-2022-yillarda soliq segmenti xulosalari asosida soliq to'lovchilarning soliq xavfini baholashda rentabellik ko'rsatkichi tahlili⁷⁸

(foizda)

№	Korxona nomi	Rentabellik			Farq: 2021-2020	
		2020 y	2021 y	2022 y	summa	%
1	"Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ	7	40	25	X	499
2	"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ	77	49	37	X	-36
3	"Buxoroneftgazpirmalash" AJ	27	15	13	X	-44
4	"Qurilish-montaj va ta'mirlash UK	2	2	3	X	3
5	"Urganchsharob" AJ	14	9	6	X	-35

Bundan tashqari, ishlab chiqarish faoliyatidagi tashkiliy-texnik jarayonlar ham salbiy ta'sir qilgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilning (11 oylik) davrida ayrim korxolar masalan, "qurilish-montaj va ta'mirlash ukdan tashqari korxonalarda kamayish holati kuzatilgan, bu esa, bu korxonalarda ishlab chiqarish jarayonining holati yaxshi emasligidan dalolat beradiki, bu ushbu korxonalarda soliq xavfining oshishiga ta'sir qilgan.

2.10-jadval

2020-2022-yillarda soliq segmenti xulosalari asosida soliq to'lovchilarning soliq xavfini baholashda ish haqi ko'rsatkichi tahlili⁷⁹

(mln.so'm)

№	Korxona nomi	Ish haqi fondi			Farq: 2021-2020	
		2020 y	2021 y	2022 y	summa	%
1	"Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ	251 084	277 246	215 468	26 162	10

⁷⁸ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari

⁷⁹ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari

2	"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ	187 826	228 487	162 734	40 661	22
3	"Buxoroneftgazparmalash" AJ	6 788	30 865	13 929	24 077	355
4	"Qurilish-montaj va ta'mirlash UK	2 663	4 328	2 959	1 665	63
5	"Urganchsharob" AJ	4 045	3 159	617	-886	-22

Soliq bo'yicha soliq xavfini tahlil qilish bo'yicha yana bir mezonlardan biri bu soliq to'lovchilarning ish haqi fondi darajasi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich garchi iqtisodiy faoliyatning samaradorligini xarakterlamasada ish haqi fondining o'zgarish dinamikasi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha soliq xavfining darajasini aniqlashda xizmat qiladi.

Tahlil qilinayotgan korxonalar kesimida buni ko'radigan bo'lsak, 2020-2022-yillarda "Urganchsharob" AJdan tashqari barcha korxonalarda bu ko'rsatkichning oshib borganligini ko'rish mumkin. Buning sababi sifatida korxonalarda inflyasiya darajasidan kelib chiqib hamda ichki imkoniyatlari hamda korxonalarning ichki hisob siyosatiga asoslanib ish haqi miqdorini oshirganligini keltirib mumkin. Ish haqi fondining oshishi esa yuqorida keltirilgan ikkita soliq turi bo'yicha soliq tushumlarining oshishiga va bu bo'yicha soliq xavfining yuzaga kelmasligiga ta'sir qilgan.

Korxonalarning soliq xavfini aniqlashda ularning hisobot davriga kreditorlik summasining miqdori va uning dinamik o'zgarishi ham muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan mazkur ko'rsatkichni ham tahlil qilinayotgan korxonalar doirasida ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Chunki, bu ko'rsatkich korxonalarning moliyaviy holatini tavsiflash bilan bir qatorda, ularning moliyaviy tartiblarga hamda to'lov intizomiga rioya qilinish holatini ko'rsatadi.

2.11-jadval

**2020-2022-yillarda soliq segmenti xulosalari asosida soliq to'lovchilarning
soliq xavfini baholashda kreditorlik ko'rsatkichi tahlili⁸⁰**

(mln.so'm)

№	Korxona nomi	Hisobot davriga kreditorlik summa			Farq: 2021-2020	
		2020 y	2021 y	2022 y	summa	%
1	"Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ	25 172	0	380 071	-25 172	-100
2	"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ	79 100	1 438 145	1 807 297	1 359 045	1 718
3	"Buxoroneftgazparmalash" AJ	0	0	76 142	0	
4	"Qurilish-montaj va ta'mirlash UK	0	0	40 740	0	
5	"Urganchsharob" AJ	0	0	7 434	0	

Keltirilgan 2.11-jadval ma'lumotlari asosida soliq to'lovchilarning soliq xavfini baholashda hisobot kreditorlik ko'rsatkichining 2020-2022-yillardagi holati tahlil qilinayotgan korxonalar orasida "Buxoroneftgazparmalash" AJ, "qurilish-montaj va ta'mirlash UK va "Urganchsharob" AJda birmuncha barqaror holat mavjud bo'lsa, kolgan korxonalarda uning miqdori ayrim yillarda kamayishga erishilgan bo'lsa, ammo, uning mavjudligi bu korxonalarda to'lov intizomi etarlicha qoniqarli emasligidan dalolat beradi.

⁸⁰ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari

2.12-jadval

**2020-2022-yillarda soliq segmenti xulosalari asosida soliq to'lovchilarning
soliq xavfini baholashda budjetga hisoblangan soliq summasi ko'rsatkichi
tahlili⁸¹**

(mln.so'm)

№	Korxona nomi	Budjetga hisoblangan jami soliq summasi			Farq: 2021-2020	
		2020 y	2021 y	2022 y	summa	%
1	"Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ	810 212	438 170	394 343	-372 042	-46
2	"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ	813 187	654 329	466 784	-158 858	-20
3	"Buxoroneftgazparmalash" AJ	35 578	21 019	11 961	-14 559	-41
4	"Qurilish-montaj va ta'mirlash UK	18 543	6 998	2 353	-11 545	-62
5	"Urganchsharob" AJ	46 473	40 004	16 946	-6 469	-14

Darhaqiqat soliq xavfini baholashda kreditorlik ko'rsatkichi korxonalarning boshqa korxonalar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajarishiga salbiy ta'sir qilishi bilan birga, budjet oldidagi soliq to'lovlari bo'yicha majburiyatlarining o'z vaqtida va to'liq bajarishiga salbiy ta'sir qiladi. Shu jihatdan olganda budjetga hisoblangan soliq summasi ko'rsatkichi tahlil natijalariga ko'ra tahlil qilinayotgan korxonalardagi umumiy holat barcha korxonalarda avvalgi yillarga nisbatan kamayganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa, bu holat "qurilish-montaj va ta'mirlash UKda anchayin salbiy holatga ega, albatta buning sabablari sifatida yuqorida tahlil qilingan ko'rsatkichlarning tahlili provardida soliq xavfi sifatida korxonalarning budjetga to'lanishi lozim bo'lgan va hisoblangan soliq summasiga ahamiyat ta'sir qilgan. Budjetga hisoblangan soliq summasi va to'langan summalar o'rtasidagi farqni anglash lozim

⁸¹ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallifning hisob-kitoblari

bo‘ladi. Soliqlarning hisoblanishida arifmetik, texnik xatoliklar bo‘lishi bilan birga qasddan soliqdan qochish maqsadi natijasida kelib chiqishi mumkin.

Quyida tahlil qilingan 5 ta korxonaning iqtisodiy ko‘rsatkichlarining yuqoridagi tahlillariga asoslanib va amaldagi tartibga ko‘ra, korxonalarda soliq xavfini aniqlash bo‘yicha ko‘rsatkichlar asosida ularning faoliyati bo‘yicha soliq xavfi darajasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, soliq xavfi darajasi eng yuqori ko‘rsatkich "Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJda (3 ball), keyingi xavf yuqori bo‘lgan korxona "Urganchsharob" AJ (2 ball)da yuzaga kelgan.

2.13-jadval

Korxonalarda soliq xavfini aniqlash bo‘yicha ko‘rsatkichlar asosida ularning faoliyati bo‘yicha soliq xavfi darajasi⁸²

(ball mezonida)

	Korxona nomi	Soliq xavfining 2021-2020 ga nisbatan o‘zgarish darajasi						Jami
		Daromadni kamayishi	Daromad kamayib, xarajatni oshishi	Sof foydani kamayishi	Rentabellikning kamayishi	Ish xaqi fondining kamayishi	Hisoblangan soliqlarning kamayishi	
1	"Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ	1	0	0	0	0	0	1
2	"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MCHJ	1	0	1	1	0	0	3
3	"Buxoroneftgazparmalash" AJ	0	0	0	1	0	0	1
4	"Qurilish-montaj va ta‘mirlash UK	1	0	0	0	0	0	1

⁸² Korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari va amaldagi tartibga muvofiq muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

5	"Urganchsharob" AJ	1	0	0	1	0	0	2
	Jami	4	0	1	3	0	0	8

Yuqorida aytganimizdek, soliq xavfi darajasi 1 dan 100 ball oralig'ida baholanadiki, bu korxonalarga nisbatan soliq xavfining segment mezonlari bo'yicha boshqa ko'rsatkichlarni ham e'tiborga olsak, shundan xulosa chiqarish mumkinki, ushbu korxonalar soliqlarni to'lay olmaslik xavfi yuzaga kelgan. Ushbu korxonalar yuqorida tahlil qilingan ko'rsatkichlar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarini ijobiy jihatdan dinamik o'zgarish qilmasada ularning soliq xavfi oshib borishi mumkin.

Tadqiqot ishimizning mazkur bandi bo'yicha umumiy xulosalar sifatida shularni keltirish mumkinki, davlat budjeti manfaati nuqtai nazaridan soliq to'lovchilarning budget oldidagi moliyaviy (soliq) majburiyatlarini bajarish imkoniyatlari va bu borada yuzaga kelish mumkin bo'lgan xavf (soliq xavfi)ning oldini olish uchun segmentlar o'z samarasini beradi. Fikrimizcha, soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'lovchilarning faoliyatini segmentlarini iqtisodiyotning holati, yashirin iqtisodiyotning hamda soliq tizimini raqamlashtirishning darajasiga muvofiq takomillashtirilib (ayrimlarini mezonlardan chiqarish va yangi mezonlarni qo'shish) borish o'z samarasini beradi. Shundan kelib chiqib, tadqiqot ishimizning keyingi paragrafida ana shu jarayonni tahlil qilamiz.

2.3. Yirik soliq to'lovchilarning qo'shilgan qiymat soliq'i bo'yicha soliq xavfini aniqlash uslubiyoti va uning qo'llanilish tahlili.

Ma'lumki, soliq tizimida soliq to'lovchilarning soliq xavfini aniqlash soliq to'lovchilarning soliq to'lay olmaslik nuqtai nazaridan faoliyatini turli xil toifalarga ajratish (segmentlash), ularni tahlil qilish, unga asoslangan holda soliq nazoratini o'tkazish yuzasidan qarorlar qabul qilish, soliq to'lovchilarning faoliyatiga asoslangan holda soliq turlari bo'yicha soliq xavfi mezonlarini qo'llagan holda soliq auditlari o'tkazish hamda "Soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash"

avtomatlashtirilgan dasturi orqali aniqlanadigan soliqqa oid huquqbuzarlik alomatlaridan kelib chiqib aniqlangan soliq xavfini baholash tarzida amalga oshiriladi. Biz tadqiqot ishimizning avvalgi paragraflarida soliq to'lovchilarning faoliyatini segmentlash va u asosida o'tkazilgan ayrim soliq nazorati tartibidagi jarayonlar haqida tahlillarni amalga oshirgan edik. Quyida esa, biz soliq turlari bo'yicha soliq xavfi mezonlarini qo'llash, uning uslubiy algoritmini ishlab chiqilishi va tartibi haqidagi tahlillarni amalga oshirishga harakat qilamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, soliq turlari bo'yicha soliq xavfini aniqlashda bu jarayonning shaffofligini ta'minlash maqsadida inson omilisiz xulosa chiqarishga imkon beradigan dasturlardan keng foydalaniladi. Shulardan biri bu - "Avtokameral" dasturiy mahsuloti bo'lib, inson omili aralashmagan holda, avtomatik ravishda soliq to'lovchilarning soliq hisobotlarida keltirilgan ko'rsatkichlar bilan Davlat soliq qo'mitasida mavjud ma'lumotlar, jumladan, elektron hisobvaraqa-faktura, eksport-import operasialari, onlayn kassa texnikasi cheklari va hokozolar asosida tekshiruvdan oldingi tahlil o'tkazadi. O'tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlil natijasida aniqlangan tafovutlar bo'yicha soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga inson omilisiz xabarnoma yuboriladi. Soliq to'lovchi tomonidan xabarnoma olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida aniqlashtirilgan soliq hisobotini yoxud tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgan holda aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart. Biz buni amaliy jihatdan QQS misolida ko'rib chiqamiz.

2.14-jadval

**Soliq xavfi mezonlari asosida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha
"Avtokameral" dasturiy mahsuliga joriy qilish maqsadga muvofiqligi
yuzasidan rasmiylashtirilgan xulosalar tahlili⁸³**

(mln so‘mda)

№	Xavflilik mezonlari bosqichlari	Shundan shakllangan holatlar	
		soni	summasi
1-BOSQICH XULOSALARI			
1	QQS to‘lovchilari tomonidan boshqa yuridik shaxslarning ustav fondidagi pay va ulushlari realizatsiya qilinishini QQS hisobotida aks ettirilganligini	74	85003,321
2	Chet el fuqarolari olib kirgan xizmatlari uchun soliq to‘lovchilar tomonidan to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olishning to‘g‘riligini tahlil qilish	157	67898,982
3	QQSni hisobga olishning alohida-alohida usulidan foydalanadigan soliq to‘lovchilar tomonidan QQSning hisobga olinishini tekshirish	265	3888,873
4	Birjada sotib olingan tovarlar va xizmatlar uchun soliq to‘lovchilar tomonidan to‘langan QQSni to‘g‘ri hisobga olinganligi	5	2170,36
2-BOSQICH XULOSALARI			
	Tegishli soliq davrida realizatsiya qilingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha rasmiylashtirilgan Ehflardagi QQS summalari korxonalar kesimida jamlanganligi	14	284364,1
	Tovarlar import qilinganda to‘langan QQS summasi korxonalar kesimida jamlanganligi	26	456981,7

⁸³ Davlat soliq qo‘mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan va hisoblab chiqilgan.

3-BOSQICH XULOSALARI			
5	Qoplanadigan xarajatlar bo'yicha kamaytirilgan QQS summasining hisobga olinmaganligini tahlil qilish	1117	180532,171
6	Ilgari hisobga olinmagan QQS summasini to'g'ri hisobga olinishini tahlil qilish	1760	313644,512
7	Moliyaviy va foyda solig'i hisobotlari ko'rsatkichlaridagi tafovut	587	1061053,196
8	Xaridor va buyurtmachilarning kreditor qarzi kamayishi hisobiga ko'rsatilmagan realizasiyani aniqlash	32	1995,657
9	Tovarlarni reeksport qilgan qismi bo'yicha QQS hisobotining 3-ilovasi 0605-satridagi qiymat bilan solishtirish	9	2765,736
10	Aholiga QQS dan nollik stavkada xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan yuridik shaxslarga ushbu stavkani qo'llaganlik holati	22	7827,996
11	Savdo korxonalari tomonidan import qilingan tovarlarning bojxona qiymatidan past sotilayotganligini aniqlash	0	0
12	Korxonalar tomonidan yil yakuni bo'yicha taqdim etilgan moliyaviy natijalari va QQS hisobotida yillik aylanma o'rtasidagi ijobiy farqni aniqlash	1511	543819,092
4-BOSQICH XULOSALARI			
13	QQS va aktsiz solig'ini hisoblash ko'rsatkichlarini solishtirish	1885	68982,436
5-BOSQICH XULOSALARI			
14	Qo'shilgan qiymat solig'i va EHF ko'rsatkichlarini solishtirish	11429	319493,228

15	Tashqi manbalardan olingan ma'lumotlar asosida QQSning nol stavkasi bo'yicha sotish hajmini va eksport uchun tovarlar sotish hajmini solishtirish.	650	277230,813
16	Qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'i ko'rsatkichlarini solishtirish	363	3391,443
17	Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq hisobotida aks ettirilgan daromadlar miqdorini QQS hisobotida to'liq aks ettirmaslik holati	184	174571,8
18	Korxonaning QQS to'g'risidagi guvohnomasi bekor qilingan va shubhali korxonalar ro'yxatiga kiritilgan taqdirda, kontragentlarning QQS hisobotining 4 - ilovasida hisobga olingan QQS miqdori ko'rsatkichlarini solishtirish.	0	0
19	Soliq davrining notarial ma'lumotlari bo'yicha sotilgan ko'chmas mulkni sotish qiymati uy-joy qurilishi bilan shug'illanadigan korxonalar tomonidan QQS hisoboti bo'yicha tovarlar (xizmatlar) sotish davri bilan taqqoslash.	444	212965,652
20	QQS hisobotiga 1-ilovaning 01021-01022-qatorlarida ko'rsatilgan QQSning faol sertifikat bilan ichki bozorda QQS ko'rsatilmagan Eifni ro'yxatdan o'tkazishni aniqlash.	439	4125,464
21	QQS hisobotida soliq davri uchun tovarlar (xizmatlar) savdosi QQSsiz aylanmaning umumiy qiymati 01021 elektron hisob -fakturalardan farqi	83	2141,513
22	Soliq to'lovchi bo'lmagan shaxs QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tganda tovar-moddiy zaxiralarning qoldiqlari bo'yicha hisobga olingan QQS summasining so'nggi o'n ikki oy ichida olingan tovarlar (xizmatlar) qiymati bilan solishtirish.	70	4511,775
23	Xaridor va buyurtmachilarning qarzi oshishi hisobiga ko'rsatilmagan realizatsiyani aniqlash	244	225025,604

6-BOSQICH XULOSALARI			
24	Qabul qilinmagan "tuzatuvchi" yoki "qo'shimcha" hisobvaraq-fakturalar tahlili	213	2337,678
25	Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan TMZlar bo'yicha QQSning hisobdan chiqarilganligini o'rganish	574	15461,663
7-BOSQICH XULOSALARI			
26	Komissioner tomonidan Exfga o'zgartirish kiritilgandan so'ng komitent tomonidan QQSGa qayta hisobot taqdim etmaslik holati	0	0
27	EXF orqali tovarlar realizasiya qilib QQS hisobotini taqdim etmaganlik holati	0	0
8-BOSQICH XULOSALARI			
28	Qishloq xo'jaligi mahsulotini realizasiya qilishdan olingan daromad tahlili	0	0
29	Realizasiya qilingan spirt miqdorining tahlili	0	0
30	Qurilish tashkilotlari tomonidan qurib bitkazilganiga olti oy bo'lgan turar-joy binolari bo'yicha mol-mulk solig'i hisoblanganligi tahlili	0	0

Keltirilgan jadvaldan ko'rinadiki, alohida olingan soliq turi misolida, ya'ni, soliq xavfi eng yuqori deb hisoblanadigan qo'shilgan qiymat soliq turi asosida sakkiz bosqichli mezonlarga asoslanib, soliq xavfini aniqlash mezonlarini qo'llash ko'pgina moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zaro taqqoslanashuvi asosida soliq xavfi summasi aniqlangan. Jadvalda keltirilgan mezon xulosalari ushbu ko'rsatkichlarni "Avtokameral" dasturiy mahsulotiga qo'llash lozimligi to'g'risida qaror qilishga olib kelgan va uning natijasida esa, ushbu soliq turi bo'yicha tegishli soliq to'lovchilar bo'yicha soliq xavfini guruhlariga ya'ni, yuqori, o'rtacha va past soliq xavflariga ajratish imkonini beradi. Bu esa, amaliy jihatdan "soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash

avtomatlashtirilgan dasturi" yordami asosida amalga oshiriladi. Tahlilda ishtirok etgan korxonalarning soni ma'lumotlari asosida soliq xavfi o'rta, yuqori va o'ta yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar soliq tekshirishlariga nomzod sifatida shakllantiriladi. Shubhali va ishonchli soliq to'lovchilar ro'yxati shakllanadi. Soliq xavfi yuqori va o'ta yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan soliq auditi, soliq xavfi o'rta bo'lganda kameral soliq tekshiruvlari tayinlanadi.

Davlat budjetga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamagan yoki o'zaro operatsiyalarini elektron hisob fakturada aks ettirmagan yoki soliq organlariga soliq hisobotini taqdim etmagan kontragentlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha soliq xavfini aniqlashning avtomatlashtirilgan algoritmlarga asoslangan ishlab chiqqan mezonlari 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarorida o'z aksini topgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi soliq qo'mitasining 2023-yil 31-martdagi 15-38211-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yuzaga keladigan soliq xavfini aniqlashda raqamlashtirishning samarasini oshishiga olib kelgan va soliq xavfini aniqlashning ishonchligini oshirgan.

Soliq xavfini aniqlashda tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida kamchiliklar aniqlansa, (TIF) grifi belgilanadi. Agarda, korxonada savdo qoidalarini buzilishi kabi mezonlar aniqlansa, u sayyor soliq tekshiruvi subyektiga aylanadi.

Dasturning mazkur qismida soliq xavfini aniqlashga doir normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati aylanma yozuv sifatida aks ettirilib boradi. Soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarning xato va kamchiliklari asosida undirilishi mumkin bo'lgan summalar shakllantiriladi. Mazkur ma'lumotni soliq turlari, faoliyat turlari hamda hududlar kesimida ko'rish imkoniyati yaratilgan. Soliq xavfini bir soliq to'lovchi kesimida ko'rib chiqish va xavfga tushish sabablarini kuzatish imkoni mavjud. Soliq xavfi 80% dan 95% gacha bo'lsa, soliq xavfi yuqori deb baholanadi. Soliq xavfi 30% dan 80% gacha bo'lsa, o'rtacha xavf deb topiladi.

Soliq xavfi 30% gacha bo'lsa, soliq xavfi past deyiladi. Dasturning yuqori qismidagi filtrlar orqali ma'lum bir hudud yoki faoliyat turi kesimidagi soliq to'lovchilarning soliq xavfini baholash imkoniyati mavjud bo'ladi. Barcha soliq xavfi darajalaridagi korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlar ularning yirik, o'rta yoki kichik biznes toifasiga mansubligiga ko'ra guruhlariga ajratadi.

2.15-jadval.

Yirik soliq to'lovchilar kesimida "soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash avtomatlashtirilgan dasturi" orqali aniqlangan va baholangan soliq xavfi darajasi⁸⁴ (2022-yil uchun)

№	Faoliyat turi	Xavf darajasi						Jami	
		Yashil		Sariq		Qizil			
		Soni	Ulushi	Soni	Ulushi	Soni	Ulushi	Soni	Ulushi
	Jami	346	30%	460	40%	349	30%	1155	100%
1	Ishlab chiqarish	126	11%	163	14%	199	17%	488	42%
2	Savdo	107	9%	109	9%	55	5%	271	23%
3	Qurilish	31	3%	60	5%	53	5%	144	12%
4	Xizmat ko‘rsatish	57	5%	38	3%	31	3%	126	11%
5	Moliya bozori	18	2%	12	1%	11	1%	41	4%
6	Faoliyat yuritmayapti	7	1%	78	7%		0%	85	7%

2.15-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda jami yirik soliq to'lovchilarning faoliyati "soliq xavfini aniqlash, tahlil qilish va baholash avtomatlashtirilgan dasturi" orqali soliq xavfi darajasi aniqlanganda 1155

⁸⁴ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

soliq to'lovchilarning 349 tasida qizil darajadagi soliq xavfi mavjud bo'lgan, bu esa soliq segmentiga tushgan soliq to'lovchilarning 30 foizini tashkil qiladi va yuqori xavf darajasida deb baholanadi.

2.16-jadval

2019-2022-yillarda yirik soliq to'lovchilarning soliq xavfi natijasida kelib chiqqan sohalar bo'yicha yuzaga kelgan soliq qarzining undirilish holati tahlili⁸⁵

mlrd.so'm

№	Korxona nomi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1	YSTHI jami tushumi	1 951,9	353,3	772,8	1 166,9
2	shu jumladan,				
3	Navoiy KMK	0,7	0,0	0,0	0,0
4	"Olmaliq KMK" AJ	134,2	11,5	0,5	0,0
5	"O'zbekneftgaz" AJ tarmog'i	358,9	14,3	5,7	19,1
6	"O'ztransgaz" AJ	5,7	0,0	14,5	0,0
7	Uyali aloqa kompaniyalari	0,0	19,3	1,1	0,1
8	Tamaki mahsulot ishlab chiqaruvchilar	0,0	0,0	0,0	0,0
9	"O'zavtosanoat" AJ tarmog'i	10,7	0,2	138,2	0,1
10	Energetika tarmog'i	26,6	24,8	29,5	79,1
11	Issiqlik elektr markazi AJ tarmog'i	14,5	0,1	3,4	47,1
12	Hududiy elektr tarmoqlari AJ tarmog'i	11,9	0,0	1,7	17,3
13	"O'zbekgidroenergo" AJ tarmog'i	0,1	24,5	23,5	14,6
14	Milliy elektr tarmoqlari	0,0	0,1	1,0	0,2
15	Banklar	63,0	35,7	7,8	13,5
16	Alkogol ishlab chiqaruvchilar	0,0	4,7	6,2	23,7
17	"Xududgazta'minot" AJ tarmog'i	0,0	0,0	0,0	0,0
18	Lukoyl qo'shma korxonasi	0,0	0,0	0,0	0,0


⁸⁵ Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

19	"O'zkiymyosanoat" AJ tarmog'i	18,5	24,7	94,8	117,1
20	"O'zqurilishmaterial" AJ tarmog'i	5,2	0,1	0,6	1,3
21	"O'zmetkombinat" AJ tarmog'i	17,7	0,2	42,3	0,0
22	Oziq-ovqat sanoati assosiasiyasi tarmog'i	2,8	0,8	0,1	0,4
23	"O'zdonmahsulot" AJ tarmog'i	83,9	3,8	1,6	9,9
24	"O'zbekiston temir yullari" AJ tarmog'i	20,6	3,5	0,1	0,0
25	Assosiasiya "O'zeltexprom" tarmog'i	14,2	0,0	1,4	0,0
26	"O'zbekiston havo yullari" AJ tarmog'i	0,7	0,1	0,3	0,1
27	"O'zbekengilsanoat" AJ tarmog'i	13,6	2,0	8,4	13,8
28	Boshqalar	1 174,9	207,5	419,4	888,6

Soliq to'lovchilarning 346 tasida yoki 30 foizida soliq xavfi darajasi past bo'lgan va bundan soliq to'lovchilarda soliq auditi o'tkazilmasligi mumkin. Ammo, 349 ta korxonada esa soliq auditi o'tkazilishi belgilanadi. Shu maqsadda yirik soliq to'lovchilar kesimida soliq qarzdorligini tahlil qilish lozim deb hisoblaymiz.

Keltirilgan jadvaldan ko'rinadiki, 2019-2022-yillarda yirik soliq to'lovchilarning faoliyati segmentlanganda, 2019-yilda 1 951,9 mlrd so'm, 2020-yilda 353,3 mlrd so'm, 2021-yilda 772,8 mlrd so'm, va 2022-yilda esa, 1 166,9 mlrd so'mlik soliq qarzi undirilgan. Agar, buni sohalar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, eng ko'p soliq qarzi yuzaga kelgan va ulardan undirilish darajasi "O'zbekneftegaz" AJ tarmog'i (2019-yilda 358,9 mlrd so'm), Olmaliq KMK" AJ (2019-yilda 134,2 mlrd so'm), 2022-yilgi holatda esa, "O'zkiymyosanoat" AJ tarmog'i (117,1 mlrd so'm) da soliq qarzi ko'p vujudga kelgan va bu summa davlat budjetiga undirilgan.

Bu ko'rsatkichlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, yirik soliq to'lovchilarning faoliyati va ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'lganligi sababli soliq xavfini aniqlashda ushbu toifadagi korxonalarda soliq xavfini aniqlash mezonlarini yanada takomillashtirish taqozo etiladi.




2.7-rasm. Yirik soliq to'lovchilarga oid soliq xavfini aniqlash algoritmi⁸⁶

Soliq to'lovchilarning, soliq xavfini aniqlashda ta'kidlaganimizdek, soliq xavfi mezonlarini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan biz ilmiy-nazariy tahlillarimiz va amaliy tahlillardan kelib chiqib yirik soliq to'lovchilar kesimida soliq xavfini va transfert narxlarni tahlil qilish yuzasidan o'zimizning uslubiy yondashuvlarimizni 2.7-2.8-rasmlarda aks ettirganamiz.

2.7-rasmda keltirilganidek, yirik soliq to'lovchilarning faoliyatida segmentlash, uning natijalari asosida maxsus dasturiy mahsul natijalarini olish hamda soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq xavfi bo'yicha rasmiy ogohlantirish, soliq xavfini mezonlarini to'g'ri ishlab chiqish va transfert narxlarni tahlil qilish bosqichlarini aniqlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

⁸⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.



2.8-rasm. Yirik soliq to'lovchilarda xavfni tahlil qilish bosqichlari⁸⁷

Keltirilgan 2.8-rasm ma'lumotlarida biz tomonimizdan yirik soliq to'lovchilarda xavfni tahlil qilish bosqichlari asosida tahlil qilish va shu asosda korxonalarning soliqdan qochish holatlarining oldini olish choralarini ko'rish o'z ahamiyatiga ega deb hisoblaymiz. Ammo, fikrimizcha, bu yetarli emas. Buning uchun yirik soliq to'lovchilar kesimida soliq xavfini baholash va xavfni kamaytirish maqsadida transfert narxlarni ham tahlil qilish lozim bo'ladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, uni amalga oshirish quyidagi tartibda (bosqichda) bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

⁸⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yirik soliq to'lovchilarning soliq xavfini darajasini aniqlashning transfert narxlarni tahlil qilish uslubiyoti:

- nazorat qilinadigan bitimlar to'g'risidagi xabarnomani qabul qilish;
- soliq nazorati amalga oshirilayotgan vaqtda nazorat qilinadigan bitim tuzilganligi aniqlangan va bu haqida korxona avvaldan habar berilmagan taqdirda Davlat soliq qo'mitasiga bu bitim to'g'risida ma'lumot taqdim etish;
- taqdim etilgan xabarnomaga asosan o'zaro aloqador shaxslar o'rtasida tuzilgan nazorat qilinadigan bitimning moliyaviy va iqtisodiy shartlarini mustaqil shaxslar o'rtasidagi bitim shartlari bilan taqqoslash;
- o'zaro aloqador shaxslar o'rtasida tuzilgan bitimlar bo'yicha soliqlar to'liq hisoblab chiqilganligini tekshirish;
- o'zaro aloqador bo'lgan shaxslar o'rtasidagi bitimlar shartlarini (va ularga tenglashtirilgan bitimlar) o'zaro bog'liq bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi bitimlar shartlari bilan taqqoslaganda umumiy foydalanishda bo'lgan ma'lumotlardan foydalanish;
- tovar (xizmatlar)ning tashqi va ichki bozorlardagi narxlar shakllanishi jarayonini tahlil qilish va baholash;
- transfert narxni belgilashda soliq nazoratini amalga oshirishda aniq bitimga tegishli bo'lgan hujjatlarni soliq to'lovchidan talab qilib olish;
- inspeksiya bo'limlari tomonidan soliq nazoratini amalga oshirish vaqtida, nazorat qilinadigan bitim tuzilganligi aniqlangan taqdirda bu xaqida ma'lumot tayyorlash va shu kabilar.

2-bob bo'yicha xulosa

Soliq riskini baholashdagi jahon amaliyoti respublikamiz soliq tizimida ham qo'llanila boshlaganiga ko'p bo'lmagan bo'lsada, bu borada ma'lum darajada tajribalarga ega bo'lindi. Albatta soliq riskini baholash uchun uni amalga oshirish uslubiyotini to'g'ri aniqlab olish muhim sanaladi. Bunda soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insoflilik

mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni nazarda tutib, respublikamiz qonunchiligda soliq tizimida soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insoflilik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish vazifalari belgilab berilgan edi.

Bunda asosiy e'tibor soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini ularning moliyaviy va soliq hisobotlari asosida ular duch kelishi mumkin bo'lgan turli xil iqtisodiy risklarni baholashning turli mezonlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Soliq risklarini aniqlab berishga xizmat qiluvchi mezonlar esa, soliq to'lovchilarning turli xil ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish orqali aniqlanishi ustuvor uslubiyot qilib belgilab berildi. Soliq to'lovchilarning soliq riskini baholash uchun esa, uning mohiyatini anglatuvchi yana bir qator iqtisodiy holatlarni aniqlab olishni taqozo etadi.

Umumiy xulosa qilib aytganda soliq turlari bo'yicha soliq to'lovchilarda soliq xavfini keltirib chiqarish mumkin bo'lgan jarayonlarni to'g'ri baholash, ularni amalga oshirish jarayonlarini bosqichlarini ilmiy-uslubiy jihatdan amalga oshirish hamda soliq turlari bo'yicha soliq xavfini aniqlashning mezonlarini to'g'ri aniqlash hamda qo'llash soliq xavfini aniqlashda hamda uning darajasini kamaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni ko'rishda katta ahamiyatga egadir.

Soliq to'lovchilarning faoliyatida segmentlash, uning natijalari asosida maxsus dasturiy mahsul natijalarini olish hamda soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq xavfi bo'yicha rasmiy ogohlantirish, soliq xavfini mezonlarini to'g'ri ishlab chiqish va transfert narxlarni tahlil qilish bosqichlari ahamiyatga egadir.

III BOB. SOLIQ RISKINI ANIQLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Soliq riskini baholashning xorij tajribasi va undan milliy soliq tizimida foydalanish yoʻnalishlari.

Agar soliqqa tortishning rivojlanish tendentsiyalari boʻyicha jahon amaliyotiga eʼtibor beriladigan boʻlsa, adolatli soliqqa tortish amaliyotini kuchaytirishga qaratilgan umumiy jarayonlarni koʻrish mumkin. Bu jarayonning ajralmas qismini davlat budjetiga soliq tushumlarini jalb qilishning barqaror tizimini mustahkamlash bilan bir qatorda, budjetga soliq tushumlarining belgilangan vaqt va miqdorda tushmay qolish xavflarini baholash, uning sabablarini aniqlash hamda bu boradagi ishlarni takomillashtirib borish sanaladi. Jahon amaliyotiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, soliq tizimida risklarni baholash oʻtgan asrning yetmishinchi yillarida ancha rivojlanib, bugunga qadar jahon mamlakatlari tajribasida bu jarayon anchayin takomillashib bormoqda. Bu borada turli xil maxsus alohida konferentsiyalar oʻtkazilib, ularda soliq risklarini boshqarish boʻyicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilib, davlatlar amaliyotga joriy qilib kelinmoqda.

Masalan, shunday muhim tadbirlardan biri 1997-yilda fiskal masalalar boʻyicha qoʻmita "risklarni boshqarish boʻyicha amaliyot eslatmasi"ni ishlab chiqib, unda ishtirok etgan mamlakatlarga taqdim qildi. Unda soliq tizimida risklarni boshqarish tamoyillaridan foydalanish yoʻnalishlari ham koʻrsatib berilishi bilan bir qatorda daromad tavakkalchiligini boshqarish konsepsiyasi ishlab chiqilgan holda, soliq toʻlovchilarda shakllanadigan daromadlarning riskka tortilishi masalalariga alohida urgʻu berilgan. Iqtisodiy hamkorlik va hamkorlik tashkilotiga aʼzo mamlakatlarning soliq sohasidagi vakolatli organlarning 2002-yil may oyida oʻtkazilgan uchrashuvida esa, yangi yoʻnalish sifatida muvofiqlik risklarini boshqarish masalasini kun tartibga olib chiqishdi. Bunda oʻrta va kichik biznesga taʼsir koʻrsatadigan ichki muvofiqlik masalalari bilan birgalikda bu toifadagi soliq toʻlovchilarda yuzaga

keladigan soliq risklarini to'rt xil yo'nalishda nazorat qilish uslubiyoti ko'rsatib berildi: tizimda ro'yxatdan o'tish bilan bog'liq risklar, soliq to'lovchilarning soliqqa oid zarur ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish yoki taqdim etish bilan bog'liq risklar, to'liq va to'g'ri ma'lumotlar to'g'risida hisobot berish (to'g'ri ish yuritishni o'z ichiga olgan holda) berish bilan bog'liq yuzaga keladigan soliq risklar bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

Manbalarda keltirilishicha, "muvofiglik riskini boshqarish - bu soliq qonunchiligiga rioya qilish risklarini (masalan, ro'yxatdan o'tmaslik, soliq majburiyatlari to'g'risida to'g'ri hisobot bermaslik va h.k.) tizimli aniqlash, baholash, tartiblash va davolash uchun tuzilgan jarayon bo'lib, risklarni boshqarish kabi, bu yaxshilangan qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun aniq belgilangan qadamlardan iborat intensiv jarayondir"⁸⁸. Bundan tashqari, bu tizim unga rioya qilinishiga ta'sir qiladigan omillarni ham baholashga xizmat qiladigan doimiy jarayon sifatida kelishilgan maqsadlarga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli va oqibatlarini kamaytirishga va innovasiyalar orqali takomillashtirish imkoniyatlarini oshirishga asoslanadi, o'z navbatida xabardorlikni va faol harakatni talab qiladi.

Aslida soliq sohasida muvofiglik risklarini boshqarish ikki xil yondashuvga: strategik (yuqoridan pastga) yoki operasion(taktik) darajada (pastdan yuqoriga) qo'llanilishga asoslanadi, bu yondashuvning birinchisi (strategik)da aniqlangan soliq xavflari odatda "keng qamrovli va ehtiyotkorlik bilan boshqariladigan aralashuvlarni talab qiladi, operativ darajada aniqlangan xavflar esa odatda kundalik biznes sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, qolaversa, strategik darajada muvofiglik tavakkalchiligini boshqarish muhim soliqqa tortilishi mumkin bo'lgan nomuvofiq xatti-harakatlarning muayyan toifalarini aniqlash"⁸⁹ga qaratilgan bo'ladi.

⁸⁸ Organisation for economic co-operation and development. Compliance Risk Management: Managing and Improving Tax Compliance. Forum on Tax Administration Committee on Fiscal Affairs Compliance Sub-group October 2004. <https://www.oecd.org/tax/administration/33818656.pdf> p.8.

⁸⁹ O'sha manba.b.16.


Soliq tizimida risklarni boshqarish tizimiga oid tajribalarni o'rganish shunday xulosalarni beradiki, Evropa va Osiyo davlatlarining aksariyatida soliq riskini baholashda segmentlash usuli anchayin o'z samarasini ko'rsatmoqda, oxirgi to'rt yil davomida O'zbekiston soliq tizimida ham qo'llanila boshlagan soliq to'lovchilarning faoliyatini segmentlash jarayoni xalqaro ilg'or tajribalardan foydalanishda soliq to'lovchilar faoliyatini segmentlash asosida xavflarni baholashda standartlashga va ketma-ketlik asosidagi usullarni kichik, o'rta va yirik korxonalarda alohida qo'llash amaliyoti O'zbekiston soliq tizimida ham qo'llash o'z ahamiyatiga ega deb hisoblaymiz.

Masalan, bu tajriba Avstriyada keng samarali qo'llanilib kelinmoqdaki, soliq to'lovchilarga oid ma'lumotlarni statistik ma'lumotlar va audit faoliyatining standartlashtirilgan natijalarini to'plash va saqlash asosida baholashni ishonchligini ta'minlamoqda. Bundan tashqari bu mamlakatning ilg'or tajribalaridan biri yana biri shuki, soliq xavfini baholashda aylanma yoki yalpi daromad aktivlar yoki xodimlar soni kabi ko'rsatkichli mezonlarni qo'llashda tizimli yondoshadi, ya'ni, soliq xavfini baholashda bu ko'rsatkichlarning qaysi qay holatda qo'llansa, samara berishini korxonaning ko'lamidan kelib chiqib qo'llanishga urg'u beradiki, bunda ko'rsatkichlarning har birining ichki xususiyati va unga ta'sir etuvchi omillarni ham o'zaro bog'liqlikda baholab boriladi va shunga asoslangan holda xulosalar chiqariladi.

O'z navbatida bu tajriba " Qirollikda biznes segmentasiyasi yalpi aylanmaga asoslansa (<15 ming funt sterling, 15-250 ming funt sterling, 250 ming funt sterling+), Daniyada korxonalar yalpi aylanmasi, ishlarning murakkabligi va ular korporativ yoki korporativ bo'lmagan kompaniyalar bo'lishidan qat'i nazar segmentlarga bo'linadi. va deklarasiyani to'ldiruvchi individual soliq to'lovchilar ishlarining murakkabligi, ularning jamoat profili va xavf holatiga qarab toifalarga bo'linadi"⁹⁰.

⁹⁰ O'sha manba.b.18.

Soliq riskini baholashda qo'llaniladigan yana bir xorijiy tajribalardan biri sifatida identifikasiyalash tizimlaridan foydalanish tajribasidir. Bu tizimning afzalligi shundaki, soliq to'lovchilarga oid soliq xavfini baholashda foydalaniladigan zaruriy ko'rsatkichlarni olish (unga egalik qilish)ning samarasini ta'minlaydi. Jumaladan, Kanadada xavfni aniqlash samaradorligini aniqlash uchun milliy xavflarni identifikasiyalash tizimlari doimiy ravishda o'lchab boriladi, hisoblangan xavfning turli guruhlar uchun soliq auditi natijalari o'zaro solishtirilib boriladi. Tafovutlarga qarab, soliq xavfiga aniqlik kiritib boriladi.



3.1-rasm. Jahon amaliyotida soliq riskini baholash va uni kamaytirishga oid uslubiy tavsiyalar tizimi⁹¹

Ayrim davlatlarda esa, bunday ko'rsatkichlar sifatida sudlar va ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlarga ko'proq tayaniladi. Masalan, Shvesariyada ana shunday usuldan keng qo'llaniladi. Bu mamlakatda fuqarolik sudlari foydali ma'lumot manbai hisoblanadi,

⁹¹ Ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

masalan, fuqarolarning daromadlari bo'yicha soliq xavfini aniqlashda, er va xotinning ajralishid turmush o'rtog'i ko'pincha soliq tizimida e'lon qilingan daromaddan yuqoriroq daromad haqida guvohlik beradigan holatda uni haqiqiy ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi, ushbu mamlakat tajribasi shuni ko'rsatadiki, moliyaviy firibgarlik qurbonlari ko'pincha fiskal firibgarlarga aylanadi, shu sababli Shveytsariya Federal soliq ma'muriyatida ushbu sohada tekshiruvlar o'tkazish uchun maxsus guruhlar tashkil qilingan.

Daniyada esa, "biznesni ro'yxatga olish raqami nafaqat soliq, QQS, bojxona va Aktsizlarni hisoblash uchun, balki barcha holatlarda biznes uchun yagona ro'yxatga olish raqami sifatida ishlatiladi, uchinchi shaxsning biznesga oid ma'lumotlari axborot beruvchining biznes ro'yxatga olish raqamiga bog'langan, biznesni ro'yxatga olish raqami va ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha hisobotlar, bojxona va QQS bo'yicha deklarasiyalar uchun kirish kodidan foydalaniladi"⁹². Avstraliyada esa "noyob raqam" deb nomlangan kodifikasiyadan foydalaniladi, bu raqam odatda biznes reestri orqali tranzaktsiya qilish vakolatini tekshirish uchun ochiq e'lon qilib boriladi, soliq to'lovchiga oid ichki va tashqi manbalarni umumlashtirish imkonini beradi va mos mezonlarni qo'llagan holda soliq xavfi darajasini aniqlaydi, aslida bu raqam har bir soliq turiga alohida alohida beriladi. Bu tajriba Daniyada ham qisman qo'llanila boshlandiki, ya'ni biznes raqami QQS kodiga muvofiq hisob-faktura va kvitantsiyalarda bo'lishi talab etiladi. Ayrim davlatlarda esa, juda ko'plab mezonlardan foydalaniladi, masalan bu tizim Kanadada ko'proq ishlatiladi.

Soliq riskini baholashning xorijiy tajribalarni tahlil qilish natijasida ilg'or tajribalarni saralash borasidagi tadqiqotlarimiz yana bir katta amaliy ahamiyatga ega tajribalardan biri sifatida soliq to'lovchilar kesimida soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlashda, ular bilan bog'liq soliq xavfini baholashning "hulq-atvor tamoyili"ni qo'llash tajribasini

⁹² Organisation for economic co-operation and development. Compliance Risk Management: Managing and Improving Tax Compliance. Forum on Tax Administration Committee on Fiscal Affairs Compliance Sub-group October 2004. p.31.

keltirish mumkin. Bu usul(tamoyil)da, asosiy e'tibor soliq to'lovchining sosial jihatlarini birinchi o'rinda e'tiborga olinadi, ya'ni, uning soliq to'lashdan qochish tarixi, boshqa korxonalar bilan o'zaro debitorlik-kreditorlik munosabatlaridagi harakati (intizomga amal qilishi), korxonaga turli xil tashkilotlar tomonidan moliyaviy (ma'muriy, jinoiy) javobgarlikka tortilganligi yoki ijobiy ma'noda e'tirof etilganligi, olingan kreditlarni qaytarish faoliyati va shu kabi sosial-institusional mezonlarga asoslanib soliq xavfini aniqlanadi. Fikrimizcha, O'zbekiston soliq tizimida ham ushbu mezonlarga asoslanib, soliq to'lovchilarning soliq xavfini aniqlash, baholash va segmentlash mexanizmlarini amalga oshirish o'z samarasini beradi.

Hozirgi vaqtda jaxonda soliq munosabatlarini rivojlantirish muammolari faol muhokama qilinmoqda. Har bir davlat yoki soliq organi soliq tizimini nazorat qilish va uni tartibga solishi kerak bo'lgan muhitga duch keladi. Yurisdiksiyalar o'zlarining fiskal siyosati, ma'muriy amaliyoti, qonunchiligi, tartibi va hokazolari bo'yicha farqlanadi. Shundan kelib chiqadiki, soliqqa rioya qilishni boshqarishning yakka standart yondashuvini va barcha soliq organlariga muvofiq keladigan soliq qoidalarini o'rnatish to'g'ri emas. Biroq, barcha soliq organlarining asosiy maqsadi bu o'zlarining qonunlari doirasida soliqqa amal qilish bo'yicha maksimal soliq daromadiga erishishdir. Shuning uchun ular muvofiq qoida-amallar va tadbirlar-choralarni va, birinchi navbatda, eng muhim tadbirlarni aniqlab olishlari juda muhimdir. Xususan, soliq organlari quyidagi masalalarga javob topishlari kerak:

1. Birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan soliq risklari qaysi?
2. Soliq risklari bo'lgan soliq to'lovchilar kimlar?
3. Optimal natijalarga erishish uchun ushbu risk muammolarini qanday echish kerak?

Amalda, yuqoridagi savollarga javob berishni murakkablashtiradigan ko'plab omillar mavjud. Bundan tashqari, mamlakatlar o'rtasidagi turli xil farqlar tufayli universal yo'riqnomani yaratish juda qiyin. Masalan, mamlakatlar o'zlarining madaniy omillari, davlat xizmatiga bo'lgan ishonchi, soliq qonunchiligining murakkabligi,

umumiy soliq yuki va hokazolar tufayli soliq qonunchiligiga rioya qilish xulq-atvori bo'yicha farq qilishlari mumkin. Soliqlarga rioya qilish nafaqat mamlakatlararo, balki sanoat sohalari bo'yicha ham farqlanadi. Shu sabablarga ko'ra, mamlakatlar soliqqa riski kontekstida nima muhimligini va qaysi mamlakat amaliyoti ularga ko'proq yoki kamroq muvofiq ekanligini hal qilishlari uchun sistematik jarayonni tuzishlari shart.

Globalashuv sharoitida mamlakatlarning soliq tushumlari tizimini boshqarishda bir-biri bilan hamkorlik qilish zarurati ortib bormoqda. Mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar soliqlarni to'liq miqdorda va muvofiq mamlakatda to'lanishini ta'minlash yo'llarini izlamoqda. Bugungi dunyoda bir qancha omillar soliq riskini, shuningdek, soliq organlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar murakkabligi va hajmini, audit va boshqa qonun hujjatlariga rioya qilish choralar ko'lamini sezilarli darajada oshirdi. Bular jumlasiga elektron savdo hajmi tobora oshib borayotgan xalqaro savdoning o'sishi, bandlik sohasidagi o'zgarishlar va pudratchilar sonining o'sishi, biznes tuzilmalari va moliyaviy xizmatlardagi innovasiyalar, soliq sxemalarini tovarlashtirish kiradi.

Ta'lim darajasining o'sishi, sayohat va immigrasiya ta'sirining kuchayishi va fuqarolarda dunyoviy bilimlarining ko'payib murakkablashishi bilan ma'muriyat va hukumatlardan ko'proq va mukammal talablarini keltirib chiqaradi. Natijada, soliq organlari o'z resurslariga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rmoqdalar, bu esa soliq qonunlarini qayta ishlash uchun turli yondashuvlar va o'zaro ta'sirlarni talab qiladi.

Tarixan, ko'pgina soliq organlari qonun hujjatlariga rioya qilmaslik xavfini faqat ijro dasturlari doirasida ko'rib chiqishgan. Keng qamrovli audit kabi an'anaviy reaktiv aralashuv strategiyalari qimmatga tushsa-da, soliq riskining ba'zi jihatlarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yondashuvi hisoblanadi. Bugungi kunda soliq mutaxassisleri soliq organlariga soliq to'lovchilarning qonun hujjatlariga rioya qilish xatti-harakatlariga ta'sir etuvchi omillarni tushunishga ko'proq e'tibor berishga chaqirmoqda, shunda salbiy oqibatlar bilan yuz kelgandan ko'ra, ishlab chiqarilgan va

joriy etilgan samaraliroq chora-tadbirlar majmuasi asosiy riskni bartaraf etishga qaratiladi.

L.I. Goncharenko⁹³ o'z tadqiqotlarida Norvegiya davlatining soliq xavfini kamaytirish usuliga e'tibor qaratdi. Risklarni boshqarish mexanizmlarining asosiy yo'nalishi soliq xodimlarining zimmmasidan soliq ma'muriyatining muntazam va past samaradorlik beradigan yukni olib tashlashdan iborat. Shunga ko'ra xodimlarning faoliyati va inson resurslari boshqaruvning, yanada aqlli sohalariga qayta taqsimlanadi. Quyilgan ustuvorliklar natijasida boshqaruv takomillashib, samaradorlik oshadi. Norvegiyada "yashil" va "qizil" chiziqlar tamoyili boshqaruv strategiyasining mag'zi hisoblanadi. Bu tamoyil, boshqaruv funksiyalarining ijobiy imkoniyatlarga ya'ni istiqbollarga va salbiy tahdidlar hamda ular bilan bog'liq xavflarni fundamental bo'linishiga asoslanadi.

Norvegiyaliklar ajoyib PR texnikasidan foydalangan holda o'z kontsepsiyalarida oldinga borishdi. Boshqaruv modelidagi ijobiy imkoniyatlar "yashil" chiziq, xavf - xatarlar esa – "qizil" bilan bog'liq. Natijada, soliq xizmati iste'molchilari uchun "yashil" bo'xona yo'lagi, "yashil" svetoforga o'xshash signal tushuniladi. Salbiy omillar, xatarlar va ular bilan bog'liq subyektlar qayd etiladi va xavf guruhlariga bo'linadi. Xavf guruhlarini aniqlash falsafasi quyidagicha:

- xavf guruhlarini aniqlash qonunlarning bajarilishi va xavflarni o'lchashga asoslangan. Soliq maslahatchilari soliq to'lovchiga (buxgalterlar, auditorlar, maslahatchilar) yordam ko'rsatgan deb taxmin qilinadi;
- deklarasiyalarning bir qismi "qizil chiziq"ga binoan qayd etiladi. "Qizil chiziq" dan keyin soliq to'lovchi xavf guruhiga o'tkaziladi;
- jismoniy shaxslar va korxonalarining xavf guruhlari strategik ajratilmaydi.

⁹³Л.И. Гончаренко Финансы и кредит > 2(338) - 2009 январь Налоговые риски: теория и практика управления Б 2-11

Norvegiyada xavf guruhlarini aniqlash va boshqarish funksiyalarini soddalashtirish uchun uchburchak modelidan foydalaniladi. Norvegiya soliq organlarining strategiyasi ko'pchilik fuqarolarning mas'uliyatli soliq to'lovchilar ekanligiga asoslanadi, ular uchburchakning pastki qismida joylashgan va o'zlariga katta e'tibor talab qilmaydi, lekin ular to'g'ri harakatlar uchun to'liq ma'lumotga muhtoj. Qasddan soliq to'lashdan qochadigan soliq to'lovchilar uchburchakning yuqori qismida joylashadi. Ushbu soliq to'lovchilar guruhidan kerakli soliqlarni olish uchun katta resurslar sarflanishi talab qilinadi, buning uchun barcha qonuniy vositalardan foydalanish zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, "oshkor bo'lish xavfi" soliqlarni to'lashda hal qiluvchi omilidir, ammo bu omilning kuchi boshqacha qabul qilinadi. Soliq organlari vijdotsiz soliq to'lovchilarni fosh qilishni ayniqsa oshkora ko'rsatishi kerak.

Vengriyada soliq tekshiruvlarini tanlashda quyidagi xavf omillari baholanadi: yillik soliq tekshiruv doirasiga kiritilgan xavf va soliq tekshiruv ixtisoslari; markazlashtirilgan yagona yondashuvlarga muvofiq tashkil etilgan soliq to'lovchilarning soliq ko'rsatkichlari; soliq to'lovchilarning malakasi; ilgari o'tkazilgan soliq tekshiruvlari va ularga qo'shimcha Tabrilar tajribasi, uchinchi shaxslar (boshqa organlar va boshqa soliq to'lovchilar) tomonidan oshkor qilingan ma'lumotlar; ma'lumotlarni oshkor qilish; ma'lumotlar bazalari; xalqaro ma'lumotlar almashinuvi tizimi ma'lumotlari; soliq to'lovchilarning soliq tarixi; ommaviy ma'lumotlar; soliq organining ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan va xavfli qiymatga ega bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

Vengriyada soliq to'lovchilarning ma'lumotlari quyidagicha guruhlanadi:

- soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar,
- uchinchi shaxslardan olingan ma'lumotlar
- Vengriya milliy soliq va bojxona ma'muriyati (NTCA) o'z ma'lumotlari.

Masalan, bu ma'lumotlar, quyidagilarni o'z ichiga oladi: soliq organida mavjud soliq to'lovchilarning asosiy ma'lumotlari; soliq hisoboti va soliq deklarasiyasi ma'lumotlari; ko'chmas mulk va

avtomobil registrarlari ma'lumotlari; Evropa Ittifoqi davlatlari tashabbusi bilan so'rovlar natijasida qabul qilingan ma'lumotlar; turli biznes-bazalari ma'lumotlari; ekar xabarnoma ma'lumotlari (elektron yo'l-transport savdo nazorat tizimi); VIES nazorat ma'lumotlari; onlayn savdo registrarlari ma'lumotlari yoki QQS bo'yicha batafsil ma'lumotlar.

Vengriyada QQS firibgarligi bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan soxta emitentlar va oluvchilar, o'z xaridlari va qayta sotishlarini yashirgan soliq to'lovchilar ma'lumotlari tahlil qilinib solishtirish yuli orqali filtrlanadi. Vengriya soliq ma'murchiligi hajmli ma'lumotlarni avtomatik ravishda ma'lumotlar almashishga e'tibor qaratadi, masalan: QQS(VIES) ma'lumotlari almashinuvi tizimi; xorijiy hisobvaraqlarni soliqqa tortish to'g'risidagi qonunga (FATCA) muvofiq taqdim etilgan ma'lumotlar; moliyaviy hisoblar to'g'risidagi ma'lumot (DAC2/CRS); mamlakatlar bo'yicha hisobotlar(DAC4/CbC).

Vengriyadan ko'pincha Slovakiya, Ruminiya, Chexiya, Polsha va Germaniya tomonidan QQS ma'lumotlari so'raladi va Slovakiya, Germaniya va Avstriya so'rovlarning aksariyatini to'g'ri soliqlar tashkil qiladi.

Binobarin, aniqlangan xavf baholangandan so'ng Davlat soliq xizmati organlari quyidagi chora-tadbirlarni ko'radi:

soliq majburiyatlarini bajarilishiga ko'maklashish (soliq to'lovchini xabardor qilish, soliq to'lovchi yarashishga chaqirish, oshkor qilish, ariza berish, ularning soliq deklarasiya ma'lumotlarni to'ldirish va taqdim etish, o'z-o'zini tekshirish);

soliq xavflarini bartaraf etishni rag'batlantirish (soliq to'lovchining identifikasiya raqamini uchirib tashlash, NTCA tergov organiga xabar berish); yoki aniqlangan xavfning tabiati tufayli ushbu choralarni qo'llash imkonsiz bo'lsa, soliq organi soliq tekshiruvini o'tkazish uchun soliq to'lovchini tanlash huquqiga ega.

Avstraliya soliq monitoringi eng rivojlangan va ochiq tizimli mamlakatlardan biridir. Har yili Avstraliya soliq xizmati riskni boshqarishda soliq ma'murchiligi adekvatligini baholash tizimini amalga

oshiradi⁹⁴. Bu ishning natijasi soliq nazoratining asosiy muammolarini o'z ichiga oladigan "soliq intizomini baholash dasturi" yaratilgan.

Avstraliya soliq idorasi yirik kompaniyalarga nisbatan quyidagi asosiy soliq risklarini alohida qayd etadi:

- biznes birlashishida (konsolidasiyasi) kompaniya guruhlariga o'tkaziladigan tashkilot zararlari;
- chet el yurisdiksiyalarida foydalarning ko'chirilishi (Avstraliya tuzilmalarida bajariladigan Real funksiyalarga nomuvofiqligi);
- pul mablag'larini jalb qilish uchun gibril moliyaviy instrumentlar (soliqqa tortish maqsadlari uchun uzoq muddatli majburiyatlar va buxgalteriya hisobi maqsadlari uchun ustav kapitaliga qo'yilma sifatida ko'rib chiqiladigan);
- investision kompaniyalar tomonidan yirik infrastruktura loyihalarini amalga oshirish;
- ofshor kompaniyalarning bitimlarida ishtirok etish;
- chet el kompaniyalari ishtirokidagi murakkab moliyaviy bitimlar (xarajatlarning ikki marta qabul qilinishi hamda Avstraliyada va kontragent ro'yxatga olingan mamlakatda deklarasiyalanmagan daromadlar riski).

3.1-jadval

Xorijiy mamlakatlar bo'yicha asosiy soliq risklari zonalari⁹⁵

Mamlakat	Soliq risklarining asosiy zonalari
Avstraliya	Bo'yin tovlashga yo'naltirilgan soliq sxemalari; yangi moliyaviy instrumentlardan foydalanishi; kompaniya aktivlarini o'stirishga yo'naltirilgan sxemalar (mehnatga haq to'lashni o'zgartirish, ofshorlardan foydalanish, "nozik kapitalizasiya" instrumenti)
Buyuk Britaniya	Zararlarni sun'iy yaratmoq; aktiv va daromadlarni yashirish maqsadida ofshorlarning bank hisobvaraqlaridan foydalanish

⁹⁴ Avstraliya soliq boshqarmasi materiallari - <http://www.ato.gov.au>

⁹⁵ Mamadaminov N. Yu. Soliq risklarini boshqarishning xalqaro tajribasi "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil

Germaniya	Daromadlarni past solikli yurisdiksiyalarga o'tkazish; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish; doimiy hukumatlarning xorijiy tashkilotlar tomonidan soliqlardan qochishi
Irlandiya	Ofshorlardan foydalaniladigan sxemalar; daromadlarni yashirish va kapitalning o'sishi; zararlarni sun'iy yaratish yoki oshirib ko'rsatish; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish
Ispaniya	Mulk sxemalari; ofshorlardan foydalanish; soliqlarni rejalashtirish
Italiya	Ofshor va trastlar (ishonchli mulk) dan foydalaniladigan sxemalar, milliy va xalqaro darajadagi kompleks shartomaviy sxemalar; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiste'mol qilish
Kanada	Daromadlarni sun'iy pasaytirishga va aktivlar qiymatini sun'iy oshirishga yo'naltirilgan bitimlar, xarajatlarni oshirib ko'rsatish, zararlarni oshirish; ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish; soliq imtiyozlarini noqonuniy qo'llash; ofshorlardan foydalanish, transfert narxlarni shakllantirish; qasddan bankrotlikka olib kelish
Janubiy Koreya	"Savdo bitimlaridan" foydalaniladigan sxemalar; ofshorlardan foydalangan holda soliq solishdan bo'yin tovlash; sun'iy zararlarni paydo qilishga va soliqlarni to'lashni kechiktirishga yo'naltirilgan qalbaki qimmatli qog'ozlar sxemasidan foydalanish
Niderlandiya	Soliq bazasini noto'g'ri ko'rsatishga yo'naltirilgan sxemalar; ofshorlar; yuqori daromadga ega jismoniy shaxslar va salmoqli qiymatga ega ularning mulklari
Yangi Zellandiya	Daromadlarni parchalash va sun'iy zararlarni paydo qilish (jismoniy shaxslar uchun); moliyaviy instrumentlardan muntazam foydalangan holda soliq qonun hujjatlaridagi "tirqishlar" foydalanish (kompaniyalar uchun)
Norvegiya	Offshorlardan foydalaniladigan sxemalar
AQSh	Soliq qonunchiligining kamchiliklaridan foydalaniladigan sxemalar; daromad yashirish uchun ofshor tuzilmalardan

	foydalangan holda soliqlardan bo‘yin tovlash, sun'iy xarajatlar va zararlarni paydo qilish
Frantsiya	Juda katta miqdorda soliqqa oid huquqbuzarliklar, ayniqsa xalqaro darajada; iqtisodiy faoliyatni deklarasiya qilmaslik
Shvesiya	Ofshorlar, bank kartalari va chet el xolding kompaniyalardan foydalaniladigan sxemalar, (jismoniy shaxslar, kichik va o‘rta biznesga); tijorat mulklari, zayomlari bilan sxemalar (kompaniyalar)
Yaponiya	Xorijiy davlatlarning soliq tizimidagi imtiyozli holatlar va ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilishga asoslangan soliqlarni rejalashtirishning xalqaro sxemalari; xorijiy "bir kunlik firmalar"dan foydalanish; sxemalarda yangi moliyaviy instrumentlardan foydalanish

Soliq risklari ro‘yxati va mumkin bo‘lmagan soliq sxemalari ro‘yxati nashr etilar ekan, davlat tomonidan soliq e’tirozlari ehtimolini pasaytirishga intiladigan Avstraliya soliq idorasi biznes uchun "o‘yin qoidasini" shakllantiradi.

3.1-jadvaldagi davlatlarda soliq riskining asosiy manbai soliq to‘lovchilar tomonidan ofshor kompaniyalar ishtirokidagi sxemalardan foydalanishlari keltirilgan. Bundan mustasno holatda, aksar davlatlar ikki yoqlama soliqqa tortishni oldini olish haqidagi bitimlarni suiiste'mol qilish, zararlarni sun'iy paydo qilish va soliq qonun hujjatlaridagi kamchiliklardan foydalanishni risk sifatida ko‘rib chiqilgan.

Avstraliya, Buyuk Britaniya⁹⁶, Kanada⁹⁷, Yangi Zellandiya va AQSh⁹⁸ qonun hujjatlarida soliq risklarini aniqlash tizimida soliq maslahatchilari va auditorlar (promouterlar) tomonidan soliqlarni rejalashtirishning agressiv sxemalari uchun milliy qonunchiliklarga moliyaviy sanksiyalar rejimini joriy qilish o‘z aksini topgan.

Xulosa shuki, soliq sohasidagi hamkorlik va muvofiqlashtirish hukumatning ko‘p tomonlama sa’y-harakatlari nuqtai nazaridan eng yaxshi amaliyotdir. Bu mamlakatlarning milliy soliq suverenitetiga zarar etkazishdan ko‘ra mustahkamlaydi. Biroq, ko‘p tomonlama sa’y

⁹⁶ Buyuk Britaniya soliq xizmati materiallari - <http://www.inglandrevenue.gov.uk>

⁹⁷ Kanada bojxona va soliq agentligi materiallari - <http://www.ccra-adrc.gc.ca>

⁹⁸ AQSh ichki daromadlari xizmatining materiallari - <http://www.irs.ustreas.gov>

harakatlar transchegaraviy soliq to'lashdan bo'yin tovlash va soliqdan qochishga qarshi kurashish, shuningdek shaffof bo'lmagan soliq ma'murchiligi qarorlari orqali riskli soliq amaliyotlarining oldini olish uchun muhim ahamiyatga ega. Ko'proq axborot to'plash, tahlil qilish va mamlakatlar o'rtasida hamkorliklikni yulga quyish, ma'lumotlar almashish soliq risklarini boshqarishda sezilarli ijobiy natijalarga olib keladi.

3.2. Soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi "tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5490-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarori bilan tasdiqlangan "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi"da "xorijiy davlatlar tajribasi hisobga olingan holda, tavakkalchiliklarni baholashning zamonaviy usullarini joriy qilish va iqtisodiy faoliyat sohasida xufiyona aylanma hamda nazorat qilinmaydigan daromadlar ko'lamini qisqartirish, soliq qonunchiligi sohasidan tashqarida faoliyatni amalga oshiradigan shaxslarni norasmiy sektordan chiqishiga (qonuniylashtirishiga) ko'maklashish, nazorat faoliyatini amalga oshirishda tavakkalchiliklarni tahlil qilish va boshqarishning zamonaviy tizimini joriy etish, soliq to'lovchilarni segmentasiyalash asosida davlat soliq xizmati organlarining eng maqbul modelini joriy etish, soliq xizmati organlarida zamonaviy biznes-tahlil (Business Intellegence) tizimini, shuningdek, strategik va prosessual boshqaruvni joriy etish" kabi bir qator strategik vazifalar belgilab berilgan.

Tadqiqot ishimiz doirasida O'zbekiston soliq tizimida garchi, yangi mexanizmlar bo'lsada, soliq riski va uni baholash hamda boshqarish bilan bog'liq bir qator muammolar ham borki, ularni echimi bilan bog'liq ilmiy-

amaliy takliflar bugungi kunda katta ilmiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari amaldagi mavjud mexanizmlarning samaradorligini oshirishga ham katta ehtiyojlar mavjud. Biz quyida ana shu masalalar haqida so‘z yuritamiz.

Dastlab bu boradagi mavjud muammolar xususida fikr bildiradigan bo‘lsak, birinchisi bu soliq to‘lovchilarning soliq xavfini aniqlashda, faoliyati shuhali bo‘lgan korxonalarni aniqlashning murakkabligi muammosidir. Fikrimizcha, xufiyona iqtisodiyot sohasida shubhali operasialarni amalga oshirgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni aniqlash va ularga nisbatan ta’sir choralarini qo‘llashning samaradorligini oshirish talab etiladi, vaholanki, shubhali operasialarni amalga oshirgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tezkorlik bilan aniqlash va ularning faoliyaiga chek qo‘yish hamda soliq organlariga berilgan vakolatlardan to‘liq foydalanmayapti.

Bizningcha, bu jarayonni amalga oshirish uchun shubhali operasiya va shubhali korxonalar tushunchalariga aniqlik kiritib olish lozim bo‘ladi. Jarayonning mazmunidan kelib chiqib, biz bu tushunchalarga o‘zimizning mualliflik ta’rifimizni ishlab chiqdik. Ya’ni, shubhali operasiya – soliq to‘lovchilarning (soliq agentlarining) rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraqa faktura va yoki bank operasialarining xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati xususiyatiga va turiga, shuningdek xarid qilinadigan va realizasiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomenklaturasiga muvofiq emasligi, soliq to‘lovchi tomonidan bitim tuzishda ko‘zlangan asosiy maqsad soliqlarni to‘lamaslik hamda bitim (operasiya) bo‘yicha majburiyat shartnoma tarafi bo‘lmagan shaxs yoki bitimni (operasiyani) bajarish majburiyati shartnoma yoki qonun bo‘yicha yuklatilmagan shaxs tomonidan bajarilganligi bilan izohlansa, shubhali korxona deganda esa – yagona yoki ustuvor maqsadi soliq to‘lamaslik tarzidagi asossiz soliq nafi olishdan yoxud o‘zi to‘laydigan soliqlarning summasini kamaytirishdan iborat bo‘lgan operasialarni yoki operasialar ketma-ketligini amalga oshirgan subyektlar tushunilishi kerak deb hisoblaymiz.

Shubhali operasialar va ularni amalga oshiruvchi korxonalarni aniqlash esa, fikrimizcha, Davlat soliq qo‘mitasining tegishli

departamenti (axborot – kommunikasiya texnologiyalari departamenti) tomonidan tashqi manba ma'lumotlarini olish, qayta ishlash va tahlil qilishi zarur bo'ladi.

Tahlillar natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning shubhali operasialarni amalga oshirganligini aniqlash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan algoritmgaga asoslanish lozim bo'ladi:

Birinchi bosqich: Soliq to'lovchilarning (soliq agentlarining) rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraqa faktura va yoki bank operasialarining xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati xususiyatiga va turiga, shuningdek xarid qilinadigan va realizasiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomenklaturasiga muvofiq emasligi, soliq to'lovchi tomonidan bitim tuzishda ko'zlangan asosiy maqsad qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaslik yoki uni hisobga olish ekanligi hamda bitim (operasiya) bo'yicha majburiyat shartnoma tarafi bo'lmagan shaxs yoki bitimni (operasiyani) bajarish majburiyati shartnoma yoki qonun bo'yicha yuklatilmagan shaxs tomonidan bajarilganligi aniqlash;

Ikkinchi bosqich: O'tkazilgan tahliliy ishlar natijasida faoliyatida shubhali holatlar aniqlangan taqdirda ya'ni, tovarlar nomutanosibligi aniqlangan subyektlar amalga oshirilgan (EHF va yirik bank aylanmasi) tovar aylanmasiga nisbatan potentsial soliq xavfi summasidan kelib chiqib, uch toifaga ajratish;

Uchinchi bosqich: Kameral soliq tekshiruvlari boshqarmasiga faoliyatida tovarlar nomutanosibligi aniqlangan subyektlarda o'tkazilgan tahlil natijalari va boshqa hujjatlarni taqdim etadi hamda dastur orqali kameral soliq tekshiruvi tayinlash to'g'risida topshiriq yuborish va shubhali korxonalar ro'yxatiga kiritilgan subyektlar kontagentlari aniqlanadi ularda kameral soliq tekshiruvlarini o'tkazish uchun hududiy soliq idoralariga dastur orqali topshiriq yuboriladi va ma'lumotlar umumlashtirish;

To'rtinchi bosqich: Faoliyati shubhali deb topilsa tahlika tahlil dasturi orqali segmentlashtirib, DSQning "lozim darajadagi ehtiyotkorlik" rasmiy veb sahifasida "shubhali" korxonalarini tarkibiga

kiritish uchun Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamentiga taqdim qilish;

Beshinchi bosqich: Faoliyati shubhali deb topilsa ma'lumotlarni belgilangan tartibda xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash departamentiga taqdim etish;


Oltinchi bosqich: Hududiy soliq organlarining yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish tuzilmalari tomonidan yangi tashkil etilgan subyektlarning ko'rsatilgan yuridik manzili o'rganish va soliqqa oid huquqbuzarliklar bilan ishlash boshqarmasiga taqdim etish;

Ettinchi bosqich: Faoliyati shubhali deb topilsa, tahlika tahlil dasturi orqali segmentlashtirib, DSQning "lozim darajadagi ehtiyotkorlik" rasmiy veb sahifasida "shubhali" korxonalarini tarkibiga kiritish uchun Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash Departamentiga taqdim qilish.

Bu jarayonda faoliyatida (*oxirgi 12 oy davomida*) shubhali operasiyalar ulushi yuqoriligi ($>60\%$), faoliyatida (*oxirgi 12 oy davomida*) shubhali operasiyalar ulushi $30 - 60\%$ gacha bo'lib soliq tekshiruvlari natijasida hisoblangan soliqlarni belgilangan muddatlarda to'lanmasligi, muqaddam bankrot deb e'lon qilingan tashkilotda rahbar yoki ta'sischi (ishtirokchi) bo'lgan va muqaddam soliq to'lashdan qasddan bo'yin tovlaganlik uchun rahbar yoki ta'sischi (ishtirokchi) sifatida javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan rahbarlik yoki ta'sischilik (ishtirokchilik) amalga oshirilganligi, iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun etarli moddiy texnika bazasi mavjud emasligi (ombor, transport vositalari, qurilish texnikalari va h.k), soliq to'lovchiga soliq qarzi mavjud hamda shubhali operasiyalar amalga oshirgan soliq to'lovchi qo'shilganligi, faoliyat boshlagan davrdan boshlab, qisqa muddatlarda yirik miqdorda tovar aylanmasini amalga oshirib, rasmiy ishlayotgan xodimlar sonini kam ko'rsatganligi va shu kabi mezonlarga alohida e'tibor berishi lozim deb hisoblaymiz.

O'zbekiston soliq tizimida soliq riskini boshqarish yagona uslubiyotining mavjud emasligi yoki mavjudlarining o'zaro bog'lanmaganligi muammosi bu boradagi muhim masalalardan biri

sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda biz tomonimizdan "soliq riskini boshqarish uslubiyoti" taklif etilmoqda. Quyidagi 3.2-rasmda bu uslubiyotning mazmuni aks ettirilgan. Bizning fikrimizcha, soliq riskini boshqarish faqatgina davlat budjeti manfaatlaridan kelib chiqib emas, shu bilan birgalikda soliq to'lovchining soliq riski nuqtai nazaridan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Soliq to'lovchining soliq riskini boshqarishda xarajatlarni maqbullashtirish, hisob siyosati va moliyaviy strategiyani moslashtirish, risk omillarni aniqlash va ularni sug'urtalash, faoliyatni raqamlashtirish, kontragentlarni monitoring qilish va uning asosida zararni aniqlab borish yo'nalishlarida amalga oshirish o'z samarasini beradi deb hisoblaymiz.




3.2-rasm. Soliq riskini boshqarish uslubiyoti⁹⁹

Yuqoridagi 16-rasmda bu uslubiyotning mazmuni aks ettirilgan. Bizning fikrimizcha, soliq riskini boshqarish faqatgina davlat budjeti manfaatlaridan kelib chiqib emas, shu bilan birgalikda soliq to'lovchining soliq riski nuqtai nazaridan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Soliq to'lovchining soliq riskini boshqarishda xarajatlarni maqbullashtirish, hisob siyosati va moliyaviy strategiyani moslashtirish, risk omillarni aniqlash va ularni sug'urtalash, faoliyatni raqamlashtirish, kontragentlarni monitoring qilish va uning asosida zararni aniqlab borish yo'nalishlarida amalga oshirish o'z samarasini beradi deb hisoblaymiz.

⁹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Soliq riskini boshqarishning davlat budjeti nuqtai nazaridan boshqarishda esa, soliq siyosatidagi o'zgarishlarning risk omillariga ta'sirini baholash, soliq elementlarining soliq ko'rsatkichlariga ta'sirini tizimli baholab borish, soliq imtiyozlari siyosatida samaradorlik ko'rsatkichiga asoslanish, soliq to'lovchining soliq xavfini baholashda inson omilini kamaytirish (avtomatlashtirishni kuchaytirish), moliyaviy risklarni tizimli baholashga asoslangan moliyaviy strategiya belgilash kabi shakllarda amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.



3.3-rasm. Soliq tizimida soliq riskini aniqlashga tizimli modeli¹⁰⁰

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida mazmuni va mohiyati bayon etilgan "soliq riskini boshqarish uslubiyoti" soliq riskini boshqarishda soliq to'lovchi va davlat budjeti manfaatlari jihatidan qanday yondoshishni ko'rsatib bersa, 3.3-rasm orqali keltirilayotgan va biz tomonimizdan taklif etilayotgan "Soliq tizimida soliq riskini aniqlashga tizimli modeli" esa, soliq tizimida davlat soliq siyosatida soliq riskiga oid umumiy yo'nalishlari tavsiflab beradi. Bu model o'z ichiga

¹⁰⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

oltita komponentlarni qamrab oladiki, ular jumlasiga: soliq xavfini aniqlash mezonlarini iqtisodiy va boshqa qonunlar mazmuniga bog‘lash, soliq to‘lovchilarning soliq qarzdorligi va soliq xavfi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash, soliq imtiyozlarining budjet-iqtisodiyotga samarasini o‘lchash, soliq xavfini aniqlashni algoritmini tizimlashtirish mazmuniga bog‘lash, soliq tushumi prognozi va daromadlarni rejalashtirishning muvofiqligini ta‘minlash hamda fors-majorni aniqlashning dasturiy mahsulotini yaratish kabi tizimli-bloklardan iborat bo‘ladi.

Bu bloklarning har biri esa, o‘zida bir necha muhim mezonli elementlardan iborat bo‘lib, ularni baholab borish, ushbu modelning ishlash mexanizmini ta‘minlab beradi. Bu modelning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, davlat o‘zining soliq siyosatida soliq ma‘murchiligi doirasida boshqaruv elementlarining samaradorligini ta‘minlashda, asosiy maqsadga qaratilgan davlat budjetiga soliq tushumlarining bir maromda kelishi tushishiga salbiy ta‘sir etuvchi muhim blokli omillarni o‘zaro bog‘liqlik va tizimli asosida baholab borish orqali samaradorlikka erishishga olib keladi.

Tadqiqot ishi doirasida ishlab chiqilgan "Soliq riskini boshqarish uslubiyoti" va "Soliq tizimida soliq riskini aniqlashga tizimli modeli" O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son "soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to‘lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida"gi qarorida o‘z aksini topgan. (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi soliq qo‘mitasining 2023-yil 31-martdagi 15-38211-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur takliflar bir tomondan soliq to‘lovchida yuzaga keladigan soliq xavflarini baholashga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan davlat budjeti doirasida soliq tushmay qolish riskini baholash va uni kamaytirishga imkoniyat tug‘dirgan.

Tadqiqot ishimizning avvalgi bandlarida (asosan 1 bobda) keltirib o‘tganimizdek, soliq riskida soliq to‘lovchilarning faoliyatini segmentlash uslubiy jihatdan muhim sanaladi. Agar, segmentlashni

to'g'ri yo'lga qo'yish va amalga oshirilsa, soliq xavfini aniqlashning obyektivligini oshadi. Demak, faoliyatni segmentlash soliq riskini aniqlash va uni boshqarishning dastlabki muhim bosqich vazifasini bajarib boradi. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda respublikamiz soliq tizimida amalda qo'llanilib kelinayotgan soliq to'lovchilar faoliyatini segmentlashni mexanizmini yanada takomillashtirishni o'ziga olgan "xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash tizimini takomillashtirish" tizimini ishlab chiqdik.



3.4-rasm. Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash tizimini takomillashtirish¹⁰¹

¹⁰¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur 3.4-rasmda mazmuni va ichki mohiyati keltirilayotgan xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash tizimining elementlariga e'tibor beradigan bo'lsak, bularning har birini alohida tahlil qilish va ularni o'zaro tizim sifatida baholash soliq xavfini to'g'ri tahlil qilishni ta'minlab beradi. Tahlika-tahlil asosida soliq xavfini baholab borishda esa, taklif etilayotgan har bir elementning o'zini tizimli baholash lozim bo'ladi, ana shundagina, soliq riskini boshqarish samarasi ta'minlash mumkin.

Bizga ma'lumki, jahon amaliyotida soliq riskini boshqarishda "FeedBack" tizimidan har bir davlatning milliy xususiyatlaridan kelib chiqib keng qo'llanilib kelinadi. "FeedBack" tushunchasi inglizcha termin bo'lib, mohiyati jihatdan "teskari aloqa" degan ma'noni beradiki, aslida bu ko'proq texnika va muhandislik tizimida yuzaga kelgan. Soliq riskini boshqarishda bu tizimdan foydalanish katta samara beradi deb hisoblaymiz. O'zbekiston soliq tizimida soliq xavfini boshqarishda "FeedBack" tizimidan foydalanish bo'yicha strategik rejalar qilingan bo'lsada, ammo, bu tizim amaliy jihatdan hali joriy etilmagan. Shu sababli ham biz bu tizimdan foydalanishning mexanizmini joriy qilish yuzasidan o'zimizning ilmiy tavsiyalarimizni izohlaymiz.

Soliq riskini boshqarishda "FeedBack" tizimidan foydalanish soliq xavfini baholashga ta'sir qiladigan jarayonlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bu tizimni amalga oshirishning manbasi "soliq tekshiruvi" dasturiy mahsulning ma'lumotlari hisoblanishi kerak.

"Fidbek" tizimida nomzodlarni shakllantirish tartibi quyidagicha amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchidan, bu jarayon qismdan iborat bo'ladi hamda mezon uchun biriktirilgan xodim tomonidan o'tkaziladi:

- mavjud mezonlarning samaradorligini baholash
- tekshirishda yangi aniqlangan soliq xavflarini baholash

Bunda "Mezon samaradorligi belgilangan foizdan past" bo'lgan mezonlarda amalga oshiriladi. "Fidbek" yakuni bilan xodim tomonidan belgilangan shakldagi xulosa rasmiylashtiriladi hamda mazkur xulosada quyidagilarga aniqlik kiritiladi:

1. Mezonlarga tegishli o'zgartirish kiritish.
2. Mezonda xatolik mavjud emas.
3. Normativ huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish.

Tekshirishda yangi aniqlangan soliq xavflarini baholash jarayoni "yangi holat" bo'lgan hollarda amalga oshiriladi. Mavjud mezonlarning samaradorligini baholash bo'yicha xulosa har bir mezon uchun "Fidbek" o'tkazgan xodim tomonidan har oyda keyingi oyning belgilangan sanasida rasmiylashtiriladi hamda Department direktori imzosi bilan ishchi guruhga kiritiladi. Tekshirishda yangi aniqlangan soliq xavflarini baholash bo'yicha xulosa har bir viloyat uchun "Fidbek" o'tkazgan xodim tomonidan har oyda keying oyning belgilangan sanasida rasmiylashtiriladi hamda Department direktori imzosi bilan ishchi guruhga kiritiladi.

Bunda, ishchi guruh tomonidan munosabat bildirilgan har bir xulosa tizimda saqlanadi. "Fidbek" o'tkazgan xodim tomonidan har bir holat uchun rasmiylashtirilgan dastlabki xulosalar tizimda saqlanadi. Belgilangan sana esa ishchi guruhi tomonidan tasdiqlanadi.

"Fidbek" jarayoni yakuni:

Ishchi guruhga kiritilgan xulosalar tegishliligi bo'yicha ijrochilarga yo'naltiriladi.

O'zbekiston soliq tizimida soliq xavfini boshqarishda "Fidbek" ("FeedBack") tizimidan foydalanish yo'nalishlari bergan taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 320-sonli qarorida asoslantirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi soliq qo'mitasining 2023-yil 31-martdagi 15-38211-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning soliq tizimida joriy qilinishi soliq to'lovchilarni faoliyatini baholash orqali ularda yuzaga keladigan soliq xavflarini yuqori darajada aniqlash va uni kamaytirishga imkon olib kelgan.

Mavjud mezonlarning samaradorligini baholash bo'yicha-mezonlarga tegishli o'zgartirish kiritish qismi tegishli algoritmlarni ishlab chiqish bo'yicha "xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash"


departamentiga, normativ huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish qismi normativ huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha "soliq solish metodologiyasi" boshqarmasiga, mezonda xatolik mavjud emasligi qismi tekshiruvchi tomonidan amalga oshirilgan ishlarni o'rganish bo'yicha "ichki audit" departamentiga taqdim qilinishi kerak bo'ladi. Soliq to'lovchilarning soliq xavfi darajasi qayta baholanganda mezonda xatolik mavjud emasligi qismidan tashqari barcha holatlarning tekshirilgan davrdagi soliq xavfi natijasi qayta baholanganda aniqlangan soliq xavfi natijasidan chegirilishi lozim bo'ladi (3.5-rasm).

O'zbekiston soliq tizimida soliq riskini boshqarishda yana bir muhim e'tibor qaratilishi va takomillashtirilishi zarur bo'lgan jarayonlardan biri bu soliq to'lovchilarning kontragentlarni tanlash chog'ida lozim darajada ehtiyotkorlik qilishga amal qilish va uning oqibatida soliq to'lovchi doirasida (birinchisida) soliq xavfining yuzaga kelishini baholash masalasi (muammosi)dir. Buning uchun fikrimizcha, kontragentlar uchun soliq to'lovchilarga soliq organlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni qo'shimcha ravishda berish maqsadida, elektron-hisob faktura

(EHF)da etkazib beruvchi va xaridor rekvizitlarining tagida ularning soliq uzilishlari koeffisientini 0,00 dan 1,00 gacha belgilash va bu to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish zarur bo'ladi. Bizning taklifizga ko'ra, bunda, koeffisientlar: 0,00 dan 0,20 gacha bo'lganda "yashil" rangda; 0,21 dan 0,40 gacha bo'lganda "apelsin" rangda; 0,41 dan 0,60 gacha bo'lganda "och qizil" rangda va 0,61 dan 1,0 gacha bo'lganda "to'q qizil" rangda aks ettirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu mezonlarning ahamiyati shundaki, ularni qo'llash orqali qo'shilgan qiymat solig'i orqali soliq uzilish jarayonini aniqlash imkonini beradi va soliqdan qochish holatlarining zanjiri yuzaga kelayotganligidan dalolat beradiki, buning oldini olish chorasini ko'rishga undaydi. Mazmunan olib qaralganda soliq uzilishi bu davlat budjetga QQS to'lamagan yoki o'zaro operatsiyalarini Ehfdan aks ettirmagan yoki soliq organlariga soliq hisobotini taqdim etmagan kontragentlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan ushbu

kontragentlardan olingan Ehflar asosida hisobga olinadigan QQS summalarini o'zining soliq hisobotida aks ettirish tushuniladi. Bu erda shuningdek, soliq uzilishini aniqlashda tovarlarni (xizmatlarni) etkazib berishning butun zanjiri bo'ylab ikkinchi, uchinchi va keyingi bo'g'inlardagi harakatlari oldindan kelishilgan deb tavsiflanadigan (huquqiy, iqtisodiy va boshqa nazorat ostida) o'zaro bog'liq kontragentlar tomonidan QQSni budjetga to'lanmaganligi ham inobatga olishni taqozo etadi.



3.5-rasm. Yakunlangan tadbirlar tahlili (Feedback) ishlash sxemasi¹⁰².

¹⁰² Muallif ishlanmasi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat budjetga QQS to'lamagan yoki o'zaro operasiyalarini Ehfd a aks ettirmagan yoki soliq organlariga soliq hisobotini taqdim etmagan kontragentlar bilan amalga oshirilgan operasiyalar bo'yicha holatlar soliq riskining oshishiga xizmat qilmoqda. Shu muammoni kamaytirish yoki bartaraf etishning yo'llaridan biri sifatida bizning fikrimizcha, bu jarayonni avtomatlashtirish algoritmlarga asoslangan mezonlarni ishlab chiqishdir. Bu esa inson omili aralashmagan holda, avtomatik ravishda soliq to'lovchilarning soliq hisobotlarida keltirilgan ko'rsatkichlar bilan Davlat soliq qo'mitasida mavjud ma'lumotlar, jumladan, elektron hisobvara-faktura, eksport-import operasialari, onlayn kassa texnikasi cheklari va hako-zolar asosida tekshiruvdan oldingi tahlil o'tkazishga imkon beradigan "Avtokameral" dasturiy mahsulotida foydalanish mezonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Fikrimizcha, bu mezonlar ichida QQS va foyda solig'i bo'yicha soliq xavfini aniqlash mezonlarining algoritmini ishlab chiqish o'ta muhim hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha taklif etilayotgan ushbu mezonlar "Avtokameral" dasturiy mahsuloti orqali soliq xavfini aniqlash imkonini oshiradi, soliq tahlilini to'g'ri amalga oshirishni ta'minlaydi, dasturning mezonlarini shaffoflashtiradi, shu jihatdan ham mazkur uslubiyot katta ilmiy ahamiyatga egadir.

Ushbu ikki soliqning mohiyati va ular bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarning darajasidan kelib chiqqan holda "Avtokameral" dasturiy mahsulotida foydalanish uchun bir qator mezonlar bo'yicha soliq xavfini va uning algoritmini takliflarimizni quyidagicha keltiramiz:

3.2-jadval

Qo‘shilgan qiymat solig‘i "Avtokameral" dasturiy mahsulotida foydalanish uchun mezonlar bo‘yicha soliq xavfini va uning algoritmi¹⁰³

Soliq turi	Mezon	Foydalaniladigan ko‘rsatkichlar tavsifi	Hisoblash algoritmi
